Дунё генофонди коллекция кўчатзорига тритикаленинг 185 та нав ва намуналари 2021 йил 20 октябрда нав ва намуналар биринчи йил ўрганишда улар 1м^2 майдонда қайтариқсиз ҳамда иккинчи йил ўрганилаётган нав ва намуналар эса 2-3м^2 майдонда 3 қайтариқда жойлаштирилди.

Коллекция кўчатзорига асосан Краснодар ўлкасининг П.П.Лукяненко номидаги «Краснодар Миллий дон маркази», Москва вилояти Немчиновка қишлоқ хўжалик илмий-тадқиқот институтлари, (Россия), Ўсимликлар Генетик ресурслар илмий-тадқиқот институти ҳамда СИММИТ, ИКАРДА, ИКРИСАД ҳалқаро илмий марказларидан келтирилган тритикаленинг жаҳон генофонди нав ва намуналари ташкил этади (1-жадвал).

1-жадвал

Тритикале нав ва намуналарини географик келиб чиқиши

№	Географик келиб чиқиши	Мамлакатлар номи	Намуналар, сони
1.	Шарқий европа	Россия, Венгрия, Сербия	88
2.	Ғарбий европа	Франция, Италия, Дания	30
3.	Марказий Осиё	Ўзбекистон, Қирғизистон, Қозоғистон	20
4.	Олд Осиё	Туркия, Сурия	37
5.	Марказий Америка	Мексика	10
	Жами:	**12**	**185**

Ушбу тўпланган тритикаленинг дунё ва маҳаллий генофонди коллекция нав ва намуналари географик келиб чиқиши бир-биридан узоқ бўлган асосан Мексика, Италия, Дания, Франция, Сербия, Венгрия Россия, Туркия, Сурия, Ўзбекистон, Қирғизистон ва Қозоғистон мамлакатлари селекциясига мансуб нав ва намуналардир.

Минтақа шароитида экологик нав синови олиб бориш учун институтининг Марказий тажриба даласига Крсанодар селекциясига мансуб бўлган тритикаленинг интродукция қилинган навларидан Тихон, Хлебороб, Сват, Тит, Кунак, Ярило, Сергий навлари экилди. экологик нав синовида тритикале навларининг минтақа шароитида ўсиш риовжланиш фазалари хамда минтақа шароитида табиатнинг ноқулай иқлим шароитларига бардошлиги бахоланади.

Екологик нав синов кўчатзори пайкалчалар ҳисоб майдони 100 м^2 да битта ярусда экиш меъёрилари гектарига 4,0 млн дона унувчан уруғ ҳисобида, экиш чуқурлиги 4-5 см қилиб белгиланиб, СН-16 русумли селекцион сеялкаларда 2021 йил 4 ноябр куни экилди.

Далла тажрибаларини экиб жойлаштиришдан олдин Фосфорли минерал ўғити (соф холда 90 кг) ва калийли минерал ўғити (соф холда 60 кг) ўғитларнинг 100% меъёри шудгор остига экишдан олдин йиллик меъёри берилди.

Дунё генофонди коллекция кўчатзорига экилган нав ва намуналарни ўсиш ва ривожланиш фазалари ўрганилганда намуналарни униб чиқиш даври 8-12 кунда тўлиқ униб чиқанлиги кузатилди. Туплаш даври энг эрта бошлангани Сергий, ПопЦАЗ-44, Ярилло, Ромес, Сотник, Брат, КНИИСХ-6, КНИИСХ-70, еРИЗО-6, еРИЗО-49, ПАҲБ-17, ПОЛМЕР-17, ПАССИ-8-60, ҲИППО-4, СИТЕР-77-170, Слосер-49, 578884, 578894, 100519, 100557, 100597, 114216, 117429, 118156, 118198, 118759, 118947 каби нав ва намуналар 7-8 феврал кунига тўла туплаш даврига ўтганлиги кузатилди. Коллекция кўчатзоридаги бошқа нав ва намуналарда туплаш даври феврал ойининг иккинчи ўн кунлик бошларида кузатилди.

Найчалаш даври Ярилло, Ромес, Сотник, еРИЗО-6, ПАҲБ-17, ПОЛМЕР-17, ҲИППО-4, СИТЕР-77-170, Слосер-49, 578894, 100597, 114216, 117429, 118947 нав ва наумналарда 10 март кунига ўтганлиги кузатилди.

Кузги Тритикаледа кўчат қалинлиги ўсув даври бошида ва охирида аниқланади. Кўчат қалинлигини ўсув давринининг охирида аниқланиши ўрганилаётган хамда дастурда белгиланган ва ташқи омилларнинг кўчат қалинлигига тасирини белгилайди. Кўчат қалинлигини аниқлаш учун хар бир вариантда диогналлар бўйича 1 метр квадрат ўлчамда доимий қозиқлар қоқилган уч нуқтада белгилаб олинади. Бу нуқталарда барча фенологик кузатувлар ўсимликни вегетататция даври охиригача олиб борилади. Екологик нав синови кўчатзоридаги навларнинг фенологик кузатув ишлари олиб борилганда дала тажрибаларида қуйдаги натижалар кузатилди. Навлар экилгандан сўнг гектарига 600-700 м3 суғориш ишлари амалга оширилди. Навларни тўлиқ униб чиқиши навларнинг биологик хусусиятларига қараб 7-11 кунда кузатилиб 11-15 ноябр кунларига кузатилди. Фенологик кузатув натижалари бўйича навларнинг туплаш даври эрта кузатилгани Хлебороб, ТИТ, Сват навлари 3 март кунига кузатилиб, нав синовида ўрганилган Тихон, Сергий, Кунак навлари 4-5 март кунига, Ярилло нави 6 март кунига тўла туплаш даврига ўтганлиги кузатилди (2-жадвал).

Кузги тритикаледа тупланиш давридан кейинги ривожалниш даври найчалаш давридир. Бунда тупланишдан ҳосил бўлган бўғин оралиғи қисқариб, бошланғич туп гулли поялар узаяди, пастки бўғинидан бошлаб пастки барглар новидан юқорига кўтарила бошлайди; юқоридаги бўғимларида бошоқ пайдо бўлади. Ўсимлик най ўрагандан бошлаб кучли ўса бошлайди. Ўсимлик ҳаётидаги бу давр энг маъсулиятли, яъни «критик давр» ҳисобланади.

Тритикаленинг ҳосилдорлиги маълум даражада найчалаш даврида физиологик жараёнлар қандай ўтганлигига, озиқа ва намлик билан таъминланиш даражасига бевосита боғлиқ бўлади. Тажрибадаги навларнинг найчалаш даври навларда Ярилло нави 20 март кунига, Хлебороб, ТИТ,Сергий навлари 23 март кунига, Сват, Тихон, Қунақ навлари 25 март кунига тўлиқ найчалаш даврига ўганлиги кузтилди.

Бошоқли дон экинларида найчалаш фазасида ўсимликнинг вегетатив органлари, энг асосийси поялар сонининг кўпайиши ҳисобига азотга бўлган талаби энг юқори даражада бўлади. Шундан келиб чиқиб, бу даврда азотли ўғитлар йиллик меъёрининг 40 фоизини, яъни физик холда аммиакли селитра ҳисобида гектарига 300-350 кг. меъёрда берилди. Тажриба даласидаги тритикаленинг хар бир озиқлантиришдан сўнг гектарига 600-700м^3 меъёрда суғориш ишларини ўтказилди. Барчамизга маълумки, суғорилгандан кейин ғалла ўсимлиги билан бир вақтда бегона ўтларнинг бир ва икки йиллик турлари (жағ-жағ, бурган, шўра, олабута, бангидевона, қўйтикан, итузум, мачин, сутлама, райграс, тулкидум, ёввойи сули ва бошқа) ўсиб ривожланиши кузатилди. Бегона ўтлар ривожланган ғалла майдонларида уларнинг тури ва сонига қараб бир йиллик икки паллали бегона ўтларга Гранстар ДФ 75% (15-20 г/га), бир йиллик бир паллали бошоқли бегона ўтларга қарши Топик 8% (0,3-0,4л/га), кўп йиллик икки паллали бегона ўтларга Гранстар Плюс 75% (30 г/га) гербицидлари билан ишлов берилди. Тритикале майдонларидаги касалликларни олдини олиш мақсадида Виканазол 33% (0,3 л/га) фунгициди билан 200-300 литр ишчи эритма сарфлаган холда ишлов берилди.

Тритикале дон экинини зараркунанда хашаротлар зарарли хасва, шиллиқ қурт (пявица), арракаш, шира ва трипс каби хашаротларга қарши ишлов беришда Агрофос-Д 55% (0,5 л/га) препарати билан ишланди. Ўрганилаётган навларнинг фенологик кузатув натижалари хар бир фазалари бўйича фазалар давомийлиги, озуқа ва сувга бўлган талаби доимий ўрганилиб тахлил қилиб борилмоқда.

Найчалаш даврида ўсимлик пояси бўйига ўса бошлаши билан юқоридаги барг новидан бошоқ чиқади. Туп гулнинг ярими ҳосил бўлиш билан навбатдаги - бошоқлаш даври бошланади. Ёппасига бошоқлаш ҳосилнинг бир текис етилишига ва ўрим-йиғим муддатларига катта таъсир кўрсатади. Найчалаш давридан бошоқлашгача бўлган вақт давомида репродуктив органларнинг интенсив шаклланиши, жадал равишда вегетатив масса тўпланиши кузатилади. Навларда бошоқлаш даври энг эрта кузатилгани Ярилло, Тихон нави 28-29 апрел кунига, Кунак нави 30 апрел кунига, Хлебороб нави 3 май кунига, ТИТ нави 8 май кунига, Сергий ва Сват навлари 9-10 май кунига бошоқлаш даврига ўтганлиги кузтилди. Бошоқли дон экинларининг гуллаш даврида ҳароратнинг

юқори бўлиши битта бошокдаги дон сонининг камайишига ва пировард натижада ҳосилдорликнинг 20 % пасайишига олиб келади.

Гуллаш - даври бошоқлаш бошлангандан 3-5 кун кейин бошланади. Бошоқнинг ўзида гуллаш 3-5 кун давом этади, хаммаси бўлиб эса 8-10 кун давом этади.

Бир бошоқнинг барча гуллари бир вақтда гулламайди. Аввалига ўртадаги бошоқчалар, кейин пастки ва юқоридаги бошоқчалар гуллайди. Гуллашда гул қобиқчалари очилади, ташқарисига чангдонлари тушиб дастлаб оналигига сўнгра бўғинчага тушади.

Буғдой ўз-ўзидан чангланувчи ўсимлик ҳисобланади, лекин таъбиий шароитда четдан чангланиб қолиши мумкин. Гуллаш учун энг паст ҳарорат 6-7 ^{0}С, энг юқориси 25-27 ^{0}С.

Дон сифатининг шаклланишида ҳарорат ва намлик муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ўсув даври давомида ва айниқса, дон тўлишиш даврида уларнинг таъсири жуда муҳим аҳамият касб этади. Бу даврда ҳаво ҳароратининг юқори бўлиши ва намликнинг камлиги тритикале донларида юқори сифатли оқсилнинг кўп миқдорда шаклланишига олиб келади.

Тритикале донида сувда эрийдиган моддаларнинг сувда эримайдиган ҳолатга ўтиши билан пишиш даври бошланади. Бу давр сут пишиш, мум пишиш ва тўлиқ пишиш даврларига бўлинади. Доннинг тўлишиши ва етилиши кўп жиҳатдан ташқи шароитга боғлиқ. Бу даврда қуруқ иссиқ шамол эсиши сувда эриган озиқа моддаларнинг вегетатив органлардан донга оқиб келишини қийинлаштиради ва дон яхши тўлишмайди. Натижада дон пуч, майда ва енгил бўлиб қолади. Мўл ва сифатли ҳосил етиштиришда бу давр жуда муҳим ҳисобланади.

Сут пишиш даврида Тритикале яшиллиги сақланади, лекин пастки барглари қурий бошлайди. Мум пишиш даври ўрталарида озиқа моддаларнинг донга келиши тўхтайди. Бу даврда доннинг ҳажми кичиклашади ва намлик миқдори кескин камаяди. Дон таркибида намлик миқдори мум пишиш даврининг бошида 40%, охирида 20% бўлади. Дон сарғайиб, унга мум сингари тирноқ ботириш мумкин бўлади. Ғалла сариқ рангга киради. Бу даврда донда озиқа моддалар энг кўп тўпланади. Тўлиқ пишиш даврида дон тўлиқ етилганда ўсимликнинг пояси юқориги бўғинигача сарғая бошлайди, бўғимлари ҳам сарғайиб, қўнғир рангга киради. Дон қаттиқлашиб, унга тирноқ ботмайди, тишлаганда қарсиллайди. Бу даврда дон таркибида намлик миқдори 14-17% ни ташкил этади. Тритикалени пишиш вазалари бўйича кузатув ишлари олиб борилганда минтақа шароитида апрел ойининг биринчи ўн кунлигида хавонинг сер ёғин бўлиши хамда май ойининг иккинчи ўн кунлигида кунинг кескин исиб

кетиши навларнинг биологик етилишига ўз тасирини кўрсатиб тажрибадаги навларнинг пишиш фазалари қуйдагича кузатилди.

Сут пишиш. Феналогик кузатувга кўра Тихон нави 15 май, Хлебароб 16 май, 22 май, ТИТ нави 20 май, Қуноқ нави 17 май, Ярило нави 15 май, Сергей нави эса 22 май кунида сут пишиш фазасига ўтканлиги аниқланди.

Мум пишиш. Ўсимлик мум пишиш даврига Тихон нави 30 май, Хлебароб 31 май, Сват нави 03 июн, ТИТ нави 01 июн, Қуноқ нави 31 май, Ярило нави 30 июн, Сергей нави эса 03 июн кунида мум пишиш фазасига ўтканлиги аниқланди.

Тўла пишиш. Ўсимлик тўла пишиш даврига Тихон нави 10 июн, Хлебароб 11 июн, Сват нави 13 июн кунида, ТИТ нави 12 июн, Қуноқ нави 12 июн, Ярило нави 10 июн, Сергей нави эса 13 июн кунида мум пишиш фазасига ўтканлиги аниқланди

Хулоса

Тажрибада интродукцион тритикале навлари вегетация даврига кўра: Тихон, Хлебароб, Ярило навлари бошқа навларга нисбатан эртапишарлиги аниқланди. Тихон нави 220 кун, Хлебароб 223 кун, Сват нави 225 кун, ТИТ нави 224 кун, Қуноқ нави 224 кун, Ярило нави 222 кун, Сергей нави эса 225 пишиб етилгани аниқланди.

2-жадвал

Кузги тритикаленинг ўсиш ривожалниш фазалари бўйича фенологик кузатув натижалари.
(2021-2022 й)

№	Навлар номи	Екилган муддат	Униб чиқиш	Туплаш	Найчалаш	Бошоқлаш	Гуллаш даври	Пишиш фазалари			Ётиб қолишга чидамлиги	Вегетация даври, кун
								Сут	Мум	Тўла		
1	Тихон	04.11.2021	15.11.2021	04.032022	25.032022	29.042022	03.052022	15.052022	30.052022	10.062022	7	222
2	Хлебороб	04.11.2021	12.11.2021	03.032022	23.032022	03.052022	04.052022	16.052022	31.052022	11.062022	9	223
3	Сват	04.112021	11.112021	03.032022	25.032022	10.052022	14.052022	22.052022	03.062022	13.062022	9	225
4	ТИТ	04.112021	13.11.2021	03.032022	23.032022	08.052022	12.052022	20.052022	01.062022	12.062022	9	224
5	Қуноқ	04.112021	14.11.2021	04.032022	25.032022	30.042022	05.052022	17.052022	31.052022	12.062022	7	224
6	Ярило	04.112021	13.11.2021	06.032022	20.032022	28.042022	03.052022	15.052022	30.052022	10.062022	9	222
7	Сергий	04.112021	15.11.2021	05.032022	23.032022	09.052022	14.052022	22.052022	03.062022	13.062022	9	225

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. П.О.Орипов Н.Х.Халилов “Ўсимликшунослик” Самарқанд-2005

2. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали “Тритикале” 2018.

3. Х. Атабоева О. Қодирхўжаев “Ўсимликшунослик” Тошкент- 2006 йил 94 бет.

4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта (с основами статистической обработки результатов исследований). — Изд. 5-е, доп. и перераб. М.: Агропромиздат, 1985.-351 с.

5. Абдукаримов. Д. Т. Донли экинлар селекцияси ва уруғчилиги. Тошент-2010 й. 9-84 бет.

6. ҳттпс://агро.уз

7. ҳттпс://фоодандҳеалтҳ.ру/крупй/тритикале/м

ТАКРОРИЙ ЭКИНЛАР ЭКИШДА ҲАМКОР ЭКИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

И.Н.Хошимов
қ.х.ф.д
Андижон Дон ва дуккакли экинлар илмий-тадқиқот институти
Ш.Д.Худойбердиева
Андижон Дон ва дуккакли экинлар илмий-тадқиқот институти
докторанти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7348602

Аннотация: Мамлакатимизда кузги бошоқли дон экинлари йиғиштириб олинганидан кейин, уларнинг ўрнига такрорий экинлар етиштириш учун ажойиб имконият бор. Айтайлик, бошоқли дон экинлари 15–20 июнь муддатида йиғиштириб олинса, ундан кейин тўрт ой, яъни 120–130 кун иссиқ ҳароратли кунлар давом этади. Шу ойлар мобайнида 1600–1800 °C фойдали ҳарорат йиғиндисини заминимиз қабул қилади. Бу эса республикамизда кузги бошоқли дон экинларидан кейин такрорий экинлар экиш орқали бўш қолган ерлардан унумли фойдаланиб ҳосил олиш имкониятини беради.

Калит сўзлар; бошоқли дон экинлари, бошоқли дон экинлари, тупроқ унумдорлиги, шамол эрозияси.

Аннотация: После уборки озимых зерновых культур в нашей стране есть прекрасная возможность выращивать на их месте повторные культуры. Скажем, если колосовые зерновые культуры убирают в период 15-20 июня, то за ними следуют четыре месяца, то есть 120-130 дней с высокими температурами. Сумма полезных температур 1600-1800 °C в течение этих месяцев принимается нашим полом. Это дает возможность в нашей республике плодотворно использовать освободившуюся землю путем посева повторных культур после осенних колосовых зерновых культур.

Ключевые слова; зерновые культуры с шипами, зерновые культуры с шипами, плодородие почвы, ветровая эрозия

Республикамизнинг олимлари ва тадқиқотчилари республикамизда шамол эрозияси жараёнлари, унинг салбий оқибатлари, унга қарши кураш чоралари, иҳота ўрмонлари барпо этиш, экинлар етиштириш агротадбирлари тупроқни агрофизик ва агрокимёвий ҳоссалари, қишлоқ хўжалик экинларидан юқори ҳосил етиштириш борасида илмий изланишлар олиб борилган. Бироқ, қисқа навбатлаб ғалла ва дуккакли экинлар навбатлаб экиш тизимида Марказий Фарғонанинг шамол эрозиясига учраган, унумдорлиги паст ерларда кузги

буғдойдан сўнг такрорий экинлар етиштиришни тупроқ унумдорлиги ва парваришлаш агротехникаси элементлари уларни ўсиши, ривожланиши ҳосилдорлигига таъсири ўрганилмаган эди ва энди тадқиқотларимиз орқали ҳамкор экинлар экиб ўрганмоқдамиз. Шу кунга қадар кўплаб олимларимиз тамонидан қуйидаги ишлар ўрганилиб келинмоқда.

Г.С. Посикпанов маълумотига кўра кузги дон экинларнинг нобуд бўлганини тез аниклаш учун П. Лавласюк ва М.Л. Гурилева янги усул таклиф килишади, ўсиш конусининг кесилган жойини фуксик кислота эритмасида буяшга асосланган. Фуксик таъсирида ўлган қием кизил-оч кизил ранг олади. Шикастланмаган ўсимтанинг ўсиш конуси бўялмайди. Ўсимликларнинг нобуд бўлган-бўлмаганлигини туплаш бўгиндан ўсишига қараб хам аниқлаш мумкин. Бу усулда кузги дон экинларини туплаш буғинидан бошлаб кесилади, илдизлари олиб ташланади. Туплаш бугинидан бошлаб усимталарни идишга намланган филтирли коғоз, пахта ёки хўл латта устига қуйилади ва қопқогани ёпиб 24-26°С хароратда 12-24 соатга қўйилади. Яхши сақланган ўсимликлар 10 мм гача ўсади, нимжонлари 3-5 мм. Сўнгра тирик, нимжон ва ўлик ўсимликларни санаб ва 1м^2 даги ўсимлик қалинлиги аниклашган. Кучи камайган экинларга ва 1м^2 100-120 дан кўп сорлом ўсимликлар бўлмаган экинлар, ўртача камайганларга 1м2 130-200 дона ўсимлик бўлганда сийраклашган экинларни хисоблашган[1; 47-бет]

С.Негматова томонидан олиб борилган тажрибаларига кўра, кузги буғдойдан бўшаган ерларга такрорий экин сифатида мош экилганда тупроқнинг намлиги ўсув даври бошидан охиригача тупроқнинг 0-30 см қатламида ўртача 5,1%, 0-50 см қатламида 5,2 %, 0-100 см қатламида 6,7 % ва 0-150 см қатламида 4,1% гача камайганлиги аниқланган. Сўнгра намлик мошнинг вегетация даврида аста-секин камайиб боришига қарамай, берилган захира сув мошнинг пишишига қулай шароит яратиши таъкидланган.[2;22 б]

М.Назаров, М.Гайбўллаева тадқиқотларида Ўсимликлардаги хлоропластлар миқдори Д.Мустақимов (1985) усулида бажарганлар ва фотосинтез жадаллиги ва маҳсулдорлиги А.А. Ничипорович (1961,1963) усулларида ўрганишган. Барг сатҳи ҳар 10 кунда торзион тарозиси билан, сатҳи намуна олгичда (высочка) баргларни ўртасидан патрон билан намуна олиш. Олинган натижаларнинг кўрсатишича, мош ва ловия ўғит берилган ва берилмаган вариантларда онтогенезни бошланғич даврларида (10- 12 кун) ўсимликдан кам фарқланади, шохланиш бошланишидан бўйига ўсиш фаоллашиб, барг сатҳи 2 марта тезлашганлиги сабабли бир сутка давомида фотосинтезнинг биомасса тўплаши сезиларли ортди. Аниқландики, иккала ўсимликда хам баргдаги “а” ва “в” хлорофиллари азотли ва фосфор+калий ўғити берилганда 1 дм2 юзада 4.2-4.8 мг (ловия) мошда -2.90-3.15

миллиграммни ташкил этди. Шунингдек, сутка давомида тўпланаётган хлорофилл эрталабки (9-11) соатларда энг жадал, куннинг 13-16 соатларида секинлашди, кечки пайт яна ортиши аниқланган. [3; 30 бет]

Х.Атабоева маълумотларига кўра, қўшиб экилган экинлар илдизларидан ажралган моддалар бир-бирини аминокислота ва оқсилларга тўлдирган, атомлар ёрдамида кузатилганда хам, юқоридаги фикрларни тасдиқлаган. Донли экинлар ўзидан тупроққа органик кислоталар, баъзи бир минерал моддалар ажратади, ана шу моддалар ўсимликнинг илдиз атрофи қисмларида микроорганизмларнинг ривожланиши учун қулай шароит яратиб, шу жойдаги тупроқдан азотли тузларни ўзлаштиради деган фикрлари берганлар. [4.101-бет].

Аҳолининг ўсиб бораётган эҳтиёжини қондириш учун ерлардан оқилона фойдаланиш, ҳосилдорлигини ошириш талаб етилади. Қишлоқ хўжаликни парваришлашда қўлланиладиган барча агротехник тадбирлар биринчи навбатда тупроққа таъсир етади. Натижада тупроқнинг тузилиши, сув-физик, физик-кимёвий хоссалари, унумдорлигига таъсир этиши, ўсимликларнинг ўсиш-ривожланиши, ҳосилдорлигини белгилайди.

Адабиётлар:

1 Д.Ёрматова. Н.Шамуротова. Донли экинлар экиш технологияси Тошкент-2008 й 47-бет

2. А.Иминов, Ш.Мирзаев. Кузги буғдойда маҳаллий ва минерал ўғитлар қўллашнинг такрорий етиштирилган мош ҳосилдорлигига таъсири. 24«O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi» «Agro ilm» 2020, март-апрель 2 (65)-сон)

3. М.Назаров, М.Гайбуллаева. Дон-дуккакли ўсимликларда фотосинтез жараёнларига экологик омиллар таъсири.30 бет «O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi» «agro ilm» 2020, март-апрель 2 (65)-сон))

4. Ўсимликшунослик Х. Атабоева. О.Қодирхўжаев Тошкент-2006. Янги асир авлоди.101- бет

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARGA FANLARNI O‘QITISHDA ELEKTRON DARSLIKLARDAN FOYDALANISH O‘RNI VA AHAMIYATI

Ismoilova Dilrabo Sidikjonovna
FarDU axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
Toshboltayev Faxriddin O‘rinboyevich
FarDU tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7348623

Annotatsiya: Ushbu maqola elektron darslikdan mustaqil foydalanish yoki ta’lim jarayonida talabalarga axborot muhitida yo‘nalishni, qandaydir muammolar yechimini aniq topishni o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: elektron darslik, virtual tarmoq, individual ta'lim, interaktiv aloqa, muammo.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНИКОВ В ОБУЧЕНИИ НАУКАМ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Исмоилова Дилрабо Сидикжоновна
преподаватель кафедры информационных технологий ФерГУ
Тошболтаев Фахриддин Уринбоевич
докторант ФерГУ

Аннотация: Данная статья направлена на то, чтобы научить студентов самостоятельно пользоваться электронными учебниками или научиться ориентироваться в информационной среде и находить решения некоторых задач.

Ключевые слова: электронный учебник, виртуальная сеть, индивидуальное обучение, интерактивное общение, проблема.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE USE OF ELECTRONIC TEXTBOOKS IN TEACHING SCIENCES TO FUTURE TEACHERS

Ismoilova Dilrabo Sidikjonovna
Lecturer at the Department of Information Technology of FerSU
Toshboltaev Fakhriddin Urinboevich
doctoral student of FerSU

Annotation: This article is aimed at teaching students to use electronic textbooks on their own or learn how to navigate in the information environment and find solutions to some problems.

Key words: electronic textbook, virtual network, individual learning, interactive communication, problem.

Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2001 yil Oliy Majlisning V sessiyasida so‘zlagan nutqida axborot texnologiyalari va kompyuterlarni jamiyat hayotiga, kishilarning turmush tarziga, maktab va oliy ta’lim muassasalariga jadallik bilan olib kirish g`oyasi ilgari surilgan edi. 1-Prezidentimiz tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 23 maydadagi 230-sonli «2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish», shuningdek, «Internet»ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta’minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g`risida»gi Qarorlari qabul qilindi. 2002 yil 30 mayda O‘zbekiston Respublikasi 1-Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g`risida»gi Farmoni va uning ijrosini amalga oshirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi «2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi» to‘g`risidagi Qarori e’lon qilindi.

Bulardan ko‘rinadiki, hozirgi paytda ta’limga axborot texnologiyalarini jadal tatbiq etish, ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish asosiy masalaga aylangan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida informatika va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng tadbiq qilish masalasi ko‘ndalang qo‘yilgan. Unda, shuningdek, axborot texnologiyalari va informatika sohasida kadrlar tayyorlash, shu jumladan Internet texnologiyalarini barcha sohalarda keng joriy qilish dolzarb masalasi ekanligi alohida uqtirib o‘tiladi.

Globallashuv davrida internetning ta’sir ko‘lami va doirasi tobora kengayib bormoqda. Virtual tarmoq odamlarning axboriy ehtiyojalarini qondirishda an’anaviy ommaviy axborot vositalarini ham ortda qoldirmoqda. Tabiiyki, axborot texnologiyalarining jadal taraqqiy etishi kitobxonlikka ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmayapti.Xozirda jahondagi ko‘pgina bosma nashrlar kamayib,ularning o‘rnini onlayn versiyasi ko‘proq o‘qilmoqda.dunyoning eng boy kutubxonalarida saqlanayotgan bosma manbalarning aksariyati elektronlashib bo‘lindi. Zamonaviy ta’lim yuqori darajada axborotga boyligi bilan ajralib turadi. Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi aynan shu jihatga asoslangan. Ta’limda yangi o‘qitish usullaridan foydalanish zarurati ajoyib imkoniyatlarni taqdim etuvchi elektron nashrlar yaratilishiga sabab bo‘ldi. Elektron darslik o‘zida nazariy axborot va amaliy topshiriqlarni, foto va audiomateriallarini jamlaydi. Elektron darslik — bu talabalarda

o‘zlashtirishi uchun hamda ko‘nikma va malakalar orttirishida zarur bo‘lgan bilimlar bayon etilgan o‘quv nashrini elektron shaklda taqdim etuvchi, tuzilmaviy hamda tizimli materialga ega bo‘lgan vositadir. Unda o‘quv materiali mantiqiy bayon etilishi, yuqori darajada texnik jihozlanishi hamda badiiy jihatdan bezatilganligi bilan o‘ziga xosdir. Ba’zi bir olimlar elektron darslik bilimlarni o‘zlashtirish, yangi axbortlar guruhini hosil qilish, olingan bilimlarni tekshirish va shu kabi ishlarni bajarishi kerak deb hisoblaydilar. Umumiy holda esa elektron darsliklarga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Elektron darslik - birinchi navbatda talabalarga yangi ma’lumotlarni taqdim etish, ma’lumotlarni bosmaga chiqarish, mustaqil, yakka tartibda (individual) ta’lim olish, olingan bilimlarni tekshirish va shu kabi ishlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan kompyuterda yaratilgan pedagogik dastur bo‘lib, bu dasturni ishlatish jarayonida multimedia vositalaridan unumli foydalaniladi. Darslik nafaqat, matnli va grafikli ma’lumotlarni yana qo‘shimcha ravishda, ovozli va video ko‘rinishli ma’lumotlarni o‘zida jamlar ekan, u ta’lim berish jarayonini mustaqillashtiradi. Elektron darslik orqali dars berishda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabati emas balki, o‘quvchi–kompyuter munosabati o‘rnatiladi va talaba bilan kompyuter o‘rtasida interaktiv aloqa o‘rnatiladi.

Elektron darslik haqida gapirilganda,ularning psixologik,estetik,gigienik va tibbiy-psixologik tomonlarini ham e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Shu narsani esdan chiqarmaslik lozimki, bunday vositalarning ko‘p miqdorda bo‘lishi insonning sog‘ligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Elektron darslikni yaratishda yana bir muhim muammo-bu foydalanuvchilarga qancha miqdorda ma’lumot berish mumkinligi bilan bog‘liqdir. Odatda, inson organizmi tashqaridan kelayotgan ma’lumotlarga nisbatan moslashishini talab etadi. Shu sababli bu sohadagi izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, elektron darsliklar bilan ishlashda mashq qilish rejimida yoki ko‘proq mustaqil ishlash soatlarida foydalanish maqsadga muvofiq, chunki ma’lumotlarni ortiq darajada qabul qilinishi o‘quvchilarning diqqatini jalb qilmaydi.

Ta’limda elektron darslik kabi innovatsion texnologiyadan foydalanish, elektron darslikning ta’lim jarayonida tutgan o‘rni, elektron darslik yangi axborot texnologiyalari vositasi sifatidagi mavzularda quyidagi olimlar: A. A. Kuznetsov, A. A. Grechixin, T. M. Lepsova, E. S. Polat, V. A. Vul, V. M. Gasov, A. M. Siganenko, V. N. Ageyev, M. M. Subbotin, Yu. M. Sivenkov, E. Yu. Semenov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Xulosa qilib aytganda, elektron darslik shunchaki yozma materiallar jamlanmasigina emas, balki audio-qo‘llanma bo‘lib ham hisoblanadi, eshitish va vizual foydalanish uchun taqdim etishga mo‘ljallangan axborot majmuasidir. Elektron darslikdan mustaqil foydalanish yoki ta’lim jarayonida talabalarga axborot muhitida yo‘nalishni, qandaydir muammolar yechimini aniq topish imkonini beradi.

Talabalarni zamonaviy ta’lim metodlaridan, aynan — elektron darslikdan foydalanib o‘qitish ta’lim sifatini oshiradi, axborot olish jarayonini qisqartiradi hamda ularni ijodiy kamolotga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.S.G‘ulomov va boshqalar «Axborot tizimlari va texnologiyalari» T.-2000.
2. Lutfullayev M.X. Masofadan o‘qitish tizimida multimediali elektron darsliklar strukturasi // Masofadan o‘qitish texnika va texnologiyasi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ma’ruzalar to‘plami. Toshkent, 2002 yil, 13-14 may.
3. http://uz.infocom.uz
4. Fakhriddin Urinboevich Toshboltaev. (2021). Improving the methodological system of training teachers on the basis of integration of pedagogical and information technologies. current research journal of pedagogics 2(6): 96-100, June 2021.
5. Fakhriddin Urinboevich Toshboltaev. (2021). The necessity to ensure integration of pedagogical and information technologies in the preparation of future teachers. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS). Vol. 2 No. 6, June 2021 103-106.
6. Toshboltaev F.U., Toshboltaeva Yu.I. (2020). Solution of ecological and economic problems by modeling. Экономика и социум №11(78), 359.
7. Тошболтаев Фахриддин Ўринбоевич. (2022) Бўлажак ўқитувчиларда методик тайёргарликни ривожлантиришнинг ижтимоий-педагогик зарурати. Science and innovation international scientific journal 539-546.
8. Шавкат Мамирович Ибрагимов (2022). Использование LMS системы HEMIS в высших учебных заведениях. Icarhse international conference on advance research in humanities, sciences and education Volum 1., Issue 1.
9. Шерматова, Х.М., & Орифжонова М. (2022). Использование информационных технологий в преподавании естественных наук. Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!, (1), 103-104.
10. Shermatova, G.Y.H. (2022). Aniq fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Scientific progress, 3(1), 372-376.
11. Yuldasheva, G. I., & Shermatova, K. M. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. Экономика и социум, (4-1), 466-468.
12. Komilova, Z. K., & Nazirjonova, F. S. (2021). The role of new information technologyies in education. Экономика и социум, (4-1), 167-170.
13. Aldashev, I. (2020). Modern information technologies in education is a new opportunity. Economy and society, (6 (73)).

14. Mamarajabov, M. E., & Ismoilova, D. S. (2020). Competence-based education in computer science and information technologies. Academicia an International Multidisciplinaru Research Journal, (10), 699-705.

15. Mamarajabov, M. E., & Ismoilova, D. S. (2020). The concept of development of information technology education in the system of continuous education in the republic of Uzbekistan. Theoretical & Applied Science, (6), 481-487.

16. Исмоилова Д. С. (2021). Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети, (6), 139-145.

ДОН ВА ДУККАКЛИ ЕМ-ХАШАК ЭКИНЛАРИНИ ҚЎШИБ ЭКИШДАГИ ТАДҚИҚОТЛАРДАГИ ЎРНИ

А.А.Иминов
к.х.ф.д.
Андижон Дон ва дуккакли экинлар
илмий-тадқиқот институти
М.А.Каримова
Андижон Дон ва дуккакли экинлар
илмий-тадқиқот институти докторанти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7353833

Аннотация: Республикамизнинг ҳар бир минтақа тупроқ иқлим шароити учун мос ем-хашак экинларини етиштириш агротехникасини ва агротехник омилларни ўз муддатида бажарилиши ҳосилни мўл бўлишини таъминлабгина қолмай балки унинг сифат кўрсаткичларини ҳам ошишини таъминлайди, яъни ўрганилаётган у ёки бу агротехник тадбирни самарадорлиги кўп жихатдан мазкур шароитда қўлланилаётган умумий агротехникани қай даражада олиб борилишига боғлиқ бўлади. Ушбу мақоламизда олимларимиз тадқиқотлари ўрганилган.

Калит сўзлар: ўсимлик, яшил масса, силос масса, қуруқ хашак, ширали озуқа ва омухта ем, уруғ экиш меъёри.

Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2020 йил 1 апрель маълумотига кўра Республикамизда 12745,5 минг бош йирик шохли ва 21637,5 минг бош майда шохли чорва ҳайвонлари мавжуд. Ушбу маълумотдан келиб чиқиб, йил давомида чорва хайвонларини узлуксиз яшил масса, силос масса, қуруқ хашак, ширали озуқа ва омухта ем билан таъминлашга тўғри келади. Республикамизда суғориладиган ерлар ва сув ресурлари заҳиралари чегараланган ҳамда 55% ер майдонини турли даражада шўрланганлиги, тупроқ унумдорлигини пастлигини инобатга олсак, суғориладиган майдонларимиздан самарали фойдаланишда юкори яшил масса, силос масса, дон ва пичан ҳосили берадиган, озуқавийлиги юқори бўлган экин турларини танлаб олиш муҳим вазифа ҳисобланади. Ем-хашак экинларини ўсиши, ривожланиши, қуруқ масса тўплаши, барг юзасининг шаклланиши, кўк масса ҳосили ва озуқа сифатининг ўзгаришига уруғ экиш меъёри, нисбати ҳамда ўриш муддатларини таъсирини тадқиқ этиш мумкин.

Бир неча экинларни биргаликда кўшиб экиш айниқса Хитой. Хиндистон, Покистон, Миср сингари давлатларда қадимдан кўлланилиб келинган, бугунги

кунда ҳам кенг қўлланилади. Бир неча турдаги ўсимликлар аралаш ўстирилганда уларнинг ер устки ва ер остки қисмлари ризосферада ва унга яқин жойлашган микроорганизмларнинг ривожланишига хам таъсир курсатади. Шунинг учун хам ўсаётган ўсимлик тури шу ердаги ўсаётган бошқа турдаги ўсимлик ривожланишига ўз таъсирини кўрсатади [1;25-26]. Экинларни аралаш ёки қўшиб экилганда уларнинг тур ва морфологик-биологик хусусиятлари ҳисобга олинади. Морфологик мутаносибликда дуккакли ва қўнғирбошсимон ўсимликларнинг ташқи тузилиш хусусиятлари ҳисобга олинади. Масалан, вика, кўк нўхат поялари ётиб қолишга мойил, шунинг учун уларга аралаштириб экиладиган ўсимлик пояси тик турадиган (сули, арпа) бўлиши керак. Кўк нўхат, вика ўсимликлари жингалаклари билан арпа ёки сули поясига ёпишиб ўзини тик ҳолатини сақлайди. Дуккакли дон экинларининг ҳам кўпчилиги тик ўсади, ётиб қолмайди, аммо уларни ётиб қоладиган дуккакли ўсимликлар билан қўшиб экишнинг зарурияти йўқ, сабаби озиқа таркибида оқсилни кўпайтириш учун қўшиб экилади [2, 77- бет].

Доимо равишда бир хил ўсимлик ўстирилганда энг юқори хосил олиш учун экиннинг ўсиш ва ривожланиши учун барча зарурий шароитларнинг энг қулай холатини вужудга келтириш лозим бўлади. Агарда бир неча экинлар бирга қўшиб экилганда олинадиган ҳосил учун бир мунча яхшироқ замин яратилган бўлади.Чунки, бир турдаги экин учун ноқулай бўлган шароит, икинчи тур ўсимлик учун қулай бўлиши натижасида бири иккинчисининг ўрнини қоплай оладиган ҳосил олишга имконият яратилади [4; 130-134 бет].

Республикамиз чорвачилигини жадал ривожлантиришда озуқабоп экин майдонларини ташкил қилиш ҳар гектар хисобига 100-150 ц озуқа бирлиги тайёрлаш шу куннинг энг мухим вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Шу асосда турли озуқаларни етиштириш ва тайёрлаш молларни йил давомида бир хил озиқлантириш типига ўтказиш имкониятларини яратади. Молларни қишки ва ёзги рационларида ширали (силос, сенаж ва лавлаги), дағал (беда пичани) ва концентрат озуқалар белгиланган меъёрларда бўлиши шарт ва зарур. Шуни ҳисобга олган ҳолда озуқабоп экин майдонларининг 35% беда, 15% маккажўхори дон учун 5% хашаки лавлаги қолган 45% ини аввало маккажўхори силоси етиштириб бўшаган майдонларга оралиқ озуқабоп экинлар (тритикале, сули, арпа, рапс, ҳашаки нўхат) аралашмасини сенаж тайёрлаш учун экиш маъқул хисобланади [3].

Адабиётлар:

1. Хадеев Т.Г.Путиреализации биологического потенциала рапса НиваТатарстана.-2005.-№4-5.-С.10-12.

2. Марков И.Л. Влияние болезней рапса накормовые качества зеленой массы. Интенсивная технология выращивания кормовых культур: Сб. науч.трудов.-Киев: УСХА,1990.-С.77-81.

3. Сармонов Ш, Абдуазимов А, Амирқулов О, Ёдгоров Н, ”Ўзбекистонда ғаллачиликнинг яратилган илмий асослари ва уни ривожлантириш истиқболлари” мавзусида халқаро илмий-амалий конференцияси. ”Сангзор”нашриёти Жиззах-2013. 71-72- бет

4. Якубжонов О, Турсунов С, Муқимов З. Дончилик. Дарслик.Тошкент “Янги аср авлоди” 2009 (130-134 бет)

INSON HUQUQLARI SOHASIDAGI TA’LIM – INSON HUQUQLARI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI

Sadikova Shaxnoza Muhammadsobirovna
Andijon Yuridik Texnikumi Mutaxassislik fanlar o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7358485

Annotatsiya: Maqolada inson huquqlari sohasidagi ta’lim, inson huquqlari sohasidagi ta’lim tus hunchasi, ushbu sohaning amalga oshrilishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, inson huquqlari madaniyati tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va inson huquqlari madaniyatini ta’minlash sohasidagi asosiy vazifalar haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Inson huquqlari, inson huquqlari sohasidagi ta’lim, madaniyat, huquqiy madaniyat, inson huquqlari madaniyati.

Inson huquqlari - har bir insonning millati, yashash joyi, jinsi, etnik kelib chiqishi, tanasining rangi, dini, tili va boshqa belgilaridan qat’iy nazar ajralmas huquqlaridir. Barcha odamlar har qanday turdagi kamsitishlarni istisno qilgan holda, inson huquqlaridan bir hilda foydalanish huquqiga egadirlar. Ushbu huquqlar o‘zaro bog‘liq va ajralmasdir.

Insonning umumbashariy huquqlari ko‘pincha shartnomalar, xalqaro odat huquqi, huquqning umumiy prinsiplari va xalqaro huquqning boshqa manbalarida qonun ko‘rinishida mustahkamlangan va kafolatlangan. Inson huquqlari universal va ajralmasdir.

Inson huquqlarining universalligi xalqaro huquqning inson huquqlari sohasidagi asosidir. Bu prinsip 1948 yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qabul qilinishi bilan birinchi marotaba muhim ahamiyat kasb etgan va doimiy ravishda inson huquqlari sohasiga oid ko‘plab xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar va rezolutsiyalarda namoyon bo‘lgan.

Inson huquqlari hamda erkinliklarini ta’minlash amaliyotining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning samarali ro‘yobga chiqarilishi muayyan omillar majmuiga bog‘liq bo‘lib, ular orasida fuqarolarning huquqiy madaniyati muhin o‘rin tutadi. Binobarin, madaniyat, bu bevosita jamiyatdagi muayyan jarayonlar asosida doimiy ravishda o‘zgarib, takomillashib boruvchi hayotiy bilimlar va ko‘nikmalar hamda ularning majmuini tashkil etar ekan,” Insonning o‘z huquq va erkinliklari, ularning milliy va halqaro organlar tomonidan himoya qilish usullari va vositalari to‘g‘risidagi bilimlari majmui, ularga o‘z havfsizligini ta’minlashning muhim omili sifatida munosabatda bo‘lish “inson huquqlari madaniyati” tushunchasini tashkil etadi.

Kop hollarda jamiyatda “huquqqiy madaniyat” va “Inson huquqlari madaniyati” tushunchalari bir hil tushunchalar degan fikrlar bor.

“Huquqiy madaniyat” tushunchasini aniqlash uchun bir necha yondashuvlar mavjud. Huquqiy adabiyotlarda bu tushuncha huquq, huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, qonuniyklik, huquqiy tartib, huquqqa rioya etishni qamrab oladi.

Huquqiy madaniyat shartli ravishda ikki madaniyatga bo‘linadi. Jamiyatning huquqiy madaniyati – huquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks etteradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarini qamrab oladigan ijtimoiy madaniyat turi. Jamiyatning huquqiy madaniyati shaxs erkinligi va havfsizligi, inson huquqlarini ta’minlash, uning huquqiy himoya etilishi va ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun asos hisoblanadi.

Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy qismidir. Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi, natijada shaxs va jamiyatning doimiy huquqiy boyishi sodir bo‘ladi. Shubhasiz, shaxsning yuksak huquqiy madaniyati jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydi. Huquqiy madaniyat tushunchasini tahlil qilish asnosida, bu tushuncha bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan “inson huquqlari madaniyati” ni alohida ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, bu tushuncha huquqiy madaniyatni ham qamrab olishi bilan birga, huquqshunoslikdan ham kengroq darajadagi munosabatlar, g‘oyalar, qarashlarni qamrab oladi.

“ Madaniyat” (lotincha “cultura” so‘zidan olingan bo‘lib – “ishlov bermoq”, “qayta ishlamoq” ma’nosini beradi) muhitni qayta o‘zgartirishga yo‘naltirilgan turmush va ongning barcha sohalaridagi insoniyatning ijtimoiy – progressiv ijodiy faoliyatidir.

Inson huquqlari madaniyati – muayyan davlat va jamiyatda yashovchi har bir shaxsning, shaxslar guruhining, bu jamiyatning to‘la huquqli a’zosi va a’zolari sifatida mamlakatda amal qiluvchi xalqaro va milliy huquqiy normalarda o‘z aksini topgan huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini mukammal darajada bilishi, ularni tegishli ravishda talab eta olishi va qonuniy mexanizmlar vositasida amalga oshira olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, shuningdek, o‘zining va boshqalarning inson huquqlarini buzilishiga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishida ifodalanadigan faoliyatdir.

Inson huquqlari madaniyatining tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- Jamiyatda huquqiy ongning holati, yani huquqqa oid bilim va tushunishning, qonun talablarini talabchanlik bilan bajarilishining zaruriyatini anglashning darajasi,
- Qonuniylik va huquq tartibotni ta’minlashning holati,
- Qonunchilikning holati, uning mazmun va shaklini takomillashtirish,

- Sud, prokuratura va huquqni qo‘llash bilan shug‘ullanuvchi organlarning huquq sohasidagi amaliy faoliyatining holati,

- Inson huquqlari ta’limining darajasi

Inson huquqlari sohasidagi ta’lim bu – ta’lim inson huquqlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni singdirish va nuqtai nazarni shakllantirish, bu bilimlardan xabardor qilish, ularni o‘qitish va tarqatish yo‘li bilan inson huquqlari bo‘yicha

umumiy madaniyatni yaratish tizim va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Inson huquqlari sohasida ta’limning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

1) Inson huquqlari sohasida ta’limning maqsadi va mazmunini umumiy tushunishga yordam berish.

2) Inson huquqlari sohasida ta’limga taaluqli minimal standartlarni birinchi o‘ringa chiqarishni ilgari surish,

3) Inson huquqlari sohasida ta’lim bo‘yicha tuzilgan milliy rejalarni amalga oshirilishi yuzasidan aniq va maqsadli rejalarni belgilab olish,

4) Inson huquqlari sohasida ta’lim bo‘yicha ishlab chiqilgan milliy yondashuvlarni tarixan o‘zining ijobiy isbotini topgan xalqaro tajribalarga asoslangan xolda boyitish,

5) Inson huquqlari bilan shug‘ullanuvchi milliy va xalqaro tashkilotlarning samarali o‘zaro hamkorligini rag‘batlantirish va milliy darajada inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni amalga oshirishga yordam berish,

6) Inson huquqlari sohasida ta’limning maqbul bo‘lgan maqsadlari va ularga erishishning darajalarini baholash uchun mexanizmlarni yaratish.

Inson huquqlari madaniyatini shakllantirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari davlat faoliyatining muayyan shakllarida, jumladan barcha turdagi va darajadagi ta’lim tizimi (universitetlar,institutlar, maktablar, kollejlar, litseylar, malaka oshirish tizimlari) inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatida ifodalanadi.

BMT ning Inson huquqlari sohasida ta’lim va tayyorgarlik to‘g‘risidagi deklaratsiyasi va Inson huquqlari sohasidagi ta’limning butunjahon dasturi inson huquqlari sohasidagi ta’limni keng tarqatishga ko‘maklashishda mahalliy, milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligini ko‘zda tutadi. Bugungi kunda 20 dan ortiq BMT ga a’zo davlatlarining inson huquqlari sohasida ta’lim bo‘yicha milliy harakatlar dasturlari qabul qilinib, davlatlar inson huquqlari sohasidagi ta’lim masalasiga o‘zining e’tiborini kuchaytirmoqda.

Jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish fuqarolarning huquqlari madaniyatini shakllantirish fuqarolarning huquqlarini ta’minlash va himoya qilish hamda qonun ustuvorligini mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir.

Inson huquqlari (Human rights)	Inson huquqlari – irqi, jinsi, millati, etnik kelib chiqishi, tili, dini yoki boshqa har qanday maqomidan qat’iy nazar, barcha insonlarga xos bo‘lgan huquqlardir.Inson huquqlari yashash va erkinlik huquqi, qullik va qiynoqlardan ozod bo‘lish, fikr va so‘z erkinligi, mehnat va ta’lim olish huquqi va boshqa ko‘plab huquqlarni o‘z ichiga oladi.	Human rights are rights inherent to all human beings, regardless of rase, sex, nationality,ethnicity, language, religion, or any other status. Human rights include the right to life liberty, freedom from slavery and torture, freedom of opinion and expression, and many more. Everyone is entitled to these rights, without discrimination.
Inson huquqlari sohasida ta’lim (Human rights education)	Inson huquqlari bo‘yicha keng qamrovli ta’lim nafaqat inson huquqlari va ularni himoya qilish mehanizmlari haqida bilim beradi, balki inson huquqlarini ilgari surish, himoya qilish va kundalik hayotda qo‘llash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham beradi.	A comprehensive education in human rights not only provides knowledge about human rights and the mechanisms that protect them, but also imparts the skills needed to promote, defend and apply human rights in daily life.
Huquqiy madaniyat (Legal culture)	Huuqiy madaniyat – bu qonun bilan bog‘liq qadriyatlar va munosabatlar tarmog‘i bo‘lib,odamlar qachon va nima uchun va qayerda qonun yoki hukumatga murojaat qilishlari yoki murojaat qilmasliklarini belgilaydi. Huquqiy madaniyatlarni tubdan farq qiluvchi huquqiy tizimlarga murojaat qilish orqali tekshirish mumkin.	Legal culture – is that it is the network of values and attitudes relating to law, which determines when and why and where people turn to law or government, or turn away. Legal culture can be examined by reference to fundamentally different legal systems.
Inson huquqlari madaniyati (Culture of human rights)	Madaniy huquqlar xar bir shaxsning alohida va boshqalar, shuningdek, odamlar guruhlari bilan birgalikda o‘z insoniyligini, dunyoqarashini va o‘z mavjudligi va rivojlanishiga beradigan	Cultural rights protect the rights for each person,invidually and in community with others, as well as groups of people, to develop and express their humanity,their world view and

	ma’nolarni, jumladan, qadriyatlar orqali rivojlantirish va ifoda etish huquqlarini himoya qiladi.E’tiqodlar, tillar, bilimlar.	meanings they give to their existence and their development through, inter alia, values, beliefs, convictions, languages, knowledge…..

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Inson huquqlari”. Darslik. Toshkent. “Adolat” 2014 yil.

2. “Pravo cheloveka”. Uchebnik – Hrestomatiya. A. X. Saidov. Toshkent.

3. An introduction to international law and procedure,2007. Robert CryerISBN 9780521876094Cambridge University Press. Page № 295.

4. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. Mualliflar jamoasi: A.X.Saidov. F. Bakayeva. K. Arslanova va boshqalar. ”O‘zbekiston” 2010 y.

LINGUACULTURAL CHARACTERISTICS OF ORAL SPEECH IN EDUCATIONAL DISCOURSE

Шахноза Бобожонова Йўлдош қизи
Тошкент тиббиёт академияси
Ўзбек ва хорижий тиллар кафедраси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7384898

Abstract: This article reflects the analysis of cultural elements of educational discourse, oral communication, expression of thought in the medium of speech in the expression of professional communication in the life of students.

Key words: oral speech, speaker (speech owner), cultural elements, linguaculturology. communication

Annatatsiya: Ушбу мақола таьлимий дискурснинг маданий элементлари, оғзаки мулоқот, фикрни нутқ воситасида келтирилиши талабалар ҳаётидаги профессионал мулоқотни ифодалашдаги тахлили акс этади.

Калит сўзлар: og`zaki nutq, notiq (nutq so`zlovchi), madaniyat elementlari, lingvokulturologiya. muloqot

Аннотация: В данной статье отражен анализ культурных элементов учебного дискурса, устного общения, выражения мысли в речевой среде в выражении профессионального общения в жизни студентов.

Ключевые слова: устная речь, говорящий (владелец речи), элементы культуры, лингвокультурология. коммуникация

Тил лисоний имкониятларидан амалий фойдаланиш самарадорлигини таъминлаш, ўқитишнинг антропоцентрик ва дискурсив асосларини яратиш, мавжуд синтактик таълимотга доир манбаларни мукаммаллаштириш замонавий тилшуносликда амалий аҳамият касб этади. Нутқ турларининг ўзаро таъсири муаммосининг назарий ривожланиши универсалларнинг семантик типологияси ва тилшунослиги учун муҳимдир. Таълим нутқидаги атама - бу нутқнинг касбий соҳаси тушунчаси ва предмети билан шартли равишда боғлиқ бўлган ва профессионал маълумотларни ёзиб олиш, сақлаш ва узатиш учун хизмат қилувчи тил бирлиги хисобланади.

Таьлимий дискурсда тилнинг маданий элементларни ҳисобга олинади. Ушбу нутқда ўқувчиларни хулқ-атвори ва психологик хусусиятларига кўра белгилашлари кўрсатилади Талабалар фаолиятига асосан ўқитувчи / талаба "маданият бўшлиғи" таъсир қилиши мумкин - "икки маданият ўртасидаги ўзаро тушуниш ёки муносабатларга тўсқинлик қиладиган ҳар қандай тизимли фарқ". Баъзи маданиятлар тўғридан-тўғри кўз билан алоқа қилмасликлари,

ўқитувчидан бошқа тилда гапиришлари ёки ҳокимият ва оила динамикасига нисбатан ўзига хос муносабатда бўлишлари мумкин. Ушбу маданий меъёрларни инобатга олган ўқитувчилар ҳаётнинг барча қатламларидаги талабалар ва оилалар билан яхшироқ мулоқот қилишлари ва уларнинг фикрини олишлари мумкин.

Ўқитувчилар ҳар доим ҳам ўз талабалари билан бир хил маълумотга эга бўлмагани учун, улар доимо ўша талабалар ва уларнинг маданиятларидан ўрганишга имкон беришлари жуда муҳимдир. Касбий ривожланиш курслари ёки талабалар ва уларнинг оилалари билан мунозаралар орқали турли маданиятларни яхшироқ тушуниш имкониятларини излаётган ўқитувчилар ўрганишга тўсқинлик қиладиган баъзи камчиликларни бартараф этишга ёрдам беради. Бир гуруҳ талабалар томонидан осон тушуниладиган дарс ёки ўқитиш усули бошқа гуруҳга мос келмаслиги мумкин. Технологиядан фойдаланишнинг чекланганлиги, лингвистик фарқлар, оилавий динамика ва бошқа омиллар баъзи талабаларнинг муайян дарсларда тўлиқ иштирок этиш қобилиятига тўсқинлик қилиши мумкин. Ўқитувчилар саъй-ҳаракатлари билан ўз дарслари турли хил имкониятлар ва кўникмаларга эга бўлган барча ўқувчилар учун маданий жиҳатдан мос келишини таъминлаши мумкин.

Коммуникатив кўникмалар талабанинг академик муваффақияти ва келажакдаги мартаба истиқболлари учун жуда муҳимдир. Бугунги қийин шароитда талабалар нафақат илмий тажрибага, балки келажакда ўқиш ва ишга жойлашиш истиқболларини ошириш учун зарур кўникмаларга эга бўлишлари керак. Мулоқот динамик жараёндир, чунки у икки ёки ундан ортиқ одамлар, яъни жўнатувчи ва қабул қилувчи ўртасидаги ўзаро таъсирни ўз ичига олади. Оғзаки мулоқот - фикрни нутқ воситасида ифодалаш жараёни бўлиб, бу ўқувчилар ҳаётида ҳал қилувчи рол ўйнайди. Шахс оғзаки мулоқот асосларини уйда ўрганади. Мактаб муҳити ўқувчига тенгдошлари ва ўқитувчилари билан қандай муносабатда бўлишни ўргатиш орқали ушбу таълимни бир даражага оширади. Талабалар ҳаётидаги мулоқот сифати кейинги ҳаётда профессионал мулоқотни белгилайди. Яхши мулоқот талабаларга тегишли саволларни бериш ва тушунмаган нарсаларини муҳокама қилиш имкониятини бериш орқали ўқув жараёнидан кўпроқ нарсани ўзлаштиришга имкон беради. Самарали оғзаки мулоқот янги дўстликларни осонлаштириш орқали сотсиализатсия жараёнини ривожлантиради ва бу ўз навбатида ўқув жараёнига ёрдам беради. Самарали мулоқот мартаба ривожланишига туртки бўлади. Мулоқот кўникмалари нутқ услублари, ўзини намоён қилиш усуллари ва бошқаларга муносабатда профессионалликни ривожлантиради ва бу хусусиятлар талабаларни касбий ҳаётида яхши ўрин эгаллайди.

Талабалар билан яхши мулоқот қилишнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у оғзаки тақдимотларни муваффақиятли тайёрлаш, ташкил этиш ва ўтказиш маҳоратини эгаллаганлигидир. Оғзаки мулоқот реал вақт режимида тақдимотлар, видео тақдимотлар ва интервюлар, тарқатма материаллар каби кўргазмали қўлланмаларни ўз ичига олади. Хабар яхши оғзаки мулоқотнинг калитидир. Тақдимотнинг мазмуни тингловчилар ва тақдимот мақсадларига мос келиши керак. Ўз-ўзини англаш - яхши оғзаки мулоқотнинг бошланғич нуқтаси.

Оғзаки мулоқот ўқиш, тақдимот кўникмалари ва амалиёт орқали ўрганилиши ва сайқалланиши мумкин бўлган санъатдир.Оғзаки мулоқотда интеллектуал қизиқиш бўлиши керак. Ўқиш яхши мулоқот қобилиятларини ривожлантириш воситасидир. Яхши маълумотли ақл яхшироқ мулоқот қила олади, чунки контент алоқа жараёнининг руҳидир. Шунингдек, у мунозара ва мулоҳаза юритиш муносабатига эга бўлиши керак, чунки бу интеллектуал қобилиятларни яхшилайди ва шу билан самарали мулоқотга ҳисса қўшади. Самарали ёзиш кўникмалари ва яхши оғзаки мулоқот қобилиятлари бир-бирига мос келади. Яхши ёзиш қобилиятига эга бўлган талабанинг ўзи ўз фикрларини тизимли тарзда тартибга солиш ва тақдим этиш имкониятига эга бўлади. Кўпгина ўқитувчилар та’лимий дискурс жараёнида барча талабалар учун тушунарли ўқитиш усулларидан самарали фойдаланишади. Кўпгина ўқитувчилар ижобий синф маданиятини яратадилар, бу ерда фарқлар кучли томонларга айланади. Кўпгина ўқитувчилар ўзларининг маданий эътиқодлари ва муносабатлари талабалар билан ўзаро муносабатларига қандай таъсир қилишини тушунадилар ва ўз синфларида ҳар бир ўқувчининг нуқтаи назарини кўриш қобилиятини доимий равишда ривожлантирадилар.

Адабиётлар рўйхати:

1. Lakoff R. The logic of politeness: or minding your p's and q's // Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973. – P. 292-305.
2. Brown P., & Levinson S. Universals in Language usage: Politeness phenomena. – London, 1978.
3. Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.
4. Goffman E. International ritual: Essays in face-to-face behavior. – New York: Pantheon Books, 1967. – P. 9-10.
5. Goffman E. On face-work: an. analysis of ritual elements in socialinteraction in Laver and Hutcheson. – New York: Pantheon Books, 1967. – P. 319.
6. Grice P. Logic and Conversation in P Cole & J J Morgan, 1975
7. Thomas J. Cross-cultural Pragmatic Failure. - California: Applied Linguistics, 1983. . – №. 4(2). – P. 112.

O‘ZBEK TILIDA BIRIKTIRUV VA AYIRUV MUNOSABATINI IFODALOVCHI BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR TAHLILI

Abduraxmonova Zulfiya Azamatovna
Surxondaryo tumani Jarqo‘rg‘on tumani
1-son umumta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7358505

Annotatsiya: Ushbu maqolada, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga ona tili darslarida, qo‘shma gaplar mavzusini yanada tushinarliroq tarzda, ma’lumot olishiga yordam berish.

Kalit so‘zlar: Gap, qo‘shma gap, bog‘langan munosabatlar, semantik, gramatik belgi.

Yurtboshimizning sa’y-harakatlari bilan ona tilimizning ravnaqi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy salohiyatining yanada yuksalishiga asos bo‘lgan. Shu ma’noda bugun o‘zbek tilini yaxlit bir tizim sifatida o‘rganish, uning nutqiy madaniyatini zamon talablari darajasiga ko‘tarish faoliyatimizning tarkibiy qismiga aylandi. Hozirgi kunda qo‘shma gaplar bo‘yicha bir qancha tadqiqodlar, maqolalar qilingan[1]

Bog‘langan qo‘shma gaplar deb o‘zora teng bo‘lovchilar yordamida birikkan, mazmuni va tuzilishiga ko‘ra bir butunlikni tashkil etgan qo‘shma gap turlariga aytiladi.

Bog‘langan qo‘shma gapni boshqa qo‘shma gap konstruksiyalaridan farqlab turuvchi asosi grammatik belgi ularni tashkil etgan qismlarni bir-biriga bog‘lavchi teng bog‘lavchilar va yuklamalardir. Bog‘langan qo‘shma gapni tashkil etgan qismlar orasida ham, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda bo‘lganidek, payt, qiyoslash, sabab–natija, izoxlash va ayirish mazmun munosabatlari ifodalanadi. Bu xil qo‘shma gap konstruksiyasi orasidagi farq faqat bog‘langan qo‘shma gaplarda teng bog‘lovchilarning ishlatilishidagina emas, bu farq yana ayirish mazmun munosabatining keng qo‘llanilishi,sabab va natija mazmun munosabatini ifodalavchi konstruksiyalarning mustaqilligida va har bir simantik munosabat ichida o‘ziga xos mazmun ottenkalarining ifodalanishida ko‘rinadi.

Bog‘langan qo‘shma gap qismlari orasida turli mazmun munosabatlarning ifodalanishida shu qismlar tarkibidagi gap bo‘laklarining ma’nosi va o‘rinlashishi,

[1] Равшанова С. Боғланган қўшма гап структураси // Ўзбек тили ва адабиети. . –Toshkent, 1962. -N°3-Б.28
Солихўжаева Сабохат. Бириктирув боғловчили қўшма гаплар тартиби // Ўзбек тили ва адабиети. . –Toshkent, 1990. -N°2. -Б. 33

ularning semantik va grammatik o‘zaro munosabati, ayrim leksik elementlarning qo‘llanishi gaplarning intonatsiyasi kabi faktorlar asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, qo‘shma gap qismlarida ma’nosi bir-biriga zid so‘zlar va shakllarning qo‘llanishi qiyoslash-zidlash va ayirish mazmun munosabatini keltirib chiqaradi: Barcha erishgan zafarlari va muvaffaqiyarlari bilan ulug‘lanadigan dunyo fanlari shu bois ham sizning qo‘shiningizga ta’zim qiladi!

Albatta, teng bog‘lovchi bog‘langan qo‘shma gapni tuzuvchi asosiy vosita bo‘lib qoladi.Teng bog‘lovchining har bir turi ma’lum bir mazmun munosabatlarni ro‘yobga chiqarishda xizmat qiladi (masalan, **va** bog‘lovchisi biriktiruv munosabatini, **lekin** bog‘lovchisi qiyoslash munosabatini ifodalagan qo‘shma gaplarda ishlatiladi va boshqalar). Ammo teng bog‘lovchilar biror mazmun munosabati bilan qat’iy bog‘lanib qolmaydi (biriktiruv bog‘ovchisi sabab-natija hamda izohlash munosabatlari ifodalangan qo‘shma gaplarda qo‘llanilishi mumkin va boshqalar). Bog‘langan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro aloqasi orqali qo‘yidagi mazmun munosabatlari ifodalanadi:

1. Qiyoslash munosabati 2. Biriktiruv munosabati 3. Ayiruv munosabati 4. Sabab va natija munosabati 5. Izohlash munosabati.[2]

Qo‘shma gaplarni tashkil etgan qismlar orasida doima bir xil simantik munosabat ifodalana olmaydi.

Biriktiruv bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gaplar

Va, ham bog‘lovchilari, shuningdek, biriktiruv bog‘lovchilari o‘rnida keluvchi –da, -u (-yu) yuklamalari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini biriktiruvchi vositalardir.

Va bog‘lovchisi ikki yoki undan ortiq predikativ birlikni bir-biriga biriktirganda payt, chog‘ishtirish ba’zi sabab ma’nosini ifodalaydi. Bog‘langan qo‘shma gap komponentlarining qanday ma’no munosabatini ifodalashi qaysi bog‘lovchining qo‘llanishigigina emas, balki qo‘shma gapdagi predikativ qismlarning o‘rniga, tuzilishidagi ayrim holatlarga, fe’l kesimlarning zamoniga ham bog‘liq:

a) Va bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan qo‘shma gapda bir vaqtda yuzaga kelgan voqea, hodisa yoki harakat ifodalanishi, ya’ni komponentlardan anglashilgan voqea, hodisa yoki harakatning bajarilish, yuzaga kelish payti bir-biri bilan asosan duch kelishi mumkin[3].

Bunday qo‘shma gap komponentlarining kesimi ko‘pincha fe’l bilan ifodalanadi: Yanayam narida tuproq va tosh orasida dengiz chig‘anog‘ini ko‘rasiz. (I.Sulton. “Ozod”, 137).

b) va bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan qo‘shma gapda turli vaqtda yuzaga kelgan voqea, hodisa yoki harakat ifodalanishi mumkin, ya’ni komponentlardan anglashilgan voqea, hodisa yoki harakatning yuzaga kelish payti bir-biri bilan duch

[2] Ўзбек тили грамматикаси. II томлик. 2-том . -Тошкент: Фан , 1976.-Б. 333

kelmaydi; predikativ qismlarning kesimlari fe’l bilan ifodalansa, ba’zan bir xil ba’zan har xil zamon formasida qo‘llaniladi. Qo‘shma gap komponentlarining joylashish tartibi predikativ qismlar anglatgan voqea va hodisalarning yuzaga kelishidagi izchillikka bog‘liq. Masalan: Aravaga qo ‘shilgan ikki ot va bir qulun ana shu tarz tomon ketib borar edilar. (I. Sulton.,,Ozod”, 131 -b). Shamol qahru-g‘azabga mingan edi,u quyun hosil qildi va atrofga xazon sochib, pirillab aylana ketdi. (I.Sulton. “Ozod”, 92-bet).

Va bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan qo‘shma gap qismlari anglatgan voqea-hodisalar bir vaqtda yoki turli vaqtda yuzaga kelgan bo‘lishidan qat’iy nazar, ko‘pincha komponentlarning fe’l bilan boshqa: Qayishlar yozning jaziramasida-yu kuzning yomg‘irlarida qoraygan, ammo hanuz pishiq va mustahkam,” ajobo, qaysi hayvonning terisidan oshlangan ekan “, degan o‘y kelardi hayolga. (I.Sulton).

Ham bog‘lovchisi ba’zan bog‘langan qo‘shma gap komponentlarini bir-biriga bog‘lab keladi. Bo‘nda **va** bog‘lavchisi bilan bog‘langan qo‘shma gaplarga o‘xshash voqea-hodisalar bir vaqtda yoki turli vaqtda yuzaga keladi. Lekin bog‘langan qo‘shma gapda **ham** bog‘lavchisi **va** bog‘lovchisiga nisbatan juda kam ishlatiladi. Uyushiq bulaklarning bog‘lanishida esa **ham** bog‘lovchisi yakka holda yoki takrorlangan holda juda ko‘p qo‘llanadi. **Va** bog‘lovchisi bunday xususiyatga ega emas. Demak, **ham** bog‘lovchisi qo‘shma gapdan ko‘ra sodda gapda ko‘proq ishlatiladi: Polga ham gilam singari o‘t tashlangan, ham, deraza tokchasida ham o‘lar yotardi. Bu qo‘shma gapning tarkibidagi **ham** bog‘lovchisi ikki sodda gapning bir-biriga bog‘lash uchun emas, shu qo‘shma gapning tarkibidagi uyushiq bo‘lakni (o‘rin holini) ta’kidlash uchun xizmat qiladi. Ikki sodda gap esa bog‘lovchisiz-intonatsiya vositasida bog‘langan.

Ayiruv munosabatini ifodalovchi bog‘langan qo‘shma gaplar.

Bog‘langan qo‘shma gaplar ayrim turlarida qismlaridan anglashilgan mazmun-voqea, hodisa, holarlarning biri ro‘y berib, ikkinchisi ro‘y bermeydi yoki ularning har qaysisi ro‘y beradi, ammo ro‘y berish ketma-ket bo‘ladi. Bu xil qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan mazmun odatda, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmaydi,biri ikkinchisini izohlamaydi.Ammo shunga qarama, qo‘shma gap qismlari mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan, yoki bir turdagi tushunchani ifodalaydi. Qo‘shma gap qismlari umumiy bir fikrni, tushunchani, niyatni ifodalash uchun xizmat qiladi, shu bir tushunchaning, niyatning elementlari sanaladi.

Bog‘langan qo‘shma gaplardagi bunday simantik aloqa shartli ravishda ayiruv munosabati deb nomlanadi. Ayiruv munosabatini ifodalagan bog‘langan qo‘shma gap qismlari o‘zaro ayiruv bog‘lovchisi va ayrim leksik elementlar (ba’zan, hali, bir) yordami bilan bog‘lanadi.

Ayiruv munosabatini ifodalagan qo‘shma gaplarning mazmuni.

Ayiruv munosabatini ifodalagan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro simantik munosabati uch xil bo‘ladi.

1. Qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-holatlarning biri ro‘y beradi.

2. Qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-holatlar galma-gal sodir bo‘ladi.

3. Qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-holatlarning har ikkisi ro‘y beradi.

Qo‘shma gap qismlarida ifodalangan harakat-holatning biri ro‘y berish mazmuni ifodalanganda, qo‘shma gap qismlari o‘zaro, yoki, yo bog‘lovchilari bilan birikadi. Bu xil qo‘shma gaplardagi bir qismdan anglashilgan mazmun ikkinchisini inkor etadi:

Qo‘shma gap qismlarida anglashilgan harakat-holatning biri ro‘y berishi mumkin ekanligini yanada ta’kidlash uchun *yo* bog‘lovchisi bilan barobar bo‘lmasa fe’l shakli qo‘llaniladi: Balki, hozir Dildorni osayotgandirlar, *yo bo‘lmasa* uni qiynamoqdalar, yo bo‘lmasa azamat sheriklari zindonga bosqin yasashga majbur bo‘lib, bari qirildimi(Oybek.„Navoiy”,79).

Yoki bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap qismlaridagi mazmun so‘zlovchi uchun aniq ma’lum bo‘lmaydi, shuning uchun ham ikki xil harakat–holat, taxminni o‘rtaga tashlaydi. Bog‘langan qo‘shma gapdagi bu mazmun qo‘shma gap strukturasiga ham tasir qiladi: ko‘pincha, bir xil bog‘langan qo‘shma gaplar so‘roq gaplardan iborat bo‘ladi; bo‘nday so‘roq gaplardan anglashilgan mazmun bir-biriga qiyoslanadi ham: Ayrim hollarda so‘zlovchining taxmini, gumoni ifodalagan bu turdagi bog‘langan qo‘shma gapning mazmunini izohlash uchun ulardan so‘ng yana bir gap kertiriladi: Kolxozga Salima boradimi yoki karim boradimi-bu narsa ma’lum emas menga.

So‘roq gaplardan tarkib topgan bu xil bog‘langan qo‘shma gaplar qo‘shma gapning so‘nggi qismidan anglashilgan mazmunni izohlashi mumkin

Bu qo‘shma gapning ikkinchi qismidan anglashilgan holat (pillaning yaxshi bo‘lganligi)ning izohini qo‘shma gapning birinchi qismi (yo bog‘lovchisi bilan tuzilgan, bog‘langan qo‘shma gap) izohlaydi (pillaning yaxshisi bo‘lganligi ikki xil taxmin ko‘rsatiladi: yoki odamning kelganligi, yoki qurt tutishni sog‘inib qolishgani). Tarkibida qismlaridan anglashilgan harakat-holatning birigina ro‘y berishi mumkin bo‘lgan bog‘langan qo‘shma gaplarning kesimlarida ifodalangan zamon tushunchasida va shu zamon munosabatida ham o‘ziga hoslik bor: bu xil qo‘shma gap qismlarining kesimlari hozirgi va hozirgi-kelasi zamon shaklida bo‘ladi, kesimlarning o‘tgan zamon shaklida qo‘llanilishi kam uchraydi. Buning sababi– so‘zlovchining taxmini, farazi ko‘proq hozirgi yoki hozirgi-kelasi zamonga taalluqli bo‘lgan harakat-holatlarga oid bo‘lishidir. Bog‘langan qo‘shma gap qismlarining kesimlari asosan bir xil shakilda bo‘ladi, voqea-hodisalarning bir xil zamonda ro‘y

berishi taxmin etiladi, kesimlaridan anglashilgan harakat-holatning ro‘y berishiga bu moslik bu xil bog‘langan qo‘shma gaplarning o‘ziga xos xususiyatlaridir: Yo podsho biror yerga chiqadi, yoki elchi kelishi kutiladi.

Bog‘langan qo‘shma gaplardagi hozirgi zamon tushunchasi ot, sifat, sifatdosh, son, olmosh, ravish kabi so‘zlar bilan ifodalangan ot kesimlar orqali ham anglashiladi:

Yoki bog‘lovchisi bilan tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap qismlari boshqa ayiruvchi big‘lovchi yordami bilan tuzilgan qo‘shma gapning qismlariga qaraganda, mazmunan, grammatik va intonatsiya jihatdan ancha mustaqildir, bu xil gaplardan biri ro‘y berishi mumkin bo‘lgan alohida harakat-holatlar ifodalanadi, *goh* kabi bog‘lovchilar yordami bilan tuzilgan qo‘shma gapning har ikki qismida harakat ro‘y bergani uchun, qismlari ifodalangan harakat-holatlar bir-biriga bog‘liq bo‘ladi, ayrim hollarda biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. *Yoki* bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan qo‘shma gap qismlari intonatsiya jihatdan ham bir qismi alohida ohang bilan aytiladi: hatto ular mustaqil tugallangan intonatsiya bilan talaffuz etilishi mumkin.

Ayiruv munosabatini ifodalagan qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan voqea, hodisalarning har ikkisi vujudga keladi. Ammo qo‘shma gapning bir qismidan anglashilgan harakat- holat yoki belgi-xususiyat bir vaqtda emas, vaqtda ro‘y beradi. Bunda qo‘shma gap qismlari o‘zaro *goh*, *dam* bog‘lovchilari, *va* bog‘lovchi vazifasiga ba’zan bir, hali so‘zlari yordami bilan bog‘lanadi: Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi (Oybek.„Bolalik”,69).

Bog‘langan qo‘shma gapning bu turi qismlari ayrim o‘rinlarda mazmunan ancha mustaqillikka ega bo‘lishi, sitrukturasi murakkablashishi mumkin. Masalan: Bu xil qo‘shma gapning qismlari alohida tugallangan intonatsiya bilan aytiladi va orada sezilarli pauza beriladi, shuning uchun ham ular orasiga yozuvda nuqta ishorasi qo‘yiladi. Galma-gal ro‘y beruvchi voqea, hodisa yoki belgi-xususiyatni ifodalagan qo‘shma gap qismlarining kesimlari o‘tgan zamon yoki hozirgi kelasi zamon shakli va mazmunida bo‘lishi mumkin. Bu jihatdan *yoki* bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan konstruksiyalardan farqlanadi (ma’lumki, *yoki* bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan konstruksiyalar kesimlarning zamon shakli chegaralangan: kesimlarning o‘tgan zamonda kelishi juda ham kam qo‘llaniladi).

Adabiyotlar:

1.Ўзбек тили грамматикаси, II томлик. 2-том. –Тошкент: Фан, 1976. –Б. 291

2.Ғ. Абдураҳмонов. Ўзбек тили грамматикаси. (Синтаксис), –Тошкент: 1996. -Б. 165.

3. Азимов И. Қўшма гап қисмларининг боғланиш усуллари. Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2006. – N1. – Б. 53

LINGVOKULTRALOGIYANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI, METODOLOGIYASI

Olimjonova Kibriyo Erkinjon qizi
Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. **D.A.Nurmonova**
https://doi.org/10.5281/zenodo.7358533

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e’tiborini tortayotgan til va madaniyat haqida fikr yuritamiz. Madaniyat qanchalik chuqur va tafsilotlari bilan o‘rganilsa, uning inson fikrlashi bilan bogliq ekanligi yakdil seziladi. Til va madaniyatning o‘zaro ta’siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonsept-shunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalarda ham o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Til, tilshunsolik, madaniyat, inson, fan, tushuncha, metod, metodologiya, antroposentrik.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan **lingvokulturologiya** (*lot.* lingua – til + *lot*. cultura – ishlov berish + *yun*. logos – ta’limot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o‘zaro aloqasi va ta’sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o‘rganuvchi sohadir[4]. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, mazkur soha XX asrning so‘nggi choragida shakllandi, **“lingvokulturologiya”** termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘ldi[5]. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi **V.fon Gumboldt**ga borib taqalishini ta’kidlaydilar[6]. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi[7].

[4] Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 8-9.
[5] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.
[6] Қаранг: Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши // Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 23-40; Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – 5-сон. – Б. 3-16.
[7] Қаранг: Маслова В.В. Лингвокультурология в система гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 4. – 2004. – С. 238-243; Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 3-16.

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan **V.A.Maslova** ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi[8].

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o‘ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir[9]. Mazkur sohaning **ob’ekti til va madaniyat, predmeti esa o‘zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi.** Binobarin, lingvokulturologiyada **madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi**[10]. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo‘lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo‘lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Til va madaniyatning o‘zaro ta’siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalarda ham o‘rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi[11].

Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: **“Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir**. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”[12]. G.G.Slishkinning fikriga ko‘ra, “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiya markazining madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”[13]. Lingvokulturologiyaning o‘rganish ob’ekti haqidagi fikrlar borasida bir to‘xtamga kelingan bo‘lsa-da, ayrim

[8] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.
[9] Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 10.
[10] Сабитова З.К. Ўша китоб. – Б. 9.
[11] Сабитова З.К. Ўша китоб. – Б. 9-10.
[12] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.
[13] Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – С. 128.

munozarali qarashlar ham yo‘q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko‘ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o‘rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o‘rganadi, deb hisoblaydi. Shuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya ob’ekti umuminsoniy xarakterga ega bo‘lishini ta’kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o‘rganilishi lozim ekanligini ta’kidlaydi[14].

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada bir qancha o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e’tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi[15]. Mazkur o‘quv qo‘llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, ob’ekti va predmeti, yo‘nalishlari yoritib berilgan, muyyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko‘rsatilgan[16].

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko‘rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko‘pincha miflar, xalq og‘zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda, asosan, rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog‘liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. Masalan, Z.I.Solievaning nomzodlik ishi o‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya’ni axloqiy-ta’limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan[17].

Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin[18].

[14] Бу ҳақда қаранг: Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: Учебное пособие. – М.: Флинта, 20. – 176 с.

[15] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

[16] Маслова В.А. Кўрсатилган ўқув қўлланма.

[17] Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – С . 25.

[18] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (*madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati*)” demakdir. Shunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish ob’ekti tamoman boshqadir”[19].

Lingvokulturologiyaning bevosita matn bilan bog‘liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, matn ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq ob’ektlaridan biri hisoblanadi. “Lingvokulturologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: **“Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir.** Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir. **Lingvokulturologiya esa tilni madaniy qadriyatlar tajassumi sifatida tadqiq etadi**”[20]. V.A.Maslovaning, xususan, o‘xshatish – matnlar haqidagi fikri ham e’tiborga molikdir. Olima o‘xshatishlarning matn yartilishidagi o‘rniga yana to‘xtalib, ular matnda struktur-kompozitsion vazifani bajarishi va matn kogerentligini ta’minlovchi vosita maqomida bo‘lishini aytadi[21]. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o‘xshatish va uning qisqargan shakli bo‘lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo‘la oladi. O‘xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog‘liq yana bir hodisa bu pretsedent matn masalasidir. Tadqiqotchi O.E.Artemovaning so‘zlari bilan aytganda, pretsedent janrlar madaniy axborotning “akkumulyatori”dir[22].

---

[19] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 10.

[20] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – С. 5.

[21] Маслова В.А. Кўрсатилган асар. – С. 32.

[22] Артемова О.Е. Лингвокультурная специфика текстов прецедентного жанра “лимерик”: На материале английского языка: Дис… канд. филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2004. – С. 24.

Pretsedent matnlar pretsedent birliklarning bir turi bo‘lib, o‘zida muayyan millat til egalariga xos bo‘lgan lisoniy xotirani aks ettiradi. Hozirgi vaqtda xususan rus tilshunosligida bu borada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog‘liq yana bir masala sentensiyadir. Sentensiya axloqiy-ta’limiy xarakterdagi til birligi bo‘lib, o‘zida intertekstuallikni namoyon etadi[23].

Z.I.Salieva ingliz va o‘zbek tillaridagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganar ekan, muayyan xalq tarixida katta o‘rin tutgan mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan didaktik g‘oyalarning yozuvchi tomonidan o‘zgargan shaklda ifodalanishini intertekstuallikning bir ko‘rinishi sifatida baholaydi. Tadqiqotchi bunga misol sifatida Oybekning “Navoiy” romanida Navoiy tomonidan aytilgan didaktik mazmunli matnlarni keltiradi[24]. Bu xususiyatni o‘zbek tilida yaratilgan boshqa asarlarda ham ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, lingvokulturologiyada L.Vaysgerber tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan olamning lisoniy manzarasi tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Olamning lisoniy manzarasi voqelikni idrok etishning tilda muhrlangan va muayyan lisoniy jamoa uchun xos bo‘lgan tuzilishi, olamni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usulidir[25]. **Har bir tabiiy til olamning o‘ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi.**

Mutaxassislarning fikricha, matn-o‘xshatishlar, matn-metaforalar hamda tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo‘lgan matnlarni o‘rganish muayyan etnosga xos bo‘lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1,Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.

2.Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – С. 128.

3.Бу ҳақда қаранг: Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: Учебное пособие. – М.: Флинта, 20. – 176 с.

4.Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

[23] Сентенция ҳақида қаранг: Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – 25с.

[24] Салиева З.И. Кўрсатилган автореферат. – Б . 14.

[25] Қаранг: Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. –Б. 3-12.

5. Сентенция ҳақида қаранг: Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – 25с.

“ТАБАҚОТ” АСАРЛАРИНИНГ ИСЛОМ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЎРНИ

Қ.Т.Зоҳидов
т.ф.н., доцент
Янги аср университети ректори
https://doi.org/10.5281/zenodo.7369078

Аннатоция: Ушбу мақолада Табақот жанрининг ислом тарихини ўрганишдаги тутган ўрни, табақот асарларини ёритган муаллифлар хамда бу асарлардаги маълумотларнинг ҳаққонийлик асослари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: табақот, сийра, ибн Хаййот, ал-Балазурий, ат-табақот ал-кубро, ансоб ал-ашроф, насабнома.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль жанра Табакат в изучении исламской истории, авторы произведений Табакат, а также основы достоверности информации в этих произведениях.

Ключевые слова: табакат, сира, ибн Хайят, ал-Балазури, ат-табакат ал-кубра, ансаб ал-ашраф, генеалогия.

Муҳаммад пайғамбар (ﷺ) ҳаётлари ва илк ислом тарихини мукаммал ёритиш мақсадида сийрашунослик билан бир қаторда табақот жанри ҳам бирга ривожланди. Араб тарихшунослигида табақот биографик жанрнинг махсус тармоғини ташкил этиб, авлодлар бўйича, энг дастлабкисидан сўнггисигача (Пайғамбар (ﷺ) саҳобалари, тобеъинлар, табаъа тобеъинлар ва б.) жойлаштирилган. Регионал тамоилга ҳам риоя қилинган – материал шаҳарлар, алоҳида мавзелар ва халифаликни ташкил этган вилоятлар (баъзан бутун ислом дунёси) бўйича тақсимланган.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, табақот жанри ҳадис илми эҳтиёжларини тўла қондиришга мўлжалланган. У иснодниг ҳаққонийлик даражасини аниқлашда энциклопедия вазифасини бажарган. Исломнинг дастлабки даврида табақот жанри асосан ҳадис билимдонлари ва фақиҳларга бағишланган. Бироқ маданий эҳтиёж ва илм-фан тараққиёти кейинчалик турли касб ва даражадаги шахсларнинг (шоирлар, адиблар, котиблар, вазирлар, тилшунослар, табиблар, донишмандлар, ваъзхонлар, қорилар, фақиҳлар, суфийлар ва б.) авлодларини хронологик тартибдаги табақотлари пайдо бўлишига имкон берди.[1,16 б]

Мазкур жанр бўйича ижод қилган муаллифларнинг йирикларидан Халифа ибн Хаййотни кўриш мумкин. Унинг “Солнома тарих”и бизгача етиб келган асарлари ичида энг қадимийсидир. Унгача ёзилган солнома асарлар афсуски,

бизгача етиб келмаган. Ушбу асарда келтирилган маълумотларнинг аниқлиги ва ишончлилиги алоҳида аҳамиятга эга. Шунингдек, муаллифнинг муҳаддислар мактабига мансублиги асарда келтирилган маълумотларнинг аслийлигини таъминлайди. У асарида келтирган маълумотларни санадларига алоҳида эътибор беради. Ибн Хаййот волийлар ва қозиларни аниқ ишлаган даврларни шакллантириш мақсадида уларнинг жадвалига алоҳида эътибор қаратган. Муаллиф халифаликдаги ички беқарорлик ва фуқаролар урушига сабаб бўлган халифа Усмон ибн Аффоннинг раҳбарлик даврида юзага келган ички фитналарни келтириб чиқарган омилларга алоҳида тўхталиб ўтади. Оқибатда унинг бу тадқиқоти аҳл ас-сунна ва ал-жамоа қарашларида ушбу ҳодисаларга халифа Усмон ибн Аффоннинг ҳаракатларини қувватловчи фикрлар пайдо бўлишига асос бўлди. У ўз китобида муҳаддислар томонидан келтирилган ривоятларни кўплаб келтиргани учун унинг асари илк ислом тарихини ўрганувчилар учун асосий ишончли манба сифатида гавдаланадиган бўлди. У танлаган маълумотлар турли фикр эгаларининг қарашларини бир нуқтада жамлашга муваффақ бўлди. [2, 58 б]

Шунингдек, бизгача табақот бўйича етиб келган энг илк асар Ибн Саъд (168/784-231/845)нинг “Китоб ат-табақот ал-кубро”сидир. Асарда ҳадислар ривоят қилган 4250 шахс, саҳоба, тобеъин ва улардан кейинги шахслардан то муаллифнинг устозларигача бўлган ҳадис ривоят қилувчиларнинг таржимаи ҳолллари ҳақидаги маълумотлар келтирилган. У халифалар, амирлар, қўмондонлар ва бошқа таниқли шахслар, уларнинг мартабалари, халқий ва хулқий сифатлари, кийим-бошлари ва урф-одатларини тўлиқ баён этади. У сиёсий, ижтимоий ва маданий тарих борасида аниқ маълумотлар беради. Асар саҳоба ва тобеъинларнинг таржимаи ҳолларини кейинги тарихчиларга (мутаххирин) нисбатан кўпроқ маълумот беради. Ибн Саъд муҳаддислар орасидан ишончлиларининг маълумотларига таянганлиги учун бу асарнинг аҳамияти ошди. Шунингдек, муаллифни Ҳишом ибн ал-Калбий (120/738-206/821 йиллар) ва Муҳаммад ибн Умар ал-Воқидий (130/747-208/823 йиллар) каби хабарлари заиф тарихчилардан ҳам маълумотлар олганлиги учун танбеҳга учраган. Бунинг натижасида баъзи тадқиқотчилар орасида “муаллифнинг асарлари ал-Воқидийнинг заиф маълумотлари билан тўла”, деган фикрлар учраб туради [4, 151 б]. Лекин, ал-Воқидийнинг табақот жанрига бағишланган асаридаги маълумотларни Ибн Саъд ўз асарига ишончли деб ҳисоблаганларини киритган холос. Аммо, Ибн Надимнинг фикрини маъқуллаб, Ибн Саъднинг бу асарини ал-Воқидийнинг маълумотлари асосида ёзилган китоб дейиш унга нисбатан адолатсизлик бўлади. Чунки, Ибн Саъд бошқа жуда кўплаб манбалардан ҳам унумли фойдалана олган. Хатто унинг “ат-Табақот ал-кубро” асарида келтирилган устозлари сони 60 дан ортади. Уларнинг кўплари таниқли

муҳаддислардан. Унинг Абу Нуайм ал-Фадл ибн Дукайн (131/748-219/834 йиллар), Аффон ибн Муслим (134/751-220/835 йиллар) Убайдуллоҳ ибн Мусо ал-Абсий (120/738-213/828 йиллар) ва Маън ибн Исо ал-Ашжаъий (ваф. 198/813 й.) лардан нақл қилган маълумотлар ал-Воқидийникидан кўпроқдир. Шу билан бирга муаллиф булардан ташқари кўплаб ишончли муҳаддислардан ривоят қилганлиги, унинг асаридан маълум. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, ибн Надимнинг Ибн Саъдга нисбатан билдирган фикрига қўшилиб бўлмайди.

Табақот жанрининг йирик вакилларидан бири ал-Балазурий Аҳмад ибн Яҳё ибн Жобир (205/820-279/892 йиллар) бўлиб, Бағдодда ўсиб улғайган. Оиласининг аксарият аъзолар ўз даврида котиблик билан шуғулланганлар. Табиийки, бу касб унга ҳам бу мерос бўлиб қолди. У илм излаш мақсадида кўплаб шаҳарларга илмий сафарлар уюштирди. Тарихчилар орасида унинг “ал-Балазурий” насаби ҳақида турли ихтилофлар учраб туради. Масалан, Ибн ан-Надимнинг фикрича, у балазур ўсимлиги уруғидан билмасдан еб қўйган ва оқибатда рухий хасталикка чалинган ва шу туфайли “ал-Балазурий” нисбаси берилган [4, 153 б]. Аммо Йақутий Жаҳшийорининг фикрини маъқуллаб, унинг бобоси ҳам шу нисба билан номланганлигини таъкидлайди. Аҳмадга ал-Балазурий нисбасини берилишига асосий сабаб унинг бобоси ўрта асрлардан Тохаристон таркибига кирган Афғонистоннинг Бағлон вилоятида Балазур номли худуддан араб юришлари натижасида Бағдодга келиб қолганлигини таъкидлайди. Айнан мана шу далил унинг оиласида қўш тиллик муҳит мавжудлигига далолат қилади. Шунингдек, у “Фут уҳ ал-булдон” асарида келтирган форсий атамалар ва Эрондаги вилоятларнинг форсча номларини тўғри талқин қилинганлиги бу фикрга далил бўла олади. Зеро, унинг форс тилидан кўплаб асарларни араб тилига таржима қилганлиги тарихий хақиқатдир. Жумладан, “Аҳд Ардашер” (Ардашер васияти) китобини таржима қилиб, уни назм ҳолатига келтирган. [3, 47 б]

У тўплаган маълумотларнинг аниқлиги ва тарихий жараёнларнинг кенглиги жиҳатидан ат-Табарийнинг асарларидан кейинги ўринга қўйилади. Лекин, унинг “Ансоб ал-ашроф” асаридаги ривоятларнинг саралганлиги, иснодларнинг ишончлилиги “сиқат” ва “сидқ” аҳли келтирган ривоятлар билан мувофиқ келиши жиҳатидан ат-Табарийнинг тарихидан кўра ишончлироқдир. “Ансоб ал-ашроф” асари насаблар асносида ислом тарихини ҳам ўз ичига олган. Асарнинг бошланишида Қурайш қабиласи уруғлари, оилалар ва бошқа араб қабилаларининг насллари ёритилади. Ал-Балазурийнинг устозлари ҳақидаги маълумотларни таҳлил қилинса, уларнинг кўплари муаллиф вафотидан тахминан 20 йилдан кўпроқ вақт олдин вафот этганликлари маълум бўлади. Бу эса ўз навбатида ал-Балазурий ушбу китобини касал бўлишидан анча аввал ёзганлигига далолат беради. Шунингдек, у келтирган ривоятларни

бошқа асар муаллифлари Ибн Саъд ва Халифа ибн Хаййот маълумотлари билан қиёсланса, уларни суннат ва тарих асарларида келтирилган аниқ ва ишончли маълумотлар билан мувофиқ равишда кўриш мумкин.

Шунинг учун унинг асарида келтирилган ривоятлар орасида заиф ва нотўғри маълумотлар учраса муаллифга эмас, балки унинг ровийсига талуқлидир. Шу билан бирга, унинг “Фитналар ҳақидаги ҳодисалар”ни баён этишда ишончли муҳаддислар томонидан ривоят қилинган маълумотларга таяниб ёзилганлигини таъкидлаш зарур. Улар “Саҳиҳайн” даги Имом ал-Бухорий ва Имом Муслимнинг устозлари Аффон ибн Муслим (134/751-220/835 йиллар), Аҳмад ибн Иброҳим ад-Даврақий (168/784-246/860 йиллар), Абу Бакр ибн Аби Шайба (ваф. 235/849 й.) ва Абу Ҳайсама (ваф. 279/892 й.) кабилардир. Шунингдек, у Қосим ибн Салом (157/774-224/838 йиллар), Али ибн Муҳаммад ал-Мадоиний (135/725-225/840 йиллар), Муҳаммад ибн Саъд (784-845 йиллар), Али ибн Абдуллоҳ ал-Мадиний (161/778-234/849 йиллар), Мусъаб аз-Зубайр (156/773-236/851 йиллар), Муҳаммад ибн Ҳабиб ал-Бағдодий (ваф. 245/859 й.) ва Умар ибн Шабба (172/789-262/876 йиллар) каби ўзининг Бағдодлик устозларининг асарларидан унумли фойдалана олган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ал-Балазурий. Футуҳ ал-булдон. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-‘илмиййа, 1403 ҳ;
2. Ал-Балазурий. Ансоб ал-ашроф: 2 жилдли. – Байрут. 1977
3. Ибн Са‘д. ат-Табақот ал-кубро: 8 жилдли. – Байрут: Дор ас-садр, 1984-1988.
4. Ибн Надим. ал-Фиҳрист. – Байрут. 1970.
5. Халифа ибн Хаййот. ат-Та’рих. – ар-Рийод: Дор тойиба, 1968.

NUSH PIYOZ EKIB BOSH PIYOZ YETISHTIRISHDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLIGIYALARNING AHAMIYATI

Bo‘riyev Abror Nortojiyevich
Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti
1-bosqish tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7369100

Annotatsiya: Maqolada nush piyoz ekib bosh piyoz yetishtirishda tuproqqa ishlov berish, uni ekishga tayyorlashda energiya-resurstejamkorlikka erishish yo‘llari va chora-tadbirlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Nush piyoz, bosh piyoz, gidrogel, tomchilatib sug‘orish, resurstejamkorlik, texnologiya, mexanik ishlov, unumdorlik.

Аннотация: В статье описаны пути и мероприятия по достижению энерго- и ресурсосбережения при возделывании лука репчатого, обработке почвы, подготовке к посадке.

Ключевые слова: лук шаллот, лук репчатый, гидрогель, капельное орошение, ресурсосбережение, технология, механическая обработка, урожайность.

Abstract: The article describes the ways and measures to achieve energy and resource savings in the cultivation of onions, the cultivation of the soil, its preparation for planting.

Keywords: Shallot onion, onion, hydrogel, drip irrigation, resource saving, technology, mechanical processing, productivity.

KIRISH

Mamlakatimiz agrar siyosati qishloq xo‘jaligi va qishloq infrastrukturasini barqaror rivojlantirish, ya’ni qishloqlarning ijtimoiy–iqtisodiy qiyofasini o‘zgartirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi va samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qishloq aholisi bandligini ta’minlash va ularning turmush farovonligi darajasini ko‘tarishga qaratilgan.

Piyoz uzoq yillardan beri ovqat xazm qilish sistemasini yaxshilashda, birinchi darajali kuyishlarda va nafas olishdagi qiyinchiliklarga qarshi dori sifatida foydalanib kelinmoqda. Piyoz qonning quyiqlashishi, qon tomir kasalliklari, xolesterin va revmatizm og‘riqlari kabi kasalliklariga xam foydalidir. Bundan tashqari piyoz tarkibida uchraydigan iso-allisinlar qondagi trombosit yig‘ilishini oldini oladi va immunitet tizimini yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

«**2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi**» ishlab chiqildi. Ushbu Harakatlar strategiyasining 3-bandi **Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida** «Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish» maqsadida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish, paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo‘shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish topshiriqlari berilgan.

Mamlakatimizda boshpiyoz maydoni va hosili jihatidan pomidordan keyingi o‘rinda turadi. Uning sabzavot ekinlari orasidagi ulushi 23-24%, yalpi mahsulot bo‘yisha 18-19% va hosildorliga o‘rtasha gektaridan 35-40 tonnani tashkil qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Piyoz juda ko‘pchilik mamlakatlarda asosiy sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning tarkibi qimmatli oziqa elementlariga, mikro va makro-elementlarga boy sabzavot ekinidir. Ta’miga qarab piyoz uch guruhga bo‘linadi: achchiq, yarim achchiq va shirin yoki salatbop va shunga qarab tarkibi ham turlicha bo‘ladi. Ularning tarkibida quruq moddalar 10-22%, qand miqdori 6-9%, oqsil 1,5%, pektin 0,5-0,6%, kletchatka 0,5-0,8% ni tashkil etadi. Tarkibida V_1, V_2, S, RR vitaminlari mavjud. Tarkibidagi mineral tuzlar 18 ta ximiyaviy elementlar, jumladan kaliy, fosfor, kalsiy, natriy elementlari birikmalaridan tashkil topgan. Unda antioksidant selen moddasini borligi ma’lum.

O‘zbekistonda ham piyoz asosiy sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning erta o‘rtapishar Sumbula, ertapishar Ravnaq, juda ertapishar Bahoroy navlari yaratilib, ulardan Sumbula va Ravnaq navlari davlat reestriga kiritilgan, Bahoroy navi esa Davlat nav sinovidan o‘tmoqda. Respublikamizning janubiy xududlarida ushbu navlar mahsuloti mart oyining oxirida-may oylarida pishib yetiladi va shu davrda eksportga chiqariladigan asosiy sabzavot mahsulotlaridan biri hisoblanadi.

Ana shu navlardan Ravnaq va Bahoroy keyingi yillarda yaratilgan bo‘lib ularning biologik xususiyatlaridan kelib chiqib yetishtirish agrotexnikasi va urug‘chiligi masalalari, bu tadbirlarni resurstejamkor va intensiv texnologiyalar orqali tashkil etish ilmiy asoslanmagan.

Shundan kelib chiqib ushbu navlarning biologik xususiyatlarini, ulardan mahsulot yetishtirish va urug‘chilik texnologiyasini ishlab chiqish hozirgi zamon sabzavotchiligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Piyoz qisqa yorug‘ (10-12 soat) kunda yaxshi o‘sadi, ammo bunday sharoitda oziq moddalari zaxiraga o‘tmaydi (aylanmaydi), piyozbosh shakillanmaydi, o‘simlik tinim davriga kirmaydi, piyoz yo‘g‘on soxta poya xolatida qoladi. Piyozni kun uzunligiga bo‘lgan bu xususiyatini bilish navini tanlash va agrotexnik tadbirlarni sifatli o‘tkazishda muxum axamiyatga ega.

Agar piyozni janubiy navlarini shimoliy rayonlarda yetishtirilsa xarorat yetishmasligi ta’sirida, shimoliy navlar janubiy mintaqalarda o‘stirilganda esa kunning qisqaligi sababli piyozboshni yetilishi sezilarli darajada kechikadi.

Toshkent viloyati sharoitida ertaki muddat uchun mos nush piyoz (sevok) nav namunalarini tanlash va yetishtirish texnologiyasining ayrim elementlarini takomillashtirish, gidrogel va tomchilab sug‘orishni qo‘llab ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

So‘ngi yillarda Rossiyada piyoz ekiladigan maydon qishloq xo‘jaligi ekinlari qatorida yetakchi o‘rinni egallamoqda, u xar yili 88 ming gektardan 96 ming gektargacha ekilmoqda. Ammo, urug‘idan bir yilda standart talabi darajasida piyozbosh beradigan asosiy nav va duragaylar chet ellarniki. Hozirgi davrda birinchi marta Rossiyaning davlat reestriga piyozning raqobat bardosh Yesaul navi va F_1 duragay kiritildi. Kun uzunligiga neytral (befarq) bo‘lgan bu duragay Krasnadar o‘lkasi sharoitida bir yilda piyozboshni to‘liq shakllantirib gektaridan 50-85 t hosil berdi. Piyozboshlari yirik, mazasi yarimachchiq, hosili yig‘ish oldidan 90% pishib yetiladi, har qanday sharoitda 5 oygacha yaxshi saqlanadi, deb habar qilgan.

Xindistonning Raguri stansiyasida yaratilgan piyozning yangi Phule safed navi, katta maydonlarda yetishtirilayotgan ommabop N-257-9-1 navidan yuqori hosildorligi (24,59 va 25,75 t/ga), mavjut navdan 7,29 va 5,71 t/ga yuqori mahsulot bergan.

Kuban DAU da piyozning ultratezpishar kuzgi Ellan navi yaratilgan.

Turli ekologik tiplarga mansub (AQSh, Eron va Misrda) piyozning navlari Moskva geografik kengligida ko‘chati 1 muddatda (urug‘ni 18 martda, ko‘chati 6 mayda ekilgan) ekib sinalgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Piyoz yetishtirishning muhim shartlaridan biri, undan bir yilda mahsulot olishdir. Belorussiya sharoitida piyozni Vetraz, Krыviski rujovы va Dыyament navlari yaratildi. Bu navlar urug‘idan ekilganda, bir mavsumda standart talabi darajasidagi piyozboshni shakillantirib gektaridan o‘rtacha 33 t. gacha hosil bermoqda, deb habar qilganlar. Moskva oblasti sharoitida piyozni o‘rtapishar Forvard va Sibirskiy odnoletniy navlari urug‘i ochiq maydonga ekib sinalganda, birinchi nav

ikkinchi navga nisbatan 2,7 t/ga yuqori hosil bergan, piyozbosh tarkibidagi quruq modda nazorat navga nisbatan 1,1% ga, saqlanuvchanligi esa 40 kunga ko‘p bo‘lgan.

Xulosa o‘rnida aytib o‘tish joizki, yurtimizda piyoz yetishtirish ancha dolzarb mavzulardan biridir. Har bir viloyatning iqlimidan kelib shiqib viloyatlar ayni bir turdagi piyoz mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashadi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Kawakishi, S. and Y. Morimutsu. Sulphur Chemistry of Onions and Inhibitory Factors of the Arachidonic–Acid Cascade, 1994. ACS SYM. SER. 546, p:120–127.

2. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

3. Ostonaqulov T.E. Meva – sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish, saqlash vaqayta ishlash texnologiyasi. –S.: N.Doba, 2010. 251 b.

4. Ostonaqulov T.E.,Narziyeva S.X. Mevachilik asoslari. – T.: N.Doba, 2010. 283 b.

5. Zuyev V. Ataxo‘djayev Asatulla. Qodirxo‘jayev Orip. Himoyalangan yerlardako‘chat va sabzavot yetishtirish. Toshkent 2007.

6. X.Cb. Bo‘riyey, A.G. Abdullayev “Tomorqa sabzavotchiligi”.T.Mehnat. 1994y.

7. X.Ch. Bo‘riyev, G.A. Samatov, I.B. Ratuaov .Agrologistika asoslari . Toshkent,2003-y.

8. Ergashev R.X. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. –T.: EXTREMUM PRESS, 2011.41b.

9. Ravshanov H.A. Tuproqni takroriy ekinlar ekishga tayyorlaydigan texnik vositalarni ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari: Diss texn. fan. dokt. –Toshkent, 2020. – 206 b.

10. Dusmatov Kh. About the Art of Askiya. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. 2017. 5-tom. 12-son. –P. 32-38.

11. Дусматов Х. Об узбекском искусстве игры слов. The Way of Science. 2014/3. – С. 89.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA AKTDAN FOYDALANISH

Shermatova Hilola Mirzayevna
Askarova Shahlo Muhammadaliyevna
Farg‘ona davlat universiteti, axborot texnologiyalari kafedrasi
Orifjonova Mashhuraxon Otabek qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7369116

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf darslarida AKTdan foydalanish o‘quvchilarning atrofdagi dunyoning axborot oqimlariga moslashish qobiliyatini rivojlantirishi, axborot bilan ishlashning amaliy usullarini o‘zlashtirishi, zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda axborot almashish imkonini beruvchi malakalarni shakllantirishi haqida fikr yuritilgan. Kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tiladigan darslar yanada qiziqarli bo‘ladi va fikrlashga undaydi.

Kalit so’zlar: AKT, elektron madaniyat, axborot oqimi, strategiya, vizual-hayoliy tafakkur, illyustrativ materiallar.

Bolalik - bu beg‘ubor davr! Maktab ostonasini birinchi marta bosib o‘tgan bola bilim olamiga kiradi, u yerda o‘zi uchun turli yangiliklarni kashf etadi. Turli xil faoliyatda o‘ziga xos yechimlarni izlaydi. Ijodiy shaxsni shakllantirish pedagogning asosiy vazifalardan biridir. Buning uchun bolaning qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini rivojlantirish zarur.

XXI asr - yuqori kompyuter texnologiyalari asri. Zamonaviy bola elektron madaniyat dunyosida yashaydi. Axborot madaniyatida o‘qituvchining roli ham o‘zgarmoqda - u axborot oqimining muvofiqlashtiruvchisiga aylanishi kerak. Shunday ekan, o‘qituvchi bola bilan bir tilda muloqot qilish uchun zamonaviy metodlarni, yangi ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirishi zarur.

Hozirda axborot jamiyat taraqqiyotining strategik resursiga aylangan, bilim esa nisbiy va ishonchsiz sub’ekt bo‘lib qolgan. Axborotlar tez eskirib, doimiy yangilanib turishni talab qilayotgan bugungi kunda zamonaviy ta’lim uzluksiz jarayon ekanligi ayon bo‘lmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - dunyoqarashni kengaytirish, atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, bolalarning aqliy faoliyatini faollashtirish, nutqni rivojlantirishdir.

Yangi axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning mamlakatimizda joriy etilishi zamonaviy bola shaxsini shakllantirishda o‘z izini qoldirmoqda. Bugungi kunda “O‘qituvchi – o‘quvchi – darslik” an’anaviy sxemasiga

yangi bo‘g‘in – kompyuter kiritildi. Kompyuterli ta’lim tushunchasi esa maktab ongiga joriy etilmoqda. Ta’limni axborotlashtirishning asosiy qismlaridan biri o‘quv fanlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi.

Boshlang‘ich maktab uchun bu - ta’lim maqsadlarini belgilashda ustuvorliklarni o‘zgartirishni anglatadi. Maktabning birinchi bosqichida ta’lim va tarbiya natijalaridan biri bolalarning zamonaviy kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirishga tayyorligi va olingan ma’lumotlarni yangilash qobiliyati bo‘lishi kerak. Ushbu maqsadlarga erishish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ish amaliyotida kichik yoshdagi o‘quvchilarni o‘rgatishning turli strategiyalarini va birinchi navbatda, ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni qo‘llash zarurati tug‘iladi.

Boshlang‘ich maktabda turli darslarda AKTdan foydalanish o‘quvchilarning atrofdagi dunyoning axborot oqimlariga moslashish qobiliyatini rivojlantirish, axborot bilan ishlashning amaliy usullarini o‘zlashtirish, zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda axborot almashish imkonini beruvchi malakalarni shakllantirishga imkon beradi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tiladigan darslar yanada qiziqarli bo‘ladi va fikrlashga undaydi. Deyarli har qanday multimedia maxsuloti ishlatiladi. Dars uchun ko‘plab ensiklopediyalar, audiomateriallarni tayyorlashning hojati yo‘q - bularning barchasi oldindan tayyorlangan va kichik kompakt diskda yoki flesh-kartada mavjud bo‘ladi.

AKTdan foydalangan holda dars o‘tish ayniqsa, boshlang‘ich maktabda dolzarbdir. 1-4-sinf o‘quvchilarining vizual-hayoliy tafakkuri rivojlangan, shuning uchun ham yangi ma’lumotni idrok etish jarayonida nafaqat ko‘rish, balki eshitish, his-tuyg‘u va tasavvurlarni ham o‘z ichiga olgan holda, iloji boricha yuqori sifatli illyustrativ materiallardan foydalanib, ularning ta’limini qurish juda muhimdir.

Boshlang‘ich maktabda o‘quv jarayonini tashkil etish, birinchi navbatda, o‘quvchilarning kognitiv sohasini faollashtirishga, o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga hissa qo‘shishi va bolaning aqliy rivojlanishiga hissa qo‘shishi kerak. Shu sababli, AKT ma’lum bir ta’lim funktsiyasini bajarishi, bolaga ma’lumot oqimini tushunishga yordam berishi, uni idrok etishi, eslab qolishi va hech qanday holatda sog‘lig‘iga putur yetkazmasligi kerak. AKT ta’lim jarayonining asosiy elementi emas, balki yordamchi elementi sifatida qabul qilish kerak. Yosh o‘quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, AKTdan foydalanish vaqti nazoratga olingan bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinflarda darsni rejalashtirishda o‘qituvchi AKTdan foydalanish maqsadi, o‘rni va usulini diqqat bilan ko‘rib chiqishi kerak.

Ta’limda kompyuterlar qo‘llanila boshlanganda "yangi axborot texnologiyalari" atamasi paydo bo‘ldi. Agar telekommunikatsiyalar ishlatilsa, u holda "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" - AKT atamasi paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich maktabda darsni ko‘rgazmali qurollarsiz o‘tkazish mumkin emas, ko‘pincha muammolar paydo bo‘ladi. Menga kerak bo‘lgan materialni qayerdan topsam bo‘ladi va uni qanday qilib eng yaxshi ko‘rinishda taqdim etishim mumkin? Bu holda yechim sifatida kompyuter yordamga keldi.

Bolani sinfdagi ijodiy jarayonga jalb qilishning eng samarali vositalari quyidagilardir:

• o‘yin faoliyati;
• ijobiy emotsional vaziyatlarni yaratish;
• juft bo‘lib ishlamoq;
• muammoli ta’lim.

So‘nggi yillarda shaxsiy kompyuterlar va axborot texnologiyalarining jamiyatdagi o‘rni tubdan o‘zgardi. Axborot texnologiyalari haqidagi bilimlar zamonaviy dunyoda o‘qish va yozish qobiliyati kabi fazilatlar bilan bir qatorga qo‘yiladi. Texnologiyalar va axborotlarni mohirlik bilan va samarali o‘zlashtirgan shaxs o‘zgacha, yangicha fikrlash uslubiga, yuzaga kelgan muammoni baholashga, o‘z faoliyatini tashkil etishga tubdan boshqacha yondashadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy maktabni yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shubhasiz, yaqin o‘n yilliklarda shaxsiy kompyuterlarning roli oshadi va shunga mos ravishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompyuter savodxonligiga qo‘yiladigan talablar ham ortadi.

Boshlang‘ich sinflarda AKTdan foydalanish o‘quvchilarni tevarak-atrofdagi olamning axborot oqimlari bo‘yicha harakatlanishga, axborot bilan ishlashning amaliy usullarini o‘zlashtirishga, zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda axborot almashish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich maktab bolaning keyingi ta’lim sifatiga bog‘liq bo‘lgan poydevor bo‘lib, bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga alohida mas’uliyat yuklaydi. Hamma davrda ham ta’lim tizimidagi boshlang‘ich maktab "mahorat maktabi" bo‘lib kelgan. Bunda o‘quvchi keyingi ta’lim uchun o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni egallashi kerak. Bugungi kunda boshlang‘ich maktab boshqacha. Bugungi kunda bu bolaning ta’lim tizimidagi birinchi tajribasi - ularning ta’limdagi kuchli tomonlarini sinab ko‘rish joyiga aylanishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, kognitiv faollikni qo‘llab-quvvatlash va bolaning ta’lim olamiga uyg‘un kirishi uchun sharoit yaratish, uning salomatligi va hissiy farovonligini saqlash muhimdir.

AKT vositalarini o‘rganish orqali ularni har tomonlama qo‘llash va bu jarayonda turli manbalardan kerakli ma’lumotlarni oladigan, mustaqil harakat qila oladigan shaxs shakllanadi. AKTdan foydalanish jarayonida o‘quvchi rivojlanadi. O‘qituvchi bolalarni axborot jamiyatida erkin va qulay hayotga tayyorlaydi, jumladan:

- fikrlashning vizual-hayoliy, vizual-samarali, nazariy, intuitiv, ijodiy turlarini rivojlantirish;

- kompyuter grafikasi, multimedia texnologiyasidan foydalanish orqali estetik tarbiya berish;

- muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;

- qiyin vaziyatda eng yaxshi qaror qabul qilish yoki yechimlarni taklif qilish koʻnikmalarini shakllantirish (qaror qabul qilish faoliyatini optimallashtirishga yoʻnaltirilgan vaziyatli kompyuter oʻyinlaridan foydalanish);

- axborot madaniyatini, axborotni qayta ishlash koʻnikmalarini shakllantirish.

AKT oʻquv jarayonining barcha darajalarini faollashtirishga olib keladi, bu:

- AKT vositalarini joriy etish orqali oʻquv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish;

- kognitiv faoliyatni faollashtirishga olib keladigan motivatsion ragʻbatlantirishni ta’minlash;

- turli fan sohalariga oid masalalarni yechishda axborotni qayta ishlashning zamonaviy vositalaridan, shu jumladan audiovizual vositalardan foydalanish orqali fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish.

Kompyuter insonning shaxsiy yordamchisi boʻlib, deyarli barcha inson sezgilariga javob beradi. Kompyuterning turli xil texnik vositalar (telefon, radio, video va fotosuratlar, diagnostika uskunalari va boshqalar) bilan nisbatan muammosiz birlashishi kompyuterda eshitish, koʻrish, teginish va nutqni takrorlash qobiliyatini ta’minlaydi. Axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi amaliyot shuni koʻrsatadiki, an’anaviy darsda AKTdan didaktik oʻylangan holda foydalanish, oʻquv jarayonini individuallashtirish va differentsiallashtirish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjud. Ular bolalarga noan’anaviy axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini beradi, mustaqil ish samaradorligini oshiradi, ijodkorlik uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar yaratadi, koʻnikmalarga ega boʻladi va mustahkamlaydi, oʻqitishning tubdan yangi shakl va usullarini amalga oshirishga imkon beradi.

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslar nafaqat olingan bilimlarni kengaytiradi va mustahkamlaydi, balki oʻquvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Yosh oʻquvchida tasavvur va oʻzini namoyon qilish istagi katta boʻlganligi sababli, unga imkon qadar tez-tez, shu jumladan axborot texnologiyalari yordamida oʻz fikrlarini ifoda etishni oʻrgatish zarur. Boshlangʻich sinf darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish har bir oʻquvchiga oʻz fikrini ifodalash imkoniyatini beradi, oʻquvchi esa oʻzi uchun ish shakllarini tanlaydi.

Mutaxasislar oʻz ishlarida AKTdan foydalanadigan oʻqituvchilar yangi narsalarni oʻrganishni yaxshi koʻradigan (kichik kashfiyotchi) oʻqituvchilarni izlash uchun degan xulosaga kelishdi. Demak, darsda AKTdan foydalanish bilan ta’lim jarayoni mantiqiy va tanqidiy fikrlashni, tasavvurni, mustaqillikni rivojlantirishga

qaratilganligini ko‘ramiz. Bolalar qiziquvchan, ijodiy izlanishga moyil. Nafaqat bolalar, balki ularning ota-onalari ham.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o‘qituvchi endilikda kompyuter texnikasidan qanday foydalanishni o‘rganishi kerak. O‘qituvchi uchun kompyuter endi hashamat emas - bu ehtiyoj.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бурлакова А. А. Компьютер на уроках в начальных классах. Начальная школа плюс До и После. – 2007. - №7. – С. 32 – 34.
2. Молокова А.В. Информационные технологии в традиционной начальной школе. Начальное образование №1 2003.г
3. Yuldasheva, G. I., & Shermatova, K. M. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. Экономика и социум, (4-1), 466-468.
4. Shermatova, G. Y. H. (2022). Aniq fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Scientific progress, 3(1), 372-376.
5. Аскарова, Ш. М. (2018). Инновационная технология в обучении естественных предметов. In Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) (pp. 1221-1225).
6. Askarova, S. M. (2022). Talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida. Academic research in educational sciences, 3(6), 1067-1071.
7. Аскарова, Ш.М., & Якубов, М. (2022). Современное состояние использования информационных ресурсов интернет в Республике Узбекистан. International interdisciplinary research journal (GIIRJ), 9(31), 169-175.
8. Мухтаров, Ф. М., & Аскарова, Ш. М. (2018). Особенности создания виртуальных коммуникативных информационных пространств. Инновационные научные исследования: теория, 53.
9. Якубов, М. С., & Аскарова, Ш. М. (2022). Особенности использования информационных ресурсов интернета. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 4, 10-16.
10. Шерматова, Х.М., & Орифжонова М. (2022). Использование информационных технологий в преподавании естественных наук. Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!, (1), 103-104.
11. Шерматова, Х. М., & Мукимова, З. З. (2021). Интеллектуальная культура-важный фактор образовательного процесса. Экономика и социум, (4-2), 723-726.
12. Shermatova, Z.M., & Shermatova, H.M. (2022). The role of electronic educational manuals in the field of ICT. Интернаука, 4(1), 46-47.

13. Komilova, Z. K., & Nazirjonova, F. S. (2021). The role of new information technologyies in education. Экономика и социум, (4-1), 167-170.

14. Mamarajabov, M. E., & Ismoilova, D. S. (2020). Competence-based education in computer science and information technologies. Academicia an International Multidisciplinaru Research Journal, (10), 699-705.

15. Mamarajabov, M. E., & Ismoilova, D. S. (2020). The concept of development of information technology education in the system of continuous education in the republic of Uzbekistan. Theoretical & Applied Science, (6), 481-487.

16. Aldashev, I. (2020). Modern information technologies in education is a new opportunity. Economy and society, (6 (73)).

17. Ibragimov Sh.M. (2020). Improving the effectiveness of teaching information technology in universities using the method of individualization. Elektronnoye nauchno-prakticheskoye periodicheskoye mejdunarodnoye izdaniye «Ekonomika i sosium», (11-78).

18. Ибрагимов, Ш. М., & Тожиев, Т. (2019). Умумтаълим мактабларида ўқувчиларнинг дастурлаш бўйича компетенцияларини шакллантиришга оид тавсиялар. «Математика ва информатиканинг замонавий муаммолари» Республика илмий-амалий анжуман. Фарғона давлат университети, 209-210.

19. Одина Насридиновна Тешабаева, & Хилолахон Мирзаевна Шерматова (2022). Современные информационные услуги в обеспечение конкурентоспособности коммерческих банков. Scientific progress, 3 (1), 44-51.

PEDAGOGIK VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASIDA O‘QUVCHILARNING SHAXSIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Umirov Boboyor Baxtiyor o‘g‘li
Samarqand Davlat universiteti tayanch doktoranti
boboyor140892@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7370477

Izoh: Ushbu maqolada o‘quvchilarni tayyorlash pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash jarayonida shaxsiy kompetentsiyasini rivojlantirish ko‘rib chiqiladi.

Tayanch so‘zlar: kompetentsiya, shaxsiy kompetentsiyasini rivojlantirish, nazariya, texnologiya, amaliyot, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi jarayonida o‘quvchisini tayyorlash moduli.

Annotation: This article examines the development of personal competence in the process of integration of pedagogical and information and communication technologies.

Key words: module of training students in the process of integration of competence, personal competence, theory, technology, practice, pedagogy and information and communication technologies.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalari kabi ta'limning rivojlanishi hozirgi davrda dolzarbdir va mamlakatimiz kelajagini belgilab beruvchi ustuvor vazifalardan biridir. Bu vazifalar respublika qonunchiligi va me’yoriy hujjatlarida aks ettirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son 4.4-bandga muvofiq. ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida ta’lim va fanni rivojlantirishni ta’minlaydi. Keyinchalik uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish va kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlar (1). Belgilangan vazifalar bo‘lajak o‘qituvchilardan alohida e’tiborni talab qiladi oliy o‘quv yurtlarida tayyorlangan informatika har tomonlama o‘rganildi vakolatli.

Kompetentsiya, kasbiy va shaxsiy fazilatlar va xususiyatlar bo‘lish shaxs, bilim, ko‘nikma va ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini birlashtiradi, shuningdek mustaqil va ijodiy ishlay olish qobiliyati (2). O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi ko‘plab ilmiy ishlarda o‘rganilgan tadqiqotlar, ular asosida biz professionalni shakllantirish vazifalariga e'tibor qaratamiz informatika o‘qituvchisining malakasi. Hozirgi vaqtda ta'lim integratsiya uchun qo‘llaniladi (o‘zaro ta'sir, qo‘llab-quvvatlash

va qo‘shimchalar) pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) (3). Integratsiya jarayonida informatika o`qituvchilarini tayyorlashning asosiy vazifalari pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari quyidagilardan iborat:

1. Informatika o`qituvchisi mutaxassisligi bo`yicha bilimlarni chuqur o`rganib, tushunchaga erishish. pedagogik va axborot texnologiyalarining o‘quv jarayonida tutgan o‘rni va roli;

2. Zamonaviy o‘quv-texnik vositalardan foydalanish, asosiy tushunchalar, qonunlar va didaktik muhitlarni yaratishda, qabul qilishda o‘qituvchi tomonidan o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan qoidalar talabalarning ruhiy holatini hisobga olish;

3. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya integratsiyasini qo‘llash texnologiya o‘rganishni tashkil etishda pedagogik loyihalashni, diqqatni talab qiladi pedagogik loyihalash, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va tizimli rivojlantirish ushbu sohadagi vakolatlar;

4. Tayyorgarlik bo‘yicha bir qator tadqiqot ishlarini diqqat bilan tahlil qilib Informatika o‘qituvchilari, biz kompyuter fanlari o‘qituvchisini tayyorlashga ishonamiz Pedagogika va AKT sohalarini alohida modullarga bo‘lish mumkin: "Nazariy", "Texnologik" va "Amaliy".

Informatika o‘qituvchilari uchun "Nazariy" o‘quv modulida biz darajani aniqlaymiz maxsus bilimlar, algoritmlar, bilimlar, tamoyillar, nazariyaning asosiy tushunchalarini bilish o‘rganishda pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish maxsus fanlar. O‘rganilgan bilim darajalari asosiy ma'lumotlardan boshlab kiritilgan ma'lumotlar, ma'lumotlarni o‘rganib, bilimga aylantiradi va ularni ilmiy darajaga keltiradi bilim (ma'lumotlar → ma'lumot → bilim → ilmiy bilim). “Texnologik” modul quyidagi tayyorlash texnologik jarayonlarini o‘z ichiga oladi informatika o‘qituvchisi: multimedia didaktik vositalarini yaratish qobiliyati kasbiy faoliyat, pedagogik va axborotni tashkil etish texnologiyalar, ularni integratsiyalash, foydalanish, barcha bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni qo‘llash muhiti pedagogik dizayndagi kompetensiyalar. “Amaliy” modul informatika o‘qituvchisining amaliy mashg‘ulotlarga tayyorligini o‘z ichiga oladi faoliyati: o‘quv jarayonini tashkil etishni loyihalash va ta'limni tashkil etish loyihaga asoslangan jarayon.

Ushbu modullar o‘z navbatida kichikroq modullarga bo‘linadi, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi (3):

1. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ularning integratsiyasi, chuqur mutaxassislik, kasbiy bilim, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsiy fazilatlar;

2. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni joriy etish maxsus fanlarni o‘rganish va o‘qitish texnologiyalari;

3. Fanlarni, tashkilotlarni o‘rganishda pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va teskari aloqa integratsiyasidan foydalanishni amalga oshirish. mustaqil ish, monitoring va baholash;

4. Maxsus uchun multimedia elektron didaktik vositalarni yaratish fanlar;


5. Maxsus fan bo`yicha o`quv dasturi, texnologik xaritalar ishlab chiqish, dars tahlili fanlar;

6. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tahlil qilish, fanni o`qitishda foydalaniladi: qo`llash usullari va vaqtini bilish pedagogik va axborot texnologiyalari;

7. Pedagogik va integratsiyalashgan holda darslarni samarali tashkil eta olish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;

8. Integratsiyadan foydalangan holda tadqiqot ishlari va loyihalarda ishtirok etish pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;

9. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasiga asoslangan. Yuqoridagi kichikroq modullarning ulanishini yaxshiroq tushunish uchun ularni taqdim etish tavsiya etiladi grafik shakl. Bu erda "nazariy" modullar doira shaklida ifodalanadi, to‘rtburchak ko‘rinishidagi "texnologik", professionalda "Amaliy" modullar ko‘pburchak shaklida informatika o‘qituvchisining faoliyati (1-rasm)



Bizda tizimda tayyorlangan informatika o‘qituvchilarining tayyorgarligi modellari mavjud oliy ma'lumotli, "Nazariy", “Texnologik” va “Amaliy” modullar

Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o‘rganish, ularning integratsiyasining asosiy komponentlari. Shu bilan birga, informatika o‘qituvchisi kerak “Pedagogik texnologiya nima?”, “Nima mavjud pedagogik texnologiyalar turlari?”, “Pedagogik texnologiyalardan qanday foydalanish kerak informatika o‘qitishda?”, “Interfaol usullardan qanday foydalanish kerak?”, “Nima AKT?”, “AKTdan foydalanishning afzalliklari nimada?”, “Integratsiya nima?”, “Nima uchun? Men pedagogik va axborot-kommunikatsiyani birlashtirishim kerak texnologiyalari?”, “Pedagogik va axborot-kommunikatsiya integratsiyasi qanday amalga oshiriladi maxsus fanlarni o‘qitishda texnologiyalar?”, “Buning uchun nima qilish mumkin?”.

Bundan tashqari, chuqur maxsus fanlar davlat tomonidan belgilangan ta'lim standartlar, kasbiy bilim va shaxsiy fazilatlarni egallash.

1. O‘qituvchiga dars berish orqali maktablar, pedagogik bilimlardan foydalanishda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish texnologiya, o‘quv jarayonida AKT, o‘quvchilarni integratsiyalash, o‘rganish va o‘rgatish oson ular o‘rgangan bilim va ko‘nikmalar.

2. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya integratsiyasidan foydalanish mustaqil ishlarni tashkil etish, nazorat qilish va baholash texnologiyalari. Hozirda fan sohasida mustaqil ishlash, talabalar bilimini nazorat qilishdan foydalaniladi pedagogik va axborot-kommunikatsiya integratsiyasining bir necha turlari texnologiyalar. Masalan, guruhni 3-4 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘lish informatika fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, dagi ishlardan foydalanish hamkorlik, loyihalash texnologiyalari, mantiqqa asoslangan vazifalarni yaratish savollar, muammoli ta’lim texnologiyalari, individual baholash uchun foydalanish talabalar Ispring, Easy Ouizzy, MyTest va boshqa test dasturlari [4].

3. Maxsus uchun multimedia elektron didaktik vositalarni yaratish fanlar: bugungi kunda multimedia elektron axborot vositalari ishlab chiqiladi va informatika o‘qituvchilarining o‘quv jarayonida foydalaniladi. Farq informatika o‘qituvchilari va boshqa fan o‘qituvchilari o‘rtasida ular informatika fanlarini o‘rgatadilar, shuningdek, elektron ta'lim vositalarini yaratadilar ulardan mualliflik huquqi bilan foydalaning. Shuning uchun bo‘lajak informatika o‘qituvchilari yosh avlodga informatika fanini o‘rgatish va bilim olishi uchun sharoit yaratish HTML, Autoplay, Namo yordamida elektron qurilmalar yaratish texnologiyalari haqida, Macromedia Dreamweaver, Macromedia Flash va boshqalar.

4. O‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ishlanmalar, texnologik xaritalar tuzish, maxsus fanlar bo‘yicha darslarni tahlil qilish; Uslubiy dastur ichida Informatika darsning uslubiy asosini (maqsad, mazmun, shakl, darsda foydalaniladigan vositalar,

pedagogik va axborot texnologiyalari; o‘qituvchilar va talabalarning kurs faoliyati) va to‘liq ochib berilgan [4].

5. Qo‘llaniladigan pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tahlil qilish intizomni o‘qitish: informatika o‘qituvchisiga pedagogik dars berilishi kerak faoliyati, darsda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish qo‘llaniladigan pedagogik, psixologik, ergonomik va boshqa jihatlarni tahlil qilish o‘qituvchi va uning hamkasblari;

6. Pedagogik va.dan foydalangan holda o‘qitish va o‘qitishni samarali tashkil etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari informatika fani o‘qituvchilari bilishi kerak pedagogik texnologiyalar, ularning turlari, axborot texnologiyalaridan foydalanish, roli va o‘quv jarayonida elektron ta'lim resurslarining ahamiyati va ulardan foydalanish usullari vaqtning istalgan nuqtasi.

7. Integratsiyadan foydalangan holda tadqiqot olib borish va loyihalarda ishtirok etish pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Biz buni bilamiz zamonaviy o‘qituvchi nafaqat dars beradi, balki turli loyihalar, tanlovlarda ishtirok etadi va 17 www.auris-verlag.de Sharqiy Yevropa ilmiy jurnali tadqiqot, uning pedagogik faoliyatini yanada rivojlantirishga hissa qo‘shadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘qituvchilari tomonidan “Yilning eng yaxshi o‘qituvchisi”, “Eng yaxshi intizom o‘qituvchisi”, “Innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari” va “Eng yaxshi o‘qituvchi-tadqiqotchi” va boshqalar.

8. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasiga asoslangan. In Pedagogik faoliyat davomida o‘qituvchi doimiy ravishda ota-onalar bilan ishlashga to‘g'ri keladi. Informatika o‘qituvchisi ota-onalarga talabalar haqida, ularning darajasi haqida ma'lumot beradi darslarga tayyorgarlik, o‘quv faoliyati, ta'lim muassasasida bo‘lish paytida xatti-harakatlari muassasa. O‘qituvchi veb-saytga turli xil guruh tadbirlarini joylashtiradi talabalar, ota-onalar va keng jamoatchilikni xabardor qiladi. Axborotlashtirishning rivojlanishi ota-onalar bilan chat orqali muloqotning jadal rivojlanishiga yordam beradi, e-mail va telegram, bu esa talabalarning samaradorlik uchun mas'uliyatini oshiradi ularning ta'lim faoliyatini rivojlantirish. Shunday qilib, oliy ta’lim tizimidagi asosiy vazifamiz o‘qituvchi kadrlar tayyorlashdan iborat pedagogik va axborot-kommunikatsiya integratsiyasi jarayonida informatika texnologiyalar, nazariy va texnologik bilimlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 1-son qarori. UP-4947. Yoniq O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. "To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari, 6-son, 70-modda. 2017 y.,

2. Lyash AA. Informatika o‘qituvchilarini o‘qitish metodikasining mazmunli tarkibiy qismi kasbiy ta'limda axborot va ta'lim tizimlarining pedagogik texnologiyalaridan foydalanish Faoliyat: Ta'lim texnologiyalari va jamiyat: xalqaro elektron jurnal, 2011 yil, № 2.

3. Qayumova N.A. Bunda axborot-ta'lim tizimlarini tayyorlash va AKT o‘qituvchilarini tayyorlash muhit. Monografiya. Toshkent, 2015 yil; 192.

4. Qayumova N.A. Informatika o‘qituvchisining metodik tizimini yaratish pedagogik va axborot texnologiyalarining integratsiyalashuvi shartlari. Xalqaro Qozoq Turk Universiteti: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya “Tashkilotning shakllanishi Raqobatbardosh mutaxassis milliy qiyofasi”, 22-23 aprel, Turkiston, 2016 yil; 86-89 Больше информации об этом исходном текстеЧтобы получить дополнительную информацию, введите исходный текст Отправить отзыв Боковые панели

5. Egorova G.N. Interfaol ta'lim texnologiyalari kognitiv faollikni oshirish vositasi sifatida // O‘rta kasb-hunar ta'limining holati, rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari: Sat. Xalqaro materiallar ilmiy-amaliy yozishmalar. konf. (2017 yil 24 mart). Cheboksari: CHKI RUK, 2017. - S. 75-80.

6. Portnov M.S. O‘rta maxsus ta'lim muassasalarida informatika o‘qitish muammolari // O‘rta kasb-hunar ta'limining holati, rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari: Sat. Xalqaro materiallar sirtdan ilmiy-amaliy. konf. (2016 yil 25 mart). Cheboksary: CHKI RUK, 2016. S. 129-135.

7. Portnov M.S. O‘rta maxsus o‘quv yurtlarida dasturlashni o‘qitishning ayrim muammolari to‘g'risida / M.S. Portnov, A.V. Rechnov // O‘rta kasb-hunar ta'limining holati, rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari: Sat. Xalqaro materiallar ilmiy-amaliy yozishmalar. konf. (2017 yil 24 mart). Cheboksari: CHKI RUK, 2017. - S. 97-102.

8. Rechnov A.V. Talabalarning mustaqil ishlari sifatini oshirish uchun zamonaviy AKT vositalarini qo‘llash /A.V. Rechnov, V.P. Filippov // O‘rta kasb-hunar ta'limining holati, rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari: Sat. Xalqaro materiallar sirtdan ilmiy-amaliy. konf. (2017 yil 24 mart). Cheboksari: CHKI RUK, 2017. - S. 107-111.

6. Filippov V.P. Algoritmik fikrlash dasturlash uchun asos sifatida / V.P. Filippov, M.S. Portnov // O‘rta kasb-hunar ta'limining holati, rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari: Sat. Xalqaro materiallar ilmiy-amaliy yozishmalar. konf. Cheboksari: CHKI RUK, 2019. - B. 85-89

ЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ ҚУРИЛИШИ БЎЙИЧА ДАСТЛАБКИ ТАКЛИФ ВА ЛОЙИҲАЛАР АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИ АСОСИДА

Самардинов Ойбек Уйғун ўғли
Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети 2 босқич магистранти
Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи
oybeksamariddinov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7370481

Аннотатсия: Ушбу мақолада Чор Россияси ҳукуматининг Туркистон ўлкасини ҳудудларининг электрлаштириш масалаларига оид архив ҳужжатлари муаллиф томондан таҳлил қилинган. Бу борада бир қанча архив фондлари ҳужжатлари ўрганилиб, эълон қилинмоқда.

Калит сўзлар: 1900 йилга келиб 80000 кВт, “VI бўлим Динамо электр станцияси”, техник Дмитрий Александрович Лямин, Альфред Леопольдович, Туркестанские ведомости, Бланкенштейн ва Мартини.

1900 йилда нефть қазиб олишда электр энергиядан фойдаланиш мақсадида Бокуда иккита электр станциясининг қурилиши бошланди. Улардан бири ўз даври учун рекорд қувват – 16000 кВт га эга бўлган. Россия империясидаги барча электр станцияларининг қуввати 1900 йилга келиб 80000 кВт га етган . Россия империясининг марказий районларидан фарқли ўлароқ, Туркистон ўлкасида саноат ишлаб чиқаришининг ночорлиги дастлаб бу ерда электр энергиясидан саноатда фойдаланишга эҳтиёжни ошира олмас эди. Ўлкада биринчи электр станцияларининг пайдо бўлишига саноат корхоналаридан ташқари шаҳар аҳолиси, темир йўл ва шаҳар транспортининг электр энергиясига бўлган эҳтиёжининг ошиб бориши, шунингдек, театр ва киноматографиянинг пайдо бўлиши ҳам сабаб бўлди. Бундай ҳолат айниқса Тошкент шаҳрида яққол намоён бўлди. Ўлка ҳокимияти Туркистоннинг бошқа шаҳарларидан олдинроқ бу ерда электр таъминотини йўлга қўйиш юзасидан саъй-ҳаракатларни бошлашган. 1883 йилнинг майида Туркистон генерал-губернатори М. Черняев Петербургдаги “VI бўлим Динамо электр станцияси”га электр қувватини шахсий эҳтиёжлар, ёритиш ва узатиш учун қўллаш борасида мурожаат қилди . Тез орада келган жавобда қуйидагилар таъкидланган эди: “Тошкент шаҳрида электр машиналар динамосини ҳаракатга келтира оладиган 50 от кучига эга бўлган буғ машинасини қайта жиҳозлаш йўли билан ундан фойдаланиш мумкин. 50 от кучи 3 верстага етади”. Генерал-губернаторнинг шаҳарга электр энергия узатиш борасидаги таклифи ушбу ишга тадбиркорларнинг қизиқишини уйғотмасдан қолмади. 1884 йил 18 январидаёқ

истеъфодаги ҳарбий-техник Дмитрий Александрович Ляминдан таклиф тушади. Генерал-губернатор номига йўллаган мурожаатида у қуйидагиларни таъкидлайди: “...мен электрни эксплуатация қилиш иши билан амалий тажрибага эга бўлган шахс сифатида Сиз Зоти олийларига ўз билимимни таклиф этаман. Катта мақсаднинг бир бўлагини амалга оширишда сизга ёрдамчи бўлиш истагидаман. Менга сиз томонингиздан Тошкент шаҳрини электр билан ёритиш топширилган тақдирда Россияда техниканинг суст ривожланганлиги сабабли Берлинга боришга тўғри келади. Айнан у ердан шу иш учун мўлжалланган замонавий ускуналарни олишимиз мумкин. Ўрта Осиёга ушбу оғир юкларни олиб келишнинг мушкуллиги ва секин кечишини ҳисобга олиб, ссудани 1884 йил мартидан кечиктирмай олсамгина электр ёритиш ишларини шу йилнинг охиридан олдинроқ амалга оширишим мумкинлиги ҳақида маълум қиламан”[26] Д.А. Лямин Тошкент шаҳрини электр энергияси билан ёритишни қуйидаги шартлар асосида ўз бўйнига олишини маълум қилган:

1. Келишилган ҳолда 10000 рублни гаровга, фоизсиз берилиши.

2. Туркистон генерал-губернатори уйидаги шаршара учун двигатель олишга фармойиш берилиши.

3. 12 йил давомида ундан бошқа ҳеч кимга шаҳарни электрлаштириш ҳуқуқи берилмаслиги. Шунингдек, Д.А. Лямин ўз зиммасига юқоридаги шартлар билан бирга қуйидаги мажбуриятларни олган:

1. Туркистон генерал-губернатори уйидаги исталганча хоналарни ёритиш.

2. Генерал-губернатор уйидан Гимназический майдонигача бўлган кўчани 3000 чироқ билан ёритиш.

3. 3000 чироққа тенг миқдорда ёритиш фонарлари ўрнатиш.

4. Тўловларни ҳаражатлар ҳисобга олинган ҳолда амалга ошириш.

5. Бошқа кўча, майдон ва оммавий жойларни ёритишни икки томоннинг келишувига кўра амалга ошириш.

6. 12 йиллик муддат ўтгач, ўзига тегишли ишларни икки томон келишуви асосида шаҳарга ёки жисмоний шахсга топшириш [27] Юқоридагилардан кўриниб турибдики, Д.А. Ляминнинг таклифи шаҳар ва шахсан генерал-губернаторга ҳеч қандай фойда келтирмаган. Концессиянинг 12 йиллик муддат давомида ёритиш ҳуқуқи бошқа шахсларга берилмаслиги шаҳар маъмурияти ҳуқуқларини чеклар эди. Шунинг учун Д.А. Ляминга концессия берилмади. Бошқа йирик тадбиркорлардан таклифлар тушмагач, бу иш амалга ошмади ва тез орада унутилди. “Таржумон” газетасининг 1884 йилги сонларидан бирида шаҳарнинг электр таъминоти билан маҳаллий аҳоли вакиллари, жумладан ҳожи

[26] ЎзМА, И-17-фонд, 1-рўйхат, 25738-иш, 4-варақ

[27] ЎзМА, И-17-фонд, 1-рўйхат, 25738-иш, 5-варақ.

Ҳалим Юнусов ҳам қизиқаётгани, электр фонарлар керосин билан ёнувчи фонарлардан анча арзон тушиши ҳақида хабар берган: “Мўътабар ғазетамизда ҳожи Ҳалим Юнусовнинг ҳурматли номлари кўрилмиш эди. Бу уламомиз умумий шарқийда касб қилдиғи қувват билук ва фунун жадидада улдуғи маълумоти ила шуҳрат олдиғи каби бу тарафға кашф ва ижодлари дохи одина ном берилмишдир. Ҳожи Юсуфнинг ижодлари майдона чиқмоқда эса ўз сўзларин хорижинда ўлан сабаблардандир. Илм ҳикмат электро тахти кошоси ўлароқ электрик фанарина бир қулайлик топилмишдирки, футужин ва карусин фанариндан ужуз ёнажақдур. Яқинда ҳожи ҳазратлари Тошкент шаҳар идорасини бирдеки арзҳолда Тошкентда электрик фонарлари ёқиқни таклиф этуб, карусин фанарларини бир лампада улан фиатидан юзда йигирма ошиғи фиати иситмишдир”. Узоқ танаффуслардан сўнг Тошкент шаҳрини электр билан ёритиш масалалари фақатгина 1896 йилга келиб яна қизғин муҳокамалар мавзусига айланди. Бунга Тошкент шаҳар маҳкамасининг француз муҳандислари Марье ва Гильс билан Тошкент кўчаларини электр билан ёритиш ҳақидаги ёзишмалари сабаб бўлди. Аммо тадбиркорлар бу ишни жуда қалтис ва кераксиз дея шаҳарни электр қуввати билан ёритиш ишларини амалга оширишдан бош тортишди . 1896 йил ноябрь ойида Бельгиянинг “Тошкент трамвайи” жамияти билан Тошкент шаҳрида от билан юрувчи темир йўлларини қуриш бўйича шартнома тузиш жараёнида бошқа кўплаб масалалар қатори шаҳарни электр билан ёритиш масаласи ҳам кўрилди, аммо бельгияликлар ҳам бу ишни ўзлари учун фойдали деб ҳисоблашмайди . 1899 йилнинг февраль ойида Туркистон генерал-губернатори С.М. Духовский номига Тошкент шаҳрини электр қуввати билан ёритишни ташкиллаштириш учун изланишлар олиб боришга рухсат сўраб ригалик савдогар Герман Бланкенштейн мурожаат қилди. Шунингдек, у бу мақсадни амалга ошириш учун муҳандис Альфред Леопольдович Смолианни юборганини билдиради . Ушбу таклифларга берилган жавоблар тез орада унга, “бўлажак мижозлардан келган мурожаатлар, иш ижобий тарзда кечиши мумкинлигини исботлайди” деб таъкидлашга асос бўлади. 1899 йилнинг июнь ойидан бошлаб маҳаллий газеталар саҳифаларида шаҳарни электр энергияси билан ёритиш масаласи борасида қизғин мунозаралар авж олди. Унинг иштирокчилари шаҳарни электр энергия билан таъминлаш зарур иш эканлигини якдиллик билан таъкидлашса-да, таклифларнинг фойдалилиги борасида турли қарашлар мавжуд эди. Шаҳар аҳолисининг ўрта қатлам вакиллари ушбу ишларни ташкиллаштириш яхшилигини, аммо ҳамма гап фирма томонидан кўрсатилган 16 шам қувватдаги 1 лампа соатига 2,3 копеек, 1 от кучи 21,3 копеек нархларда эканлигини таъкидлашган. Бунда 16 шам қувватли чўғланиш лампасига тенг бўлган 1 керосин лампаси бир кечада 6 соатлик ёниш жараёнида 4 копеек керосин

ёқиши, электр лампа ёниши эса 14 копеек ёки 3,5 маротаба кўп қиммат бўлиши таъкидланган . Электр энергияга бундай нархлар Россиянинг Европа қисмидаги исталган шаҳри учун ақл бовар қилмас нарх бўлиб, Европа ҳақида гапирмаса ҳам бўлади. Бу масалага “Туркестанские ведомости” газетасида билдирилган муносабатда: “Бундай нархлар 10 йил олдин ўринли бўлиб, ҳозирда электр материаллари ва ускуналарининг нархи 2-3 маротаба арзонлашганлигидан бу нархлар эскидир”, дейилади. Шунинг учун газета аҳоли ва муассасаларни фирма билан савдолашишга ва 16 шам қувватли лампа учун соатига 1 копейкдан кўп ҳақ тўламасликка чақирган . Шаҳар ҳокимияти шартнома учун фирманинг бу таклифига нисбатан ўзгача фикрда бўлиб, аҳоли манфаатларига зид равишда нархларни бирмунча пасайтиришга, яъни кўчаларни ёритиш учун 16 шам қувватли лампа учун соатига 0,5 копейкдан камроқ тўлашга эришган. Шаҳар ҳокими И.А. Лодженскийнинг “Туркестанские ведомости” газетасида чоп этилган “Таҳририятга хат” деб номланган мақоласида “шаҳарга Смолианни ўз фирмаси номидан қилаётган таклифи энг яхшилиги ва шаҳар маҳкамаси учун фойдали эканлиги” қайд этилган. Шунингдек, у рақобатчиларнинг кўпайишига ҳам қатъий қарши эди. Бунда у маҳаллий шароитларда бундай ҳаракатлар ишни ортга сурилиши ва турли фирибгарликларга олиб келишини таъкидлаб, ўз фикрларининг исботи сифатида у Тошкентда қурилган от кучи билан тортиладиган трамвай йўли қурилишини мисол келтирган. Чунки шаҳар газеталари рақобатчиларни фаол бўлишга чақиришган эди. Фақатгина “битта ягона рақобатчи келиб, “Аноним Бельгия жамияти”дан воз кечиш учун 10000 рубль олади ва йўқ бўлиб кетади. Натижада эса биринчидан, лойиҳа 2 йилга тўхтаб қолади, иккинчидан эса шартнома шаҳар учун ўта ноқулай шартлар асосида тузилади” . Ниҳоят 1899 йилнинг 19 июнида Тошкент шаҳар Дума кенгашида ригалик савдогар Бланкенштейн ва немис фуқароси Мартинига шаҳарни электр ёритиш билан таъминлаш концессиясини ўз зиммаларига олганликлари ҳақида қарор қабул қилди. Ушбу концессиянинг шартлари қуйидагича эди:

1. Бланкенштейн ва Мартини жаноблари шартнома тасдиқлангандан сўнг 15 ой ичида кўча, майдон, боғ ва биноларни электр ёритиш билан таъминлашни ўз зиммаларига оладилар.

2. Концессиянинг амал қилиш муддати 50 йил деб белгиланади. Бунда шаҳар 25 йилдан сўнг муассаса ва электр ёритиш учун ишлатилган барча қурилмаларни сотиб олиши мумкин. 50 йил ўтгандан сўнг барча электр хўжалиги буткул ишга яроқли ҳолатда шаҳар қарамоғига ўтиши керак.

3. Шарноманинг аниқ бажарилишини таъминлаш мақсадида тадбиркорлар 35000 рубль миқдорида гаров бадали киритишлари, бунда электр ёритиш кўнгилдагидек ёки 15 ойлик муддат ичида умуман ташкиллаштирилмаса, у

ҳолда тадбиркорлар 1 ой кеч қолганлиги учун 2000 рубль, иккинчи ой учун 4000 рубль, учинчи ой учун 6000 рубль ва ҳоказо жарима тўлайдилар. Олти ой мобайнида ёритиш ишлари йўлга қўйилмаса, 35000 рубль гаров пули шаҳар фойдасига ўтиб, шартнома бекор қилинган деб ҳисобланади.

4. Шаҳар маҳкамаси тадбиркорларга концессиянинг амал қилиш муддати ичида Бўзсувнинг сатҳини 6 метрга кўтаришга рухсат бериши керак.

5. Шаҳар маҳкамаси шартноманинг амал қилиш муддати давомида тадбиркорларга иккита: бири Бўзсув ёқасида бирламчи станция, машинистлар учун турар-жой, омбор ва ҳоказолар учун 2600 кв. сажень* ер ажратилиши, иккинчиси шаҳар марказида бўлиб, у иккиламчи тақсимлаш станцияси, идора, устахоналар, омбор ва бошқалар учун мўлжалланган ҳудудни бериши шарт.

6. Концессиянинг амал қилиш муддати давомида шаҳар маҳкамаси бошқа шахслар ва жамиятларга бирламчи станция қурилмаларига Бўзсув сувидан фойдаланишга рухсат бермайди.

7. Тадбиркорлар шаҳарни 3000 лампа билан ёритиши, бунинг эвазига шаҳар йилига уларга 35000 рубль тўлаши, лампалар сони оширилишига эҳтиёж пайдо бўлган тақдирда, шаҳар маъмурияти шартномада кўрсатилган ҳисоб-китобга қўшимча тўлов қилиш мажбуриятини олишган[28] . Бу борада умумий фикр “Туркестанские ведомости” газетасида чоп этилган “Шошилинч шартнома” деб номланган мақолада билдирилган. Унда хусусан, “жаноб Смолианни ажойиб имзоланган жуда фойдали шартнома билан, шаҳар аҳолисини эса ярим асрга жаноб Бланкенштейнга қулликка ўтганлиги билан табриклаш мумкин”, деб ёзилган . Шартномага нисбатан бундай салбий муносабат шу билан изоҳланардики, у электр энергиясининг асосий истеъмолчиси бўлган шаҳар аҳолисининг манфаатларига зид эди. Чунки шаҳар хўжалик эҳтиёжлари учун электр энергиясининг кВт соати 9 копеекка баҳоланган бўлса, аҳоли учун 34 копеекка яъни қарийб 4 баробар қимматга баҳоланган. Аммо шартнома амалга ошмай қолди. “Бланкенштейн ва Мартини” фирмаси шартномани имзолаш учун тўланиши керак бўлган 10000 рубль тўловдан бош тортди. Бунинг асосий сабаби эса станцияни бутун сутка давомида тўхтовсиз ишлашининг имкони йўқлиги ва бунинг натижасида фойданинг кам бўлиши эди[29].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. ЎзМА, И-17-фонд, 1-рўйхат, 25738-иш, 4-варақ
2. ЎзМА, И-17-фонд, 1-рўйхат, 25738-иш, 5-варақ.
3. ЎзМА, И-1-фонд, 13-рўйхат, 48-иш, 6-7-варақлар.
4. “Туркестанские ведомости”. 1899 йил, 18(30) июль.

[28] ЎзМА, И-1-фонд, 13-рўйхат, 48-иш, 6-7-варақлар.
[29] “Туркестанские ведомости”. 1899 йил, 18(30) июль.

MATEMATIKA DARSLARINI «BUMERANG» TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI

Muydinjonov Davlatjon Rafiqjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7370488

Annotatsiya: Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda bumerang texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlarini amaliy yoritib berish.

Kalit so‘zlar: rekurrent, natural son, ketma – ketlik, limit, aniqmaslik, metod.

Amaliy mashg‘ulot trening shaklida tashkil etiladi.

1. Trener tomonidan o‘quv mashg‘uloti mavzusi, maqsad va vazifalari e’lon qilinib, umumiy yo‘nalish beriladi.

2. Har bir talabaga tarqatma material tarqatiladi. Ulardan matn bilan tanishib chiqish so‘raladi. 1,2,3 raqamlari bilan tartiblangan matnlarni trener talabalar sonini inobatga olingan holda guruh jurnalidagi tartib bo‘yichayoki tasodifiy tarqatishi mumkin.

№ 1.

Rekurrent ketma-ketliklar

Savol va topshiriqlar:

1.Rekurrent ketma-ketlik deb nimaga aytiladi? Bunday ketma-ketliklarga misollar keltiring.

Quyidagi ketma-ketliklar rekurrent ketma-ketlik bo‘ladimi:

natural sonlar qatori;

barcha tub sonlar qatori;

barcha juft sonlar qatori?

2. $a_{n+1} = na_n, a_1 = 1$ rekurrent munosabat bilan berllgan ketma-ketlikning dastlabki oltita hadini yozing.

3. $a_{n+1} = a_n^2 - 1$, $a_1 = 2$ rekurrent munosabat bilan berilgan ketma-ketlikning dastlabki beshta hadini yozing.

4. Ketma-ketlik $a_{n+2} = 2a_{n+1} - a_n$ rekurrent munosabat bilan benlgan. Agar $a_1 = 1$, $a_2 = 3$ bo‘lsa, uning dastlabki oltita hadini yozing.

5. Umumiy hadi $a_n = 3^n$bo‘lgan ketma-ketlik $a_{n+2} = 6a_{n+1} - 9a_n$ rekurrent munosabatni qanoatlantirishini isbotlang

№ 2

Ketma – ketlik limitini hisoblash usullari.

Savol va topshiriqlar:

1. Ketma – ketlik limitini hisoblashning qanday usullari bor?
2. Ketma – ketlik limitini hisoblang:
   1) $\lim_{n\to\infty}\frac{2n^2+5n+2}{5n^2-5n+3}$ 2) $\lim_{n\to-1}(3n^2-1)\,n$
   3) $\lim_{n\to\infty}\left(\frac{2n+3}{2n-1}\right)^{3n-5}$ 4) $\lim_{n\to\infty}\frac{5n}{3n+5}$
   5) $\lim_{n\to\infty}\frac{n^3-7n}{5n^3-12n+3}$ 6) $\lim_{n\to1}(4n^2-1)(3n^2-1)^n\,n$
   7) $\lim_{n\to\infty}\left(\frac{2n+5}{2n+1}\right)^{2n-5}$ 8) $\lim_{n\to\infty}\frac{7n}{3n-7}$

Yaqinlashuvchi ketma – ketliklar. Yaqinlashuvchi ketma – ketliklarning xossalari. Aniqmasliklar. Aniqmasliklarni yechish usullari.

Savol va topshiriqlar:

1. Yaqinlashuvchi ketma – ketlik deb qanday ketma – ketliklarga aytiladi?
2. Yaqinlashuvchi kichik ketma – ketlikning xossalarini yoriting.
3. Qanday ko‘rinishdagi ketma – ketliklarni aniqmasliklar deb yuritiladi?
3. Aniqmasliklarni hisoblashning qanday usullari bor?
4. Aniqmasliklarni hisoblang:
   1) $x_n=\frac{1}{n},y_n=\frac{1}{n^2},\lim\frac{1}{n}=0,\lim\frac{1}{n^2}=0;\lim\frac{x_n}{y_n}=?$
   2) $x_n=\frac{1}{n^3},y_n=\frac{1}{n^2},\ \lim\frac{1}{n^3}=0,\ \lim\frac{1}{n^2}=0,\ \lim\frac{x_n}{y_n}=?$
   3) $x_n=n^2+1,y_n=2n^2-n,\ \lim(n^2+1)=+\infty,\ \lim(2n^2-n)=+\infty;\ \lim\frac{x_n}{y_n}=?$
   4) $x_n=\frac{1}{n^3+1},y_n=n^3+2n,\lim\frac{1}{n^3+1}=0,\lim(n^3+2n)=+\infty;\lim(x_n\cdot y_n)=?$

3. Bir hil tartib raqamidagi matn bilan tanishgan talabalar alohida kichik guruhni tashkil etishlari so‘raladi.

4. Har bir guruhda tarqatma materialdagi matnda berilgan axborot yuzasidan fikr almashish amalga oshiriladi. Bunda guruhning har bir ishtirokchisi tarqatma materialda qayd etilgan topshiriq javobini bayon etadi.

5. Trener turli guruh a’zolaridan bir nafardan ishtirokchini inobatga oluvchi yangi guruhni tashkil etadi. Bunda ihtiyoriylik yoki boshqa bir talablar qo‘yilishi mumkin.

6. O‘rganilgan matnlar tartib raqamiga rioya qilgan holda yangi guruhning har bir a’zosi o‘zi bajargan topshiriq yoki ma’qul ko‘rsa avvalgi guruhining biror a’zosi tomonidan taklif qilingan yechimlardan foydalangan holda o‘zlashtirgan axboroti bilan boshqalarni tanishtiradi va tushuntiradi.

7. Trener barcha guruhlar uchun yangi topshiriq topshiradi.

	Topshiriqlar	**№**	**Topshiriqlar**
	Hisoblang: $\lim\limits_{n\to\infty}\frac{(n+2)^3+(n-2)^3}{n^4+2n^2-1}$	1	Hisoblang:. $\lim\limits_{n\to\infty}\frac{(n+2)^3+(n-2)^3}{n^4+2n^2-1}$
	Hisoblang: $\lim\limits_{n\to\infty}\frac{1-3n}{\sqrt{n^4+1}}$	2	Hisoblang: $\lim\limits_{n\to\infty}\frac{(n+2)^3+(n-2)^3}{n^4+2n^2-1}$

8. Trener barcha talabalarni o‘z joylarini egallashlarini so‘raydi. Barcha talabalar uchun doska yoki ekran orqali bitta topshiriq beriladi.

1) $\lim_{n\to\infty}\frac{(3-n)^4-(2-n)^4}{(1-n)^3-(1+n)^3}$

2) 2) $x_n=\lim_{n\to\infty}(n^2+1)=+\infty, y_n=\lim\limits_{n\to\infty}(2n^2-n)=+\infty$

$\lim\limits_{n\to\infty}\frac{x_n}{y_n}=?$

9. Trener talabalarni qaytadan birinchi guruhlarini tashkil etishlarini so‘raydi. Har bir talaba bajargan ish umumiy muhokamadan o‘tkaziladi. Guruh tomonidan uning har bir ishtirokchisi baholanadi.

10. Trener har bir talabani o‘z joylariga joylashishlarini so‘raydi. Fikr bildirishni istagan talabalardan o‘ziga qo‘yilgan bahoni sharhlash (qo‘yilgan baho ob’ektiv, sub’ektiv, qo‘yilgan bahoga loyiq bilimlar sababchisi, ...) so‘raladi.

11. Trening mashg‘uloti davomida qo‘llanilgan metodlar va ulardan matematika darslarida foydalanish imkoniyatlari, maqsad va vazifalar, ko‘zlangan natijalar yuzasidan fikr almashish tashkil etilib, trener tomonidan fikr va mulohazalar umumlashtiriladi.

References:

1. Abdunazarova, Dilfuza Tukhtasinovna, Maxfuza Madraximova, and Shuhrat Madrahimov. "SOLVING EQUATIONS IS FOUNDATIONAL FOR MIDDLE AND HIGH SCHOOL MATH." Scientific Bulletin of Namangan State University 3.5 (2021): 7-10.

2. Axmedovna, Madraximova Maxfuza, Turdaliyev Sodiqjon Muminjonovich, and Abduraxmonov Dilmurod Akramaliyevich. "CORRELATION COEFFICIENT AS A MATHEMATICAL SOLUTION OF ECONOMIC ISSUES."INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 72-75.

3. Рахматуллаев, М. "Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори СТ Турғунов Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор МР Қодирхонов Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р. Жалалов Т А Ҳ Р И Р Ҳ А Й Ъ А Т И."

4. Shukurovich, Madrahimov Shuhratjon, and Madrahimova Mahfuza Ahmedovna. "Measures For Monitoring And Evaluation Of Power Activity In Higher Education." JournalNX: 423-426.

5. Madrakhimov, Shukhrat Shukurovich, and Mahfuza Akhmedovna Madrakhimova. "A HERO WHO SAW THE WAR!." 75-летию Победы Великого народа посвящается: Люди. События. Факты. 2020.

6. Turdaliyev, S. M., et al. "Making information security strategic to business." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1019-1021.

7. Siddikovna, Ahmedova Zebikhon, Marasulova Zulayho Abdullayevna, and Yuldashev Abdurauf Rozmatjonovich. "Innovations and Advanced Foreign Experiences in Teaching Informatics in Higher Education in Interdisciplinary Relations." JournalNX (2021): 371-374.

8. Muydinjonov, Davlatjon R. “Uch singulyar koeffitsientli Helmgolts tenglamasi uchun Xolmgren masalasi”. Elektron tahlil va amaliy matematika jurnali 2019.1 (2019): 15-30.

9. Muydinjonov, Ziyodjon, and Davlatjon Muydinjonov. "INFORMATION, COMMUNICATION AND TECHNOLOGY (ICT) IS FOR TEACHER AND STUDENT." (2022).

YOSHLAR MUOMALA MADANIYATI VA IJTIMOIY FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI

Tursunova Nigora Komilovna
Samarqand viloyat Urgut tumani 100-umumta'lim maktabi
birinchi toifali Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7370494

Annotatsiya: Bugungi kunda O‘zbek adabiy tili me'yorlarini puxta bilish, davlat tili mavqeyini oshirish, ona tilimiz imkoniyatlaridan o‘rinli va unumli foydalanish mahoratini targ‘ib etishda ommaviy axborot vositalari, jumladan, matbuot (gazeta va jurnallar), televidenie va radioning ahamiyati katta. Insonlar o‘rtasidagi muloqot til vositalari orqali yuz bersa-da, uning yuqori madaniyatli, ma'rifatli bo‘lishi nafaqat til birliklaridan adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda, nutq madaniyati talablari darajasida suhbatlashishni, balki boshqa bir qancha omillarni ham hisobga olishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: grammatik, semantik, stilistik, potensial, diplomatik, nopisand, qolip, ijtimoiy, missionerlik.

O‘zbek tilshunosligida til va nutq, til madaniyati va nutq madaniyati kabi masalalar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. "Til va nutq bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, ammo ayni paytda bir-biridan farqlanishi kerak bo‘lgan hodisalardir. Tilsiz nutqning, nutqsiz tilning majud bo‘lishi mumkin emas. Uzbek adabiy tilining asoschisi ulug‘ Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida so‘zning sharafli sifatlari haqida so‘zlash asnosida til va nutq munosabati xususida quyidagi nazariy fikrni bayon qiladi: "Til muncha sharaf bila nutqning olati (quroli) dur va ham nutqsurki, agar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur". Demakki, til nutq uchun qurol, bu quroldan foydalanib nutq tuziladi, nopisandlik, e'tiborsizlik qilinsa, nutq maqbul bo‘lmaydi va bu tilning ofati bo‘ladi. Til va nutqning bir-biri bilan bog‘liqligi, biri ikkinchisiga hamisha ta'sir etishini til qonuniyatlarini % teran bilgan Alisher Navoiy aniq sezgan. Professor N.Mahmudovning qayd etishicha, tilshunoslikda ko‘pincha "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalari farqlanadi, ammo ba'zan har ikkisi o‘rnida birgina yo "til madaniyati", yo "nutq madaniyati" terminlari qo‘llanadi. Til va nutq hodisalarini farqlash zarur ekan, ular chindan ham alohida-alohida hodisalar ekan, albatta, til madaniyati va nutq madaniyatini ham farqlash maqsadga muvofiq. Til va nutq tushunchalarining mohiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, til madaniyati tilning "madaniylashganlik", adabiylashganlik, normalashganlik darajasini, lug'at tarkibi, grammatik, semantik,

stilistik jihatlardan rivojlanganlik, boylik darajasini, potensial ifoda imkoniyatlarining koʻlamdorligini ifoda etadi. Nutq madaniyati esa tildan bemalol, maqsadga oʻta muvofiq va ta'sirchan bir tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan koʻnikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda potensial mavjud boʻlgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng uygʻunlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq tuza olish mahoratidir.Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi eng qadimgi davrlardan beri ma'lum, u kishilar oʻrtasidagi oʻzaro aloqa ehtiyojiga koʻra yuzaga kelgan. Tabiiyki, tilning eng birinchi, balki bosh vazifasi uning kishilar oʻrtasidagi aloqa vositasi boʻlishidi. YO.Tojiyev va M.Mallabevning fikricha, "Til madaniyati, deganda, ana shu tildagi ifoda vositalarining ongli aralashish natijasida, hamma tushunadigan va qoʻllay oladigan darajaga keltirilganligi, ma'lum davr uchun mosligi, ishlatilish qonun-qoidalari va me'yorlarining qay darajada aniq va mukammal ishlanganligi, sayqal topganligi tushuniladi. Boshqacha aytganda, til madaniyati deganda, til birliklari (ajdodlar tomonidan ishlatishga toʻla yaroqli holga keltirib qoʻyilgan ifoda vositalari: tovushlar, soʻzlar, qoʻshimchalar, qoliplar kabilar) va ular imkoniyatlari taraqqiyotining, ular oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar hamda shu munosabatlarni ta'minlovchi qoidalarning ishlanish darajasi tushuniladi". "Qaysi tilda bu qonun-qoidalar past darajada ishlangan boʻlsa, oʻsha tilni madaniy til sifatida baholab boʻlmaydi. Til madaniyatining pastligi esa, oxir-oqibatda shu til vakillari nutq madaniyatining ham past boʻlishi uchun sabab boʻladi".

Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining oʻta muhim, ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeyligi, koʻrinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala, soʻzlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni oʻz ichiga oladi, ularni "boshqaradi", ular orqali voqelikka aylanadi, ta'sir qilish quvvatiga ega boʻladi. Nutq madaniyati tilni - aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga boʻlgan munosabatdir. Til vakillarida bu noyob qurolning imkoniyatlariga munosabat, uni ishlatishdagi omillar: tafakkur, ong, borliq, turli vaziyat va holatlar, maqsadga boʻlgan munosabat qanchalik yuqori saviyada boʻlsa, nutq madaniyati ham shunchalik yuqori saviyada boʻladi. Aksincha boʻlsa, unda nutq madaniyati ham past saviyada ham boʻlishi muqarrar.

Nutq madaniyati toʻgʻrisida gap borar ekan, tabiiyki, nutqsa soʻzlarning oʻrinli va oʻrinsiz ishlatilishi toʻgʻrisida ham bahs boradi. Qoʻllangan til birligini toʻgʻri yoki notoʻgʻri deyilganda, albatta, ma'lum bir oʻlchovga asoslanamiz. Mana shu oʻlchov tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi. Adabiy me'yor va nutq madaniyati mummolarini atroflicha tadqiq etgan E.Begmatov adabiy me'yorga xos 26 ta mezonni qayd etadi.

S.I.Ojegovning fikricha, "yuqori darajadagi nutq madaniyati -bu oʻz fikrini til vositalari orqali toʻgʻri, aniq va tasirchan qilib ifodalay bilish qobiliyatidir". Bunday qobiliyatga oʻz ona tilini chuqur sevish va xurmat qilish, uni mukammal bilish orqali

erishiladi. Shuning uchun ham har bir kishining madaniylik darajasi, oʻqib qanchalik tarbiya koʻrganligi uning yozma va ogʻzaki nutqidan bilinadi.

Bunday omillar sirasiga, masalan, quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Umuminsoniy qadriyatlarni hisobga olish.

2. An'anaviy urf-odatlarni yaxshi bilish va ularga amal qilish:

a) kattalarga hurmat va kichiklarga izzat koʻrsatish;

b) xotin-qizlarga alohida hurmatda boʻlish;

v) oiladagi tarbiyaviy muhit: er-xotin muomalasi, ota-onaning farzandlariga munosabati;

g) ustozlarning shogirdlariga munosabati va muomalasi;

d) rahbarlarning oddiy insonlarga munosabati;

e) qarindosh-urugʻlarning muomalasi;

3. Suhbatdoshlarning tafakkur doirasi, bilim saviyasi, dunyoqarashi.

4. Kishilarning ruhiy holati.

5. Jamiyatdagi ijtimoiy muhit: tinchlik, osoyishtalik, iqtisodiy rivojlanish, millatlararo totuvlik.

6. Milliy oʻzlikni anglash va boshqa millatlar vakillarini xurmat qilish kabilar.

Muloqot jarayoni til va yuqorida sanalgan tildan tashqari omillarning oʻzaro uygʻunligi natijasida yuzaga kelib, ulardan unumli va oqilona foydalanish muloqotning jonliligi, samimiyligi, samaradorligini ta'minlaydi. Hozirgi davrning eng muhim muammolaridan biri yuqorida qayd etilgan omillarga "ommaviy madaniyat"ning ta'siri tobora kuchayib boraveradi. Biz joimo bundan ogoh boʻlishimiz talab etiladi.

Ma'lumki, ijtimoiy munosabatlar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

Insonlarning kundalik muomala jarayoni, ya'ni soʻzlashuv nutqi. Bunda oila muhiti, koʻcha, bozor va boshqa joylardagi soʻzlashuv jarayoni nazarda tutiladi.

Ta'lim-tarbiya, ish yuritish, diplomatik munosabatlar jarayonidagi muloqot jarayoni, ya'ni rasmiy uslub nutqi. Ushbu jarayonda davlat tili qonun-qoidalariga asosan muloqot tashkil etiladi.

Ijtimoiy munosabatlarni olib borish, tashkil etishda ommaviy axborot vositalarining roli nihoyatda kattadir. Radio, televideniya, matbuot orqali tildan foydalanish natijasida insonlar faoliyati Hukumat va davlat manfaatlariga mos holda, yuksak maqsadlar sari yoʻnaltiriladi, ma'lum ma'noda boshqariladi. Aynan ana shu ommaviy axborot vositalari faoliyati orqali jamoatchilikning u yoki bu masala boʻyicha fikrlari shakllantiriladi. Bunda tilning imkoniyatlari katta. Tilning soʻz boyligidan ma'lum maqsadni koʻzlab foydalanish, soʻz va birikmalarni turli shakllarda koʻplab takrorlash orqali jamoatchilik diqqat-e'tibori ana shu masalaga qaratiladi, ommani ishontirishga harakat qilinadi. Ommaviy axborot vositalari orqali tarkatilgan axborot-ma'lumot ommani ishontiradi, natijada jamoatchi-likning ma'lum

qismida ishonch uyg‘onadi. Hozirgi paytda ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikning fikrini shakllantirishda ham ijobiy, ham salbiy jihatlar yuz bermoqda.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, til bir madaniyatni bekor qilish va dunyoni butunlay boshqa asosda qayta tashkil qilishning qudratli vositasidir. U.Saidovning yozishicha, «Til siyosiy qurolga aylanar ekan, bu «qurol»ni «ishlab chiqaruvchilar» hamda unga egalik qiluvchilarning bo‘lishi tabiiy».

Har bir mamlakat o‘z oliy maqsadlari sari ommani yo‘naltirishda ommaviy axborot vositalaridan «to‘rtinchi hokimiyat» sifatida foydalanadi. Buning natijasida tildan foydalanishdagi ijobiy va salbiy maqsadlar ayon bo‘lib qoladi. Tilning imkoniyatlaridan o‘z jirkanch maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanayotganlikni chuqur anglab etmaslik, tahlil qilib, tegishli to‘g‘ri xulosa chiqarmaslik og‘ir oqibatlarga olib kelishi, jamoatchi-likning asossiz qahr-g‘azabini uyg‘otishi mumkin.

Ijtimoiy munosabatlarni va jamoatchilik fikrini shakllantirishda O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining alohida o‘rni va etarli tajribasi bor. «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyat sari» insonparvar huquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadida O‘zbekistonda olib borilayotgan dono siyosatga mos tarzda ommaviy axborot vositalarida tildan, uning imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqsa. Bu holni siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa sohalar bo‘yicha olib borilayotgan siyosatning asl maqsadlari, natijalar, muammolar va ularning echimi aks etgan har bir material orqali aniq ko‘rish mumkin.

Tilning imkoniyatlaridan o‘rinli, asosli, maqsadli, mohirona foydalanish ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda, keng ommaga tushuntirish ishlarini olib borishda muhim o‘rin egallaydi. Keyingi yillarda axborot sohasini isloh qilish borasida katta yutukdarga erishildi. Matbuot materiallari, teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar saviyasi davr talabiga mos ravishda tubdan o‘zgardi. Jurnalistlarning axborot olish, ularni tahlil qilish, saralash, aholiga etkazish sohasida imkoniyatlarini yanada kengaytirish va ularning erkin ijod qilishlari uchun huquqiy asos -qonunlar hamda ularning ijrosi uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berildi. Natijada Uzbekiston ommaviy axborot vositalaridan barcha sohalar bo‘yicha ma'lumot ehtiyojlarini to‘la qondirish imkoniyati yuzaga keldi. Masalan, talaba yoshlarimiz ta'lim sohasidagi barcha ma'lumotlarni Ziyonet tarmog‘i orqali olishi mumkin. Uning bazasi kundan kunga kengayib bormokda.

Hozirgi globallashuv jarayonida internetning alohida o‘rni bor. Bugungi kunda internetdan foydalanuvchilar va unda turli maqolalarni, ma'lumotlarni e'lon qiluvchilar soni tobora ortib bormoqsa. Bu jarayon erkin fikr bildirish, tezkor ma'lumot tarqatish imkoniyatini beradi. Lekin, muammo shundaki, internet orqali, ko‘pincha, jamiyatimiz siyosati, milliy-ma'naviy qadriyatlarga mos kelmaydigan,

«ommaviy madaniyat»ni targ‘ib etuvchi materiallar ham e'lon qilinmokda. Bunday axborotlarning internetdan joy olmasligi uchun biror bir to‘siq hozircha yo‘q. Shuning uchun internetdan foydalanuvchilar, ayniqsa, yoshlarda ma'lumotlarni tanlab o‘kish, taxlil qilish, saralash, tanqidiy xulosa chiqarish, foydali axborotni o‘zlashtirish madaniyatini shakllantirishimiz zarur. Aks holda, «ommaviy madaniyat»ning bemalol yoshlar ongini zaharlashiga, ular ongidagi g‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirishiga, zararli oqimlar ta'siriga berilishi uchun imkoniyat yaratgan bo‘lamiz. Har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar ommaviy axborot vositalari orqali beriladigan xolis, haqqoniy axborot bilan internet ma'lumotini solishtira olishi, tegishli to‘gri xulosa chiqarishga zamin yaratishi zarur. Buning uchun ta'lim-tarbiya tizimi yagona ezgu maqsadni yoshlar ongiga singdirishga xizmat qiluvchi vositalardan keng foydalanish lozim.

Bunday tadbirlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Dars jarayonida O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘lini keng tushuntirish. Konferensiya, seminar trening, uchrashuv, suhbatlarni aniq ezgu maqsadlar mohiyatidan kelib chiqib, tegishli mavzularda tashkil etish(mas., diniy ekstremizm, giyohvandlik, missionerlik, jinoyatchilik, odam savdosiga qarshi kurash kabilar). Bu sohada universitetimizda izchil faoliyat olib borilmoqda. Bunday sa'y-harakatlarni susaytirmasligimiz lozim.

Internet ma'lumotlarini taxdil kilib, axborotni saralash, qayta ishlash, ob'ektiv xulosa chiqarish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashg‘ulotlar tashkil etish kabilar.

Yoshlar muomala madaniyati va ijtimoiy fikrini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining ayrim materiallaridan tanqidiy foydalanish madaniyatini ham shakllantirish lozim. Ayniqsa, ba'zi televideniya ko‘rsatuvlari va radio eshittirishlarda shevachilik elementlarining ko‘rinishlari mavjudligi yoshlar nutq madaniyatiga, adabiy tilni puxta o‘zlash-tirishlariga salbiy ta'sir etishini unutmaslik kerak. Yuqori nutq va muomala madaniyati yoshlar ijtimoiy fikrini shakllantirishda muhim omillardan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007, 18-33-6.
2. Tojiev YO., Mallaboev M. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari 1-qism Toshkent, 2006, 8-6.
3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. III - Toshkent, 1999 23-24-b.
4. Abdusaidov A. Nutq mahorati. - Samarqand, 2016, 62-6.
5. Abdusaidov A. Mustaqillik va O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari faoliyati Til, janr, mahorat. - Samarqand, 2016. - 204 6,
6. https://ziyo.uz/kb/item/07-077
7. https://mbu.uz/publikaczii/240.html

STREPTOKOKK AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARNING PATOGENLIK XUSUSIYATLARINING TAHLILI

Azzamov Ulug‘bek Azimovich
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi assistenti
Boltayev Komil Sultonuvich
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi katta o‘qituvchi (f.d.b.f.n)
Muhammadiyeva Muxlisa Zokirovna
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti pediatriya fakulteti 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7370500

Annotatsiya: Ushbu maqola streptokokkning asosiy turlari haqida ma’lumot beradi. Bu yerda asosiy turlari bu streptococcus pneumoniae ekanligini bilib oldik. Streptokokkning bu turi og‘ir kasalliklar: faringit, toshma va pnevmoniya kasalliklarini keltirib chiqarishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: S pneumonia, endokardit, karsinoma, nefritogen, pyoderma, gemolitik reaksiya, meningit, enterokokk, pleomorfizm, pnevmoniya, streptokinaza, flora.

Streptokokklar nomenklaturasi, ayniqsa tibbiyotda qo‘llaniladigan nomenklatura asosan turlarning nomlariga emas, balki hujayra devori komponentlarini serogruppa aniqlashga asoslangan. Bir necha o‘n yillar davomida qiziqish og'ir infektsiyalarni keltirib chiqaradigan ikkita asosiy turga qaratilgan: S pyogenes (A guruhi streptokokklar) va S pneumoniae (pnevmokokklar). 1984 yilda ikkita a'zoga yangi jins ajratildi - D guruhidagi enterokokk turlari (odamdagi enterokokk infektsiyalarining 98% ni tashkil qiladi) Enterococcus faecalis (odamning klinik izolatlarining aksariyati) va E faecium (antibiotiklarga chidamlilik qobiliyati bilan bog'liq) bo‘ldi.). So‘nggi yillarda streptokokklarning boshqa turlariga ko‘proq e'tibor qaratilmoqda. Qisman serogruppalash usullaridagi innovatsiyalar ushbu turlarning patogenetik va epidemiologik ahamiyatini tushunishda yutuqlarga olib keldi. Streptokokklar tomonidan turli xil hujayralar bilan bog'langan va hujayradan tashqari mahsulotlar ishlab chiqariladi, ammo ularning patogenezi bilan sabab-ta'sir aloqasi aniqlanmagan. Boshqa tibbiy ahamiyatga ega streptokokklarning ba'zilari yangi tug'ilgan chaqaloq kasalliklarining etiologik agenti bo‘lgan S agalactiae (B guruhi); E faecalis (D guruhi), endokarditning asosiy sababi va viridans streptokokklar. Ayniqsa viridans streptokokklari uchun taksonomiya va nomenklatura hali to‘liq ishonchli yoki izchil emas. Viridans streptokokklarining muhim a'zolari,

oddiy kommensallar, o‘z ichiga oladi S mutans va S sanguis (tish kariesida ishtirok etadi), S mitis (bakteremiya, meningit, periodontal kasallik va pnevmoniya bilan bog'liq) va " S milleri " (bolalar va kattalardagi yiringli infektsiyalar bilan bog'liq). " S milleri " bilan bog'liq doimiy taksonomik chalkashliklar mavjud. **Klinik ko‘rinishlari**: Odamlarda streptokokklar bilan bog'liq kasalliklar asosan nafas olish yo‘llari, qon oqimi yoki teri infektsiyalari sifatida yuzaga keladi. Inson kasalliklari ko‘pincha A guruhi streptokokklari bilan bog'liq. O‘tkir guruh A streptokokk kasalligi ko‘pincha nafas olish yo‘llari infektsiyasi (faringit yoki tonzillit) yoki teri infektsiyasi (pyoderma). Shuningdek, tibbiy jihatdan ahamiyatli bo‘lib, bakteriyalarning tarqalishi bilan bevosita bog'liq bo‘lmagan kech immunologik oqibatlardir. A guruhi infektsiyalari (respirator infektsiyadan keyingi revmatik isitma va nafas olish yo‘llari yoki teri infektsiyasidan keyin glomerulonefrit) butun dunyo bo‘ylab sog'liq uchun asosiy muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu oqibatlarning xavfi va mexanizmlarini aniqlashga, revmatogen va nefritogen shtammlarni aniqlashga ko‘p harakat qilinmoqda. S pnevmoniya jiddiy o‘choqli va tizimli infektsiyalarning asosiy sababi bo‘lib qolmoqda, Qo‘shma Shtatlarda jamiyat tomonidan orttirilgan pnevmoniya va rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘limga olib keladigan bakterial pnevmoniyaning birinchi eng keng tarqalgan sababi. Yaqinda Qo‘shma Shtatlarda ilgari sog'lom bolalarda S pneumoniae sepsis bilan bog'liq gemorragik shok haqida xabar berilgan. Streptokokkka qarshi xavfsiz va samarali vaksinalarga bo‘lgan qiziqish katta biologik ahamiyatga ega. **Tuzilishi**:S pyogenes ham , S pneumoniae ham gram-musbat kokklar, harakatsiz va sporasiz; ular odatda murakkab madaniyat vositalarini talab qiladi. S pyogenes xarakterli bo‘lib, diametri 0,6-1,0 mkm bo‘lgan yumaloq-ovoid kokkusdir. Ular bir tekislikda bo‘linadi va shuning uchun juft bo‘lib yoki (ayniqsa, suyuq muhitda yoki klinik materialda) turli uzunlikdagi zanjirlarda paydo bo‘ladi. S pneumoniae 0,5-1,25 mkm diplokokk shaklida namoyon bo‘ladi, odatda lansetsimon shaklga ega, lekin ba'zida morfologik jihatdan boshqa streptokokklardan ajratish qiyin. Kulturaning eng faol o‘sish davri bo‘lgan logarifmik fazadan kattaroq streptokokk kulturalari Gram-musbat bo‘yash xususiyatlarini yo‘qotishi mumkin. Stafilokokkdan farqli o‘laroq, barcha streptokokklarda katalaza fermenti yo‘q. Ko‘pchilik fakultativ anaeroblar, ba'zilari esa majburiy anaeroblardir. Streptokokklar ko‘pincha shilimshiq yoki silliq kolonial morfologiyaga ega va S pneumoniae koloniyalari tez qisman avtoliz tufayli yuzaga keladigan markaziy tushkunlikni namoyon qiladi. S pneumoniae kabi koloniyalar qariydi, peroksid to‘planishi tufayli katalaza va peroksidaza yo‘qligida fermentativ o‘sish jarayonida hayotiylik yo‘qoladi. Ba'zi B va D guruhlari streptokokklar pigment hosil qiladi. So‘nggi paytlarda qon, xo‘ppozlar, og'iz bo‘shlig'i va siydik yo‘llari yaralari kabi turli xil klinik manbalardan oziq-ovqat etishmovchiligi bo‘lgan streptokokklar tiklandi. Ushbu variantlar mikroskopik tarzda g'alati pleomorfizmni namoyish etadi va odatiy

subkulturada o‘smaydi. Tasnifi, antigen turlari va hujayradan tashqari o‘sish mahsulotlari:Qonli agarda ko‘rsatilgan gemolitik reaksiya turi uzoq vaqtdan beri streptokokklarni tasniflash uchun ishlatilgan. b-gemoliz koloniyani o‘rab turgan qizil qon hujayralarining to‘liq parchalanishi bilan bog'liq, a-gemoliz esa qizil qon tanachalari gemoglobinining kamayishi bilan bog'liq qisman yoki "yashil" gemolizdir. Gemolitik bo‘lmagan koloniyalar g-gemolitik deb ataladi. Gemolizga qizil qon hujayralarining turi va yoshi, shuningdek, asosiy muhitning boshqa xususiyatlari ta'sir qiladi. Tasniflashda gemolitik reaktsiyadan foydalanish to‘liq qoniqarli emas. Ba'zi A guruhi streptokokklar gemolitik bo‘lmagan ko‘rinadi; B guruhi a-, b- yoki hatto g-gemolizni namoyon qilishi mumkin. Viridans guruhi a-gemoliz xususiyati bilan bog'langan bo‘lsa-da, aslida Lancefield guruhlash sarumlari bilan reaksiyaga kirishmaydigan juda xilma-xil organizmlar guruhidir. Ushbu organizmlarning taksonomiyasi va biokimyoviy va genetik aloqalari aniqlanishda davom etmoqda. Antigen turlari: A guruhi streptokokklarining hujayra devori tuzilishi har qanday bakteriyalar orasida eng ko‘p o‘rganilgan. Hujayra devori standart peptidoglikan bo‘lgan N -atsetilglyukozamin va N-asetilmuramika kislotasining takrorlanuvchi birliklaridan iborat.S pyogenes kapsulasi gialuron kislotasidan iborat bo‘lib, u kimyoviy jihatdan xos biriktiruvchi to‘qimalariga o‘xshaydi va shuning uchun antigen emas. Bundan farqli o‘laroq, S pneumoniae ning antigenik reaktiv va kimyoviy jihatdan ajralib turadigan kapsulyar polisaxaridi bitta turni 80 dan ortiq serotiplarga ajratish imkonini beradi. Antifagotsitik S pneumoniae kapsulasi bu organizmlarning eng aniq tushunilgan virulent omilidir; Ko‘p miqdorda kapsulali material ishlab chiqaradigan 3-toifa S pneumoniae eng virusli hisoblanadi. Kapsülsiz S pneumoniae avirulentdir. S agalactiae tarkibidagi polisaxarid kapsulasi Ia, Ib, Ic, II va III turlarga ajratish imkonini beradi.Nihoyat, S pyogenesning sitoplazmatik membranasida odamning yurak, skelet va silliq mushaklari, yurak qopqog'i fibroblastlari va neyron to‘qimalariga o‘xshash antigenlar mavjud bo‘lib, molekulyar taqlid paydo bo‘ladi. O‘tkir Streptococcus pyogenes infektsiyalari faringit, skarlatina (toshma), impetigo, selülit yoki qizilo‘ngach shaklida bo‘lishi mumkin. Invaziv infektsiyalar nekrotizan fasiit, miyozit va streptokokk toksik shok sindromiga olib kelishi mumkin. Bemorlarda o‘tkir revmatik isitma va o‘tkir glomerulonefrit kabi immunitet bilan bog'liq oqibatlar ham rivojlanishi mumkin. S agalactiae yangi tug'ilgan chaqaloqlarda meningit, neonatal sepsis va pnevmoniyaga olib kelishi mumkin; kattalarda vaginit, puerperal isitma, siydik yo‘llari infektsiyasi, teri infektsiyasi va endokardit bo‘lishi mumkin. Viridans streptokokklari endokarditga olib kelishi mumkin, Enterokokklar esa siydik yo‘llari va o‘t yo‘llari infektsiyalari bilan bog'liq. Anaerob streptokokklar qorin, tos, miya va o‘pkaning aralash infektsiyalarida ishtirok etadi.**Tasnifi va antigen turlari**:Streptokokklar koloniya morfologiyasi, gemoliz, biokimyoviy reaktsiyalar va (eng aniq) serologik

o‘ziga xoslik asosida tasniflanadi. Ular qonli agarda gemolizning turi bo‘yicha uch guruhga bo‘linadi: b-gemolitik (qizil hujayralarning tiniq, to‘liq parchalanishi), a gemolitik (tugallanmagan, yashil gemoliz) va g gemolitik (gemolizsiz). Serologik guruhlash hujayra devori uglevodlari (A dan V guruhlari), hujayra devori pili bilan bog‘langan oqsil va B guruhi streptokokklarida polisaxarid kapsulasidagi antigenik farqlarga asoslanadi. **Patogenez:** Streptokokklar oddiy floraning a'zolaridir. A guruhi streptokokklarining viruslilik omillariga (1) M oqsili va biriktirish uchun lipoteikoik kislota; (2) fagotsitozni inhibe qiluvchi gialuron kislotasi kapsulasi; (3) qizil olovda toshma paydo bo‘lishiga olib keladigan pirojenik (eritrogen) toksin kabi boshqa hujayradan tashqari mahsulotlar; va (4) streptokinaz, streptodornaza (DNase B) va streptolizinlar. Ba'zi shtammlar nefritogen xususiyatga ega. Immunitet bilan bog'liq oqibatlar bakteriyalarning tarqalishini aks ettirmaydi. Guruh bo‘lmagan A shtammlari aniqlangan virulentlik omillariga ega emas.**Diagnostika**:Tashxis klinik namunalardan olingan madaniyatlarga asoslanadi. Serologik usullar A yoki B guruhi antijenini aniqlashi mumkin; Antigenni aniq aniqlash presipitin testi orqali amalga oshiriladi. Bacitracin sezgirligi taxminiy ravishda A guruhini boshqa b-gemolitik streptokokklardan (B, C, G) ajratib turadi; B guruhi streptokokklar odatda hippurat gidrolizini ko‘rsatadi; D guruhi boshqa viridans streptokokklaridan safro eruvchanligi va optoxin sezgirligi bilan ajralib turadi. O‘tkir glomerulonefrit va o‘tkir revmatik isitma anti-streptokokk antikor titrlari bilan aniqlanadi. Bundan tashqari, o‘tkir revmatik isitma klinik mezonlarga ko‘ra tashxis qilinadi.**Boshqaruv**:Streptokokk faringitini penitsillin bilan tezda davolash antijenik stimulni kamaytiradi va shuning uchun glomerulonefrit va o‘tkir revmatik isitmaning oldini oladi. Enterokokklar orasida vankomitsinga qarshilik paydo bo‘lgan mikrobial tahdiddir. Vaktsinalar ishlab chiqilmoqda.

Streptococcus pneumonia: Klinik ko‘rinishlari:S pneumoniae pnevmoniya, meningit va ba'zan yashirin bakteriemiyani keltirib chiqaradi. Tuzilishi: Pnevmokokklar lansetsimon, katalaza manfiy, kapsula hosil qiluvchi, a-gemolitik kokklar yoki diplokokklardir. Safro tuzlarini qo‘shish orqali avtoliz kuchayadi. Tasnifi va antigen turlari: S pneumoniae ning 85 dan ortiq antijenik turlari mavjud bo‘lib, ular kapsula antijeni bilan aniqlanadi. Lancefield guruhi antigeni yo‘q. Patogenez: S pneumoniae - nafas yo‘llari florasining oddiy a'zosi; invaziya pnevmoniyaga olib keladi. Eng yaxshi aniqlangan virulentlik omili bakteriyani fagotsitozdan himoya qiluvchi polisakkarid kapsulasidir. Himoyalanish:Infeksiyadan himoyalanish normal mukosiliar to‘siq va buzilmagan fagotsitar va T-mustaqil immun javoblarga bog'liq. Turga xos kapsulaga qarshi antikor himoya hisoblanadi. Epidemiologiya: Pnevmokokk pnevmoniya ko‘pincha keksa, zaiflashgan yoki immuniteti zaif odamlarda uchraydi. Kasallik ko‘pincha oldingi virusli infektsiya nafas yo‘llarining kirpikli epiteliysiga zarar etkazgandan keyin boshlanadi; Shuning

uchun kasallanish qishda eng yuqori darajaga etadi. Diagnostika: Tashxis balg'amning Gram bo‘yashiga va kulturaga asoslangan; qon yoki miya omurilik suyuqligi ham yetishtirilishi mumkin. Kapsulyar antigenni serologik usulda aniqlash mumkin. Pnevmokokklar viridans streptokokklaridan suskun (kapsulyar shishish) reaktsiyasi, o‘tning eruvchanligi va optoxinning inhibisyonu bilan ajralib turadi.

Hujayra antigenlari	Antikor	Klinik talqini
M protein	M (protein)	Turiga xos immunitet beradi. Ba’zi antigenlar yurak mushagi sarkolemmasi bilan o‘zaro ta’sir qiladi.
A guruhidagi uglevodlar	(A CHO guruhi)	Infektsiyadan keyin sekin javob
Gialuron kislotasi kapsulasi	Yo‘q	Antigenik emas
Streptolizin O	Antistreptolizin O (ASO)	Ko‘pgina A guruhi infektsiyalaridan keyin ko‘payadi, teri infektsiyalariga qaraganda tomoq uchun ishonchliroq
Deoksiribonukleaza A, B, C, D	Anti-DNase B	Teri infektsiyalari uchun eng foydali test, tomoq infektsiyalari uchun ham ishonchli; anti-DNase A va C mos kelmaydi
Gialuronidaza	Antigialuronidaza	Ko‘pgina A guruhi infektsiyalaridan keyin kuchayadi
Streptokinaza	Antistreptokinaz (ASK)	Ko‘pchilik A guruhi infektsiyalaridan keyin kuchayadi; streptokinaz A B ga qaraganda tez-tez uchraydi
Nikotinamid adenin dinukleotidaza	Anti-NADase (anti-DPNase)	Tomoqdan keyin teri infektsiyalariga qaraganda yaxshiroq javob berish; A, C va G guruhlari streptokokklar uchun keng tarqalgan
Proteinaz	Antiproteinaz	Antikorlar A guruhi bilan infektsiyadan keyin oz miqdorda paydo bo‘ladi
Eritrojenik toksinlar A, B va C	Antieritrojenik toksin	Toksin qizil olovda toshma hosil qiladi; Immunitet yoki sezuvchanlik uchun Dik teri testi

Boshqa streptokokk turlari (Lancefield guruhidagi streptokokklar) Streptokokklarning B, C va G guruhlari dastlab hayvonlarning patogenlari sifatida tan olingan va oddiy inson florasining bir qismi sifatida. So‘nggi paytlarda bu A guruhi bo‘lmagan streptokokklarning ayrimlarining odamlar uchun patogen salohiyati aniqlandi. B guruhi streptokokklar, sigir mastitining asosiy sababi, neonatal

septitsemiya va meningitning asosiy sababi bo‘lib, homilador ayollar va ularning chaqaloqlarida kasalliklarning klinik spektrini sezilarli darajada o‘zgartiradi. To‘liq tug'ilgan chaqaloqlarda o‘lim darajasi 2-8% ni tashkil qiladi, lekin erta tug'ilgan chaqaloqlarda taxminan 30% ni tashkil qiladi. Erta boshlangan neonatal kasallik (sepsis, meningit va pnevmoniya bilan bog'liq ≤ 6d hayot) onadan vertikal ravishda uzatiladi; kech boshlangan (≥ 7 kundan 3 oygacha) meningit gorizontal ravishda, ba'zi hollarda nozokomial infektsiya sifatida olinadi. B guruhi organizmlari keksa bemorlarda pnevmoniya bilan ham bog'langan. Ular oddiy og'iz va vaginal floraning bir qismi bo‘lib, kattalardagi siydik yo‘llari infektsiyasi, xorioamnionit va endometrit, teri va yumshoq to‘qimalar infektsiyasi, osteomielit, meningit, fokussiz bakteriemiya va endokarditda ham ajratilgan. OIV bilan kasallangan bemorlarda infektsiya har qanday yoshda bo‘lishi mumkin.C va G guruhlari streptokokklari engil, shuningdek, og'ir inson kasalliklari bilan bog'liq. Ushbu guruhlarning hech biri o‘tkir revmatik isitma yoki o‘tkir glomerulonefrit bilan bog'liq emas. D guruhidagi streptokokklar siydik yo‘llari infektsiyalari va o‘t yo‘llari protseduralari bilan bog'liq infektsiyalarning, shuningdek, tarqalgan infektsiya, bakteriemiya va endokardit holatlarining muhim etiologik agentlari hisoblanadi. Streptococcus bovis bakteriemiyasi ichak kasalliklarida ko‘proq tan olingan.F guruhi streptokokklar xo‘ppoz shakllanishi va yiringli kasallik bilan bog'liq. R guruhidagi streptokokklar, cho‘chqalarda meningit va septitsemiyaning yaxshi hujjatlashtirilgan sabablari, shuningdek, cho‘chqa go‘shti sanoati xodimlarining sog'lig'iga jiddiy xavf tug'diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Koykendall AL. Viridans streptokokklarining tasnifi va identifikatsiyasi. Clin Microbiol Rev. 1989; 2:315–328.
2. Dillon HC. Pyodermadan keyin streptokokkdan keyingi glomerulonefrit. Rev Infec Dis. 1979; 1:935–943.
3. Kaplan EL. Asrning oxirida revmatik isitma va revmatik yurak kasalliklarini global baholash. Aylanma. 1993 yil; 88:1964–1972.
4. McCracken G. Chidamli *Streptococcus pneumoniae* paydo bo‘lishi: pediatriya muammosi. Pediatr. Yuqtirish. Dis. J. 1995 yil; 14:424–428.
5. Ruoff KL. *Streptococcus anginosus ("Streptococcus milleri"*). Noma'lum patogen. Klin. Mikrobiol. Rev. 1988; 1:102–108.
6. Stivens DL, Tanner MH, Winship J. va boshqalar. Toksik shokga o‘xshash sindrom va skarlatina toksini bilan bog'liq bo‘lgan og'ir A guruhi streptokokk infektsiyalari A. N Engl J Med. 1989; 321:1–8.

7. Tanz RR, Poncher JR, Corydon KE. va boshqalar. A guruhi streptokokklarining surunkali faringeal tashishini klindamitsin bilan davolash. J. Pediatr. 1991 yil; 119:123–128.

8. Wannamaker LW. A guruhi streptokokklari biologiyasi va streptokokk infektsiyalari epidemiologiyasidagi o‘zgarishlar va o‘zgaruvchan tushunchalar. Rev Infect Dis. 1979; 1:967–973.

9. Wessels MR, Kasper DL. B guruhi streptokokk kasalligining o‘zgaruvchan spektri.N Engl J Med. 1993 yil; 328:1843–1844.

10. Bisno AL.Tibbiy taraqqiyot: A guruhi streptokokk infektsiyalari va o‘tkir revmatik isitma. N. Engl. J. Med. 1991 yil; 325:783–793.

OQDARYO ATROFIDA O‘SUVCHI O‘TCHIL O‘SIMLIKLAR VA DARAXTLAR NEMATODAFAUNASINING QIYOSIY O‘RGANISH

Boltayev Komil Sultonovich
B.f.n(f.d) Sam DTU, Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi katta o‘qiuvchisi. O‘zbekiston. Samarqand
boltayevkomilsultonovich@gmail.com
Jo‘rayev Abdulloh Shavkat o‘g‘li
SAMDTU 2-kurs davolash fakulteti talabasi
abdullohjurayev914@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7370513

Annotatsiya: Ilmiy tatqiqotimizning asosiy maqsadi Zarafshon to‘qay biotoplarida o‘suvchi yovvoyi shakar qamish ildizi va ildiz atrofi (rizosfera) nematodafaunasini shu biotopda o‘suvchi daraxtlar (qora tol) nematodafaunasi bilan taqqoslab, o‘xshashlik darajasini Mauntford umumiylik ko‘rsatgichi bo‘yicha 25,81 ga teng ekanligi qayd etildi. Shuningdek, yovvoyi shakar qamish va jumrutsimon chakanda o‘simliklarining ildizi va ildiz atrofi tuprog‘ida uchragan nematodalarning taqqoslaganimizda, ular orasida bir-biridan keskin farq borligi namoyon bo‘ldi. Natijalar Mauntford umumiylik ko‘rsatgichi bo‘yicha hisoblanganda 12,14 ekanligi qayd etildi.

Kalit so‘zlar: fitonematoda, fauna, avlod, oila, turkum, tur, evribiont, kserofil, mezofil, gigrofil, qora tol, shakar qamish, jumrutsimon chakanda parazit nematodalar, patogen, rizosfera. Mauntford umumiylik ko‘rsatgichi.

Kirish. O‘zbekistonda fitogelmintlarning biologiyasi, sistematikasi, faunasi, parazit turlarining o‘rganish sohasida juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Fitonematologiyaning asosiy vazifasi o‘simlik va tuproq nematodalarining biogeotsinozdagi o‘rni tuproq biotasiga kiruvchi boshqa turli organizmlar bilan ularning o‘zaro aloqalarini o‘rganishdan iboratdir.

Fitonematodalar madaniy o‘simliklarning hosildorligiga katta zarar yetkazibgina qolmay, shu bilan birga ularga bir qator virus, zamburug‘ va bakteriyalar qo‘zg‘atuvchi kasalliklarning yuqtirishda ham faol ishtirok etadilar. Ayrim vaqtlarda fitogelmentlarning qishloq xo‘jalik ekinlariga yetkazgan zarari 20% ni tashkil etadi.

Hozirgi davrgacha respublikamiz va xorijiy mamlakatlarning fitogelmintologlari tomonidan juda ko‘p o‘simliklarning ildizi va uning atrofidagi tuproqda yashovchi nematodalarning tarkibi keng miqyosida o‘rganilgan bo‘lsada, ammo to‘qay o‘simliklari fitonematodalarining ekologiyasini kompleks holatda tekshirish mutlaqo nazardan chetda qolgan edi. Shuni qayd qilish kerakki, ko‘pchilik parazit tur

fitonematodalar to‘qay o‘simliklarini o‘sish tezligini susaytiradi, barglarining qurishiga sababchi bo‘ladi va ayrim tur o‘imliklarning shu landshaftlarda yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Material va metodlar O‘simliklarning ildiz qismini Y.S. Kiriyanova va E.L.Krall (1969) uslubi bo‘yicha ko‘zdan kechirib chiqdik.

Namunalarni olish vaqtida o‘simliklarning tashqi ko‘rinishi, fiziologik holati, tuproq va havoning harorati, namligi, sug‘orish usullari, tuproq xillari va boshqa omillar hisobga olinadi.

Fitogelmintalogiya o‘simlik va tuproqdan nematodalarning ajratib olishning eng qulay usullaridan biri bo‘lib, Berman uslubiyati hisoblanadi. Bu uslubdan foydalanish tartibi quyidagilardan iborat: 9-12 sm diametrli shisha voronka olib, uning cho‘ziq tomoniga 10-15 sm uzunlikdagi rezinka nay kiygiziladi, rezinkaning ochiq uchini qisib Mor qisqich bilan qisib qo‘yiladi. Voronka rezina nay bilan yog‘och shtativga tik shaklda o‘rnatiladi. Tekshirish uchun olingan har bir o‘simlikning ildizi va ildiz atrofi tuprog‘i alohida - alohida tahlil qilindi. To‘plangan o‘simlik ildizlari birma – bir toza suvda yuviladi, 0,5 sm kattalikda maydalab qirqiladi so‘ngra yaxshilab aralashtiriladi. Hosil bo‘lgan qorishmadan o‘rtacha miqdorda 10 gr dan namuna olinadi.Xuddi shunday qilib tuproq namunlari ham 10 gr hajmda olinadi.Namunalar kapron yoki sim to‘r ustiga solinib, voronka suviga botirib qo‘yiladi.O‘simlik to‘qimalaridan va tuproq orasidan ajralib chiqqan nematodalar kapron to‘r orqali suvga chiqib qisqich oldida to‘planadi.Nematodalarning to‘liq ajralib chiqishi uchun 25-35 gradus selsi haroratda 12-18 soat yetarli hisoblanadi.Cho‘kmaga tushgan nematodaning asl nusxasini saqlash uchun 4-5 % formalin suyuqligiga o‘tqaziladi.Nematodalarning tur tarkibini aniqlash uchun doimiy mikropreparatlari tayyorlanadi.

Doimiy mikropreparatlar quyidagi usulda tayyorlandi: MBS-1 markali binokulyar yordamida formalinda saqlangan nematodalarni juda nozik igna bilan 96 % spirt va glitserin (1:1) aralashmasiga o‘tkazildi.Buning uchun bir tomchi glitserin-jelatinni buyum shishasi ustiga solib, asta-sekin isitildi va unga binokulyar ostida nozik igna bilan 5-6 tadan nematodalar o‘tkazildi hamda yopqich shishacha bilan ustidan qoplandi . Shundan so‘ng preparatdagi glitserin jelatinni bir me’yorda tarqalishi uchun bir oz isitib olindi. Preparatdagi glitserin-jelatin qotgach buyum shishasining ostki tomonida nematodalarning joylashgan o‘rinlarini tush yordamida belgilab chizildi. Buyum shishasining ustki ikki tomoniga nematodalar haqidagi ma’lumotlar yozildi. Bir tomonida o‘simlikning nomi, ho‘jalik atamasi, namuna olingan davri va yig‘gan kishining nomi yozildi. Ikkinchi tomoniga fitonematoda turning nomi va jinsi ko‘rsatildi.

Jumladan, yovoyi shakar qamish va oddiy qizilmiya nematodafaunasining o‘xshashlik darajasi Mauntford (Mauntford, 1962) umumiylik ko‘rsatgichi bo‘yicha quyidagi formula bilan hisoblab chiqildi.

$$J = \frac{2\,j}{2 \times a \times b - (a+b) \times j} 1000$$

Bu yerda J – umumiy indeksi, j – solishtirilayotgan o‘simliklardagi umumiy bo‘lgan turlarning soni, a x b – solishtirilayotgan har bir o‘simlik turida uchragan nematoda turlarining soni.

Tatqiqot natijalari

Yovvoyi shakar qamish va qora tol o‘simliklari ildizi va ildizi atrofidagi tuprog‘ida uchragan nematodalarning o‘shashlik darajasini taqqoslash natijasida quyidagi ma’luotlar olindi: yovvoyi shakar qamish ildizi va ildiz atrofi tuprog‘ida jami bo‘lib 64 turga mansub 3490 ta nematoda qayd qilingan bo‘lsa, qora tolda 62 turga oid 4053 ta nematoda aniqlandi. Bu ikki o‘simlikning o‘xshashlik darajasini Mauntford umumiylik ko‘rsatkichi bo‘yicha taqqoslaganimizda quyidagi natijalar olindi:

$$J = \frac{2 \times 39}{2 \times 64 \times 62 - (64+62) \times 39} \times 1000 = 25{,}81$$

Yovvoyi shakar qamish va uchragan turlarning 39 tasi umumiy bo‘lib, o‘xshashlik darajasi 25,81 ga teng ekanligi aniqlandi. Yovvoyi shakar qamish va qora tol o‘simliklarining ildizi va ildizi atrofi tuprog‘i uchun quyidagi turlar umumiy bo‘ladi:

Criconemoides pullus, Aglenchus Agricola, Filenchus orbus, F. polyhypnus, Lelenchus, discerepans, Ditylenchus triformis, Aphelenchus avenae, Aphelen-choides parietinus, Protorhabditis xylocola, Mesorhabditis monhystera, Panagrolaimus armatus, P. lonicaudatus, P. subelongadus, Heterocephalobus elongates, H. latus, Cepnalobus parvus, Cepphalobus persegnis, Eucephalobus mucronatus, Eucephalobus oxyuroides, Acrobelodes labiatus, A.nanus, Acrobeles cylindricus, Ac. Ctenocephalus, Cervidellus hamatus, Prismatolaimus dolichurus, Mononchus truncates, Longidorella parva, Tylencholaimus proximus, Leptonchus obtusus, Aporcelaimellus obtusicaudatis, Paraxondvium lactficans, Eudorylaimus minutes, Alaimus jaulasali.

Yovvoyi shakar qamish va qora tol o‘simliklarining nematodafaunasini turkumlar bo‘yicha taqqoslaganimizda ular bir-biridan keskin farq qilishi ma’lum bo‘ldi (1-jadval). Jumladan yovvoyi shakar qamishda *Tylenchida* turkumidan 19 turga oid 767 nematoda (21,9%) aniqlangan bo‘lsa, qora tol ildizi va ildiz atrofi tuprog‘ida 24 turkumga mansub 1836 nematoda (45, 2%) qayd qilindi. *Rhabditida* turkumi vakillaridan yovvoyi shakar qamish ilidizi va ildiz atrofi tuprog‘ida 26 turga

oid 1500 nematoda (42,9%) aniqlangan bo‘lsa, qora tolda 21 turga oid 989 nematoda (24,4%) aniqlandi

Araelaimida turkumi vakillaridan yovvoyi shakar qamishda *Plectus parie-tinus* turiga 7 nematoda (0,2%) qayd qilindi. Qora tol ildizi atrofi tuprog‘ida *Proteroplectus longicaudatus* turiga oid 2 ta nematoda (0,04%) aniqlanadi. *Chromadorida* turkumi vakillari uchramadi, qora tolda esa *Achromadorida ruricola, A. terricola, A. nax, Microlaimus dlobiceps* turlariga oid 872 nematoda (21,5%) qayd qilindi. *Enoplida* turkumidan *Prismatolaimus dolichurus* turiga oid 1 nematoda (0,02%) yovvoyi shakar qamish ildizi atrofi tuprog‘ida 5 ta nematoda esa (0,1%) qora tol ildizi atrofi tuprog‘ida uchradi. *Mononchida* turkumi vakillaridan yovvoyi shakar qamish ildizi atrofi tuprog‘ida 8 ta (0,2%), qora tolda 9 ta (0,2%) *Mononchus truncatus* qayd qilindi. *Dorylaimida* turkumi vakillaridan yovvoyi shakar qamish ildizi va ildizi atrofi tuprog‘ida 16 turga mansub 1174 ta nematoda (33,6%), terakda 11 tur 411 ta nematoda (11,4%) aniqlandi.

Yovvoyi shakar qamish va jumrutsimon chakanda o‘simliklarining ildizi va ildiz atrofi tuprog‘ida uchragan nematodalarning taqqoslaganimizda, ular orasida bir-biridan keskin farq borligi namoyon bo‘ldi. Yovvoyi shakar qamish 64 turga oid 3490 nematoda, jumrutsimon chakandada 93 turga mansub 4811 nematoda qayd qilinib, shulardan 37 tur ikkala o‘simlik uchun ham umumiy bo‘lib, Mauntford umumiylik ko‘rsatgichi bo‘yicha hisoblanganda quyidagi natijani berdi:

$$J = \frac{2 \times 37}{2 \times 64 \times 93 - (64 + 93) \times 37} \times 1000 = 12{,}14$$

Yovvoyi shakar qamish va jumrutsimon chakanda o‘simliklari uchun quyidagi turlar umumiy bo‘ldi:

Criconemoides pullus, Aglenchus costatus, Filenchus orbus, Ditylenchus triformus, Aphelench avenae, Aphelenchoides dactylocercus, Aph. parietinus, Aph. sacchari, Aph. saprophilus, Aph. scalacaudatus, Aph. subparietinus longicaudatus, P. rigidus, Heterocephalobus elongatus, E. oxyuroides, E.striatus. Acrobeloides labiatus, A. nanus, Acrobeles cylindricus, Cervidellus hamatus, Plectus parietinus, Prismatolaimus dolichurus, Mononchus truncates, Mesodorylaimus musae, Longidorella parva, Tylencholaimus proimus, Leptonichus obtusus, Aporcelaimellus obtusicaudatus, Eudorylaimus monohystera, E. muchabbatae, E. paracbtusicaudatus. Yovvoiy shakar qamish va jumrutsimon chakanda o‘simliklarining ildizi hamda ildizi atrofi tuprog‘ida uchragan nematodalarni turkumlar bo‘yicha taqqoslash natijalari quyidagichadir: *Tylenchida* turkumi vakillaridan yovvoyi shakar qamish ildizi va uning atrofi tuprog‘ida 19 tur 767 nematoda (21,9%), jumrutsimon chakanda ildizi va ildizi atrofi tuprog‘ida 34 tur mansub 2546 nematoda (52,9%) qayd qilindi. *Rhabditida* turkumi vakillaridan yovvoyi shakar qamish ildizi va ildiz atrofi tuprog‘ida 26 turga oid 1500 nematoda (42,9%), jumrutsimon chakandada 32 turga

mansub 1737 nematoda (35,1%) qayd qilindi. *Araeolamida* turkumi vakillaridan yovvoyi shakar qamish ildizi atrofi tuprog‘ida *Plectus parietinus*, turiga oid 7 nematoda (0,2%), chakanda ildiz atrofi tuprog‘ida 4 turga oid 21 nematoda (0,4%) qayd qilindi. Bular *Plectus geophilus, P. parietinus*, *Proteroplectus inguirendus*, *Pr. Longicaudatus* va *Rhabditida* avlodiga oid lichinkalardan iboratdir. *Chromadorida* turkumi vakillari yovvoyi shakar qamishda uchramadi, jumrutsimon chakanda ildizi atrofi tuprog‘ida esa bu turkumdan. *Microlaimus globiceps* turiga oid 2 nematoda (0,04%) uchradi. *Enoplida* turkumi vakillaridan vakillari yovvoyi shakar qamish ildiz atrofi tuprog‘ida *Prismatolaimus dolichurus* turiga oid 1 ta nematoda (0,02%), jumrutsimon chakanda ildizi atrofi tuprog‘ida *Prismatolaimus dolichurus*, *P. intermededius* turlariga mansub 12 nematoda (0,2%) qayd qilindi. *Mononchida* turkumi vakillaridan yovvoyi shakar qamish ildizi atrofi tuprog‘ida faqat *Mononchus truncatus* turiga doir 8 nematoda (0,2%), jumrutsimon chakanda ildizi atrofi tuprog‘ida esa *Mononchus truncatus, Clarus papillatus* va *Mylonchulus lacustrius* turlariga mansub 11 ta nematoda (0,2%) topildi. *Doryimida* turkumi vakillaridan yovvoyi shakar qamish ildizi va ildizi atrofi tuprog‘ida 16 turga tegishli 1174 nematoda (33,6%), jumrutsimon chakandada 18 turga mansub 502 nematoda (10,4%) aniqlandi. (1-jadval)

Zarafshon vohasi to‘qayzor o‘simliklarida uchragan nematodalarni turkumlar bo‘yicha taqsimlanishi

(1-jadval)

Turkumlar	Yovvoyi shakar qamish			Qora tol			Chakanda		
	turlar soni	nema-toda soni	% hi-sob-laydi	turlar soni	nema-toda soni	% hi-sob-laydi	turlar soni	nema-toda soni	% hi-sob-laydi
1.Tylenchida	19	767	21,97	24	1836	45,29	34	2564	52,92
2. Rhabditida	26	1500	42,97	21	989	24,4	32	1737	36,1
3. Aracolaimida	1	7	0,2	1	2	0,04	4	21	0,43
4. Chromadorida	_	_	_	4	872	21,51	1	2	0,04
5.Enoplida	1	1	0,02	1	5	0,12	2	12	0,24
6.Monanchida	1	8	0,22	1	9	0,22	2	11	0,22
7.Dorylaimida	16	1174	33,63	10	338	8,33	18	502	10,43
Jami:	64	3490	100	62	4053	100	93	4811	100

Xulosa. Shunday qilib, jumrutsimon chakanda ildizi va ildizi atrofi tuprog‘ida *Tylenchida*, *Rhabditida* turkumi vakillari ko‘p, yovvoyi shakar qamish ildizi va ildizi atrofi tuprog‘ida oz miqdorda uchrab, *Dorylaimida* turkumi vakillari esa aksincha yovvoyi shakar qamishda ko‘p miqdorda, chakandada nisbatan kamroq uchradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болтаев К.С., Жамалова Ф.А., Мамарасулова Н.И. Экологическое группирование нематодофауны тугайных растений . Вестник Хорезмской академии Маъмуна.№5 (79) 2021. 33-37 стр.

2.Замотайлов А. С. Фитогельминтология: курс лекций для обучения по программам подготовки научно-педагогических кадров в аспирантуре – 35.06.01 Сельское хозяйство, направленность (профиль) – Защита растений / сост.. – Краснодар: КубГАУ, 2015. – 70 с.

3. Рахматова М.У., Бекмурадов А.С. Результаты изучения распространения фауны фитонематод гранатовых агроценозов Сурхандарьинской области Узбекистана // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. 2018. № 11 (53).

4. Хуррамов Ш.Х. Нематоды субтропических плодовых культур Средней Азии и меры борьбы с ними // - Ташкент.: Фан. 2003. С. 1-333.

5. Vahidova A. M, Boltaev K. S., Jamalova F. A., Muratova Z. T., Bobokandova M. F. Nematodofauna of Retain Plants and Their Seasonal Dynamics. 2021.

6. Rossouw J., van Rensburg L., Claassens S., van Rensburg P. J. Jansen. Nematodes as indicators of ecosystem development during platinum mine tailings reclamation. The Environmentalist. 2008. Vol. 28. Issue 2. P . 99–107.

7. Tomar V. V. S., Ahmad W. Food web diagnostics and functional diversity of soil inhabiting nematodes in a natural woodland. Helminthologia. Vol. 46, 2009.Issue 3. P

8. Boltaev K.S., Mamedov A.N. Comparative study of ecological groups of hippohaerhamnoidesPhytonematoids growing in the zarafshan oasis // Galaxy international interdisciplinary research journal. – 2021. - № 9(9). P. 101-104.

9. https://doi.org/10.5281/zenodo.7305057

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРИ ИЧКИ АУДИТИ

Х.Исканов
ТМИ кафедра доценти в.б.
А.Норқучқоров
ТМИ катта ўқитувчиси
А.Болиев
ТМИ магистранти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7370948

Аннотация: Мазкур мақолада бюджет ташкилотлари томонидан тузиб тақдим этиладиган молиявий ҳисоботлар, уларнинг таркиби, молиявий ҳисоботларни шакллантириш ва тақдим этишнинг назарий-услубий масалалари баён қилинган. Молиявий ҳисоботларни тузиш ва тақдим этиш тартибига риоя қилиш билан боғлиқ ички аудит жараёнида ўрганилиши зарур бўлган жиҳатлар келтирилган. Молиявий ҳисоботларнинг ахборот имкониятларини оширишда ички аудит хизматининг ўрни ва ролини кучайтириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: ахборот, бюджет ташкилоти, ички аудит, молиявий ҳисобот, ҳисобот даври.

Аннотация: В данной статье рассмотрены финансовые отчеты, составляемые и представляемые бюджетными организациями, их состав, а также теоретические и методологические вопросы формирования и представления финансовых отчетов. Перечислены аспекты, которые необходимо изучить в процессе внутреннего аудита, связанные с соблюдением порядка составления и представления бухгалтерской отчетности. Освещены вопросы усиления места и роли службы внутреннего аудита в повышении informatsionnых возможностей финансовой отчетности.

Ключевые слова: информация, бюджетная организация, внутренний аудит, финансовая отчетность, отчетный период.

Abstract: This article describes the financial reports prepared and presented by budget organizations, their composition, and the theoretical and methodological issues of forming and presenting financial reports. Aspects that need to be studied in the internal audit process related to compliance with the procedure for the preparation and presentation of financial statements are listed. Issues of strengthening the place and role of the internal audit service in increasing the information capabilities of financial reports are highlighted.

Key words: information, budget organization, internal audit, financial reporting, reporting period.

Кириш

Иқтисодиётининг ривожланиши ва аҳоли фаровонлигини таъминлашда нафақат, хусусий сектор, балки, бюджет тизими ҳам муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Бюджет тизими давлатнинг жамият олдидаги вазифаларини бажариш ва хизматлар кўрсатиш, иқтисодиётни рағбатлантириш, тартибга солиш ва назорат қилиш, аҳоли бандлигини таъминлаш каби қатор нотижорат фаолиятларни молиялаштиришни амалга ошириш мақсадларида хизмат қилади.

Халқаро валюта жамғармасининг 2020 йил апрель ойидаги ҳисоботида келтирилган маълумотларга эътибор қаратадиган бўлсак, «пандемия ва глобал иқтисодий инқироз шароитида ривожланган мамлакатлар давлат харажатларини ялпи ички маҳсулот (ЯИМ)нинг 40 фоизига қадар оширганлигини кўришимиз мумкин. Бюджет ташкилотларининг катта қисми ижтимоий соҳада фаолият юритиши аҳоли бандлигини таъминлашда юқори потенциалга эга иш берувчи ҳисобланиб, уларни молиялаштиришни кенгайтириш ижтимоий ва иқтисодий барқарорликни таъминлашга хизмат қилади»[30].

Республикамизда бюджет тизимини ислоҳ этишда «бюджет ҳисоби тартибини Давлат секторида халқаро молиявий ҳисобот стандартларига (IPSAS) уйғунлаштириш»[31], халқаро стандартлар талабаларидан келиб чиқиб бюджет ижросига оид ахборотларнинг очиқлигини таъминлаш, бюджет тизимида маблағларнинг сарфланиши бўйича ҳисобдорликни кучайтириш, бюджет ижроси жараёнида замонавий ахборот тизимларини қўллаш кўламини кенгайтириш, аудит тадбирларини кенгайтиришни талаб этмоқда.

Адабиётлар таҳлили

Бюджет ташкилотларининг молиявий ҳисоботларини тузиш, тақдим этиш ҳамда ички аудитининг назарий ҳамда услубий асосларини яратиш ва уни такомиллаштириш бўйича бир қатор хорижлик иқтисодчи олимлар илмий тадқиқотлар олиб борган. Andreea Cirstea давлат секторида молиявий ҳисоботларни консолидация қилишнинг зарурлиги, хусусиятлари муаммолари бўйича тадқиқот олиб борган ҳамда халқаро стандартлар асосида консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузишни такомиллаштириш юзасидан таклифлар ишлаб чиққан[32].

Fernando Belfo бухгалтерия ҳисоби ахборот тизимида анъаналар ва ривожлантириш йўналишларида тадқиқот олиб борган. Анъанавий бухгалтерия

[30] International Monetary Fund (IMF). 2020. Fiscal Monitor: Policies to Support People During the COVID-19 Pandemic. Washington, April

[31] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 августдаги «Бюджет маълумотларининг очиқлигини ва бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3917-сон Қарори

[32] Andreea Cîrstea. The Need for Public Sector Consolidated Financial Statements. Procedia Economics and Finance. Volume 15, 2014, Pages 1289-1296.

ҳисобини рақамли технологиялар ёрдамида ривожлантириш орқали молиявий ҳисоботларнинг ахборот таъминоти кенгайтириш юзасидан таклифлар берган[33].

Мамлакатимиз иқтисодчи олимларидан С.У.Меҳмонов бошчилигидаги олимлар бюджет ташкилотларини молиялаштириш манбалари бўйича молиявий ҳисоботларни тузиш ва тақдим этишнинг назарий масалаларини ёритган[34].

А.Остонокулов “бюджет ташкилотларида мол етказиб берувчилар ва харидорлар билан ҳисоб китоблар жараёнини ўрганиш орқали бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботлар кўрсаткичларини шакллантиришнинг хусусиятлари”[35]ни очиб берган. Мол етказиб берувчи ва харидорлар билан ҳисоблашувлар ҳисоби ҳамда ҳисоботини рақамли технологиялар орқали такомиллаштиришга оид таклифлар ишлаб чиққан.

А.Туйчиев, А.Остонокулов, К.Ибрагимов ва А.Турсуновлар бюджет ташкилотларида молиявий ҳисоботлар, уларнинг таркиби, молиявий ҳисоботларни тузишнинг назарий масалалари, молиявий ҳисоботларни тақдим этишнинг даврийлиги, ахборот кўрсаткичлари, молиявий ҳисоботларнинг ўзаро боғлиқлиги каби жиҳатларни очиб берган[36].

З.Хамидова бюджет ташкилотларида ички аудит ва молиявий назорат хизматлари фаолиятининг назарий асослари, услубий масалалари, амалий жиҳатлари тадқиқ этилган. Бюджет ташкилотларида ички аудит ва молиявий назоратни самарали ташкил этишни ривожлантириш масалаларини очиб берган[37].

Таъкидлаш зарурки, юқоридаги иқтисодчи олимларнинг илмий асарларида айнан бюджет ташкилотларида молиявий ҳисоботларнинг ички аудити алоҳида тадқиқот объекти сифатида кенг эътибор қаратилмаган ҳамда амалдаги меъёрий ҳужжатларнинг бюджет тизимини ислоҳ қилиш шароитига мувофиқ ўзгариб бориши ушбу соҳада чуқур илмий изланишлар олиб бориш лозимлигидан далолат беради.

Тадқиқот усуллари

Тадқиқот давомида иқтисодий воқелик жараёнларини ўрганишнинг илмий усуллари - кузатиш, танлаш, умумлаштириш, гуруҳлаштириш, таққослаш, таҳлилнинг мантиқий ва таққослама усуллари, индуксия ва дедуксия, абстракт-

[33] Fernando Belfo, Antonio Trigo Accounting Information Systems: Tradition and Future Directions. Procedia Technology. Volume 9, 2013, Pages 536-546.

[34] Меҳмонов С.У., Кулибоев А.Ш. Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармалари ҳисоби. Ўқув қўлланма, «Иқтисод-молия» 2018. 186 б.

[35] Ostonokulov Azamat Abdukarimovich. Improving Accounting of settlements with Suppliers and Buyers in Public Sector Institutions. American Journal of Economics and Business Management. ISSN: 2576-5973. Vol. 4, № 2, 2021.

[36] Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. (2019) "Budget Accounting in Budget Organizations" Textbook, "ECONOMICS-FINANCE" p.429.

[37] Хамидова З.У. Бюджет ташкилотларида ички аудит ва молиявий назорат хизматлари фаолиятини самарали ташкил қилиш масалалари. Монография. – Т.: “VNESHINVESTPROM” 2021. 183 б.

мантиқий фикрлаш, қиёсий таҳлил, истиқболли прогнозлаш, монографик кузатув ва бошқа усуллардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар

Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини юритишнинг асосий мақсади бюджет ташкилотининг барча хўжалик муомалаларини расмий равишда ҳисобда акс эттириш ва маълум бир даврларда фойдаланувчиларга зарурий ахборотларни етказиб бериш ҳисобланади. Бунда, фойдаланувчиларга тақдим этиладиган ахборотлар молиявий ҳисобот шаклида тақдим этилади.

Молиявий ҳисоботларнинг мақсади бюджет ташкилотининг молиявий аҳволи, унинг фаолияти ва пул маблағлари ҳаракати бўйича маълумот беришдан иборат бўлиб, у фойдаланувчиларнинг кенг гуруҳига иқтисодий қарорлар қабул қилиш ҳамда таҳлил қилишлари учун зарурдир.

Молиявий ҳисобот борасида изланиш олиб борар эканмиз дастлаб, унинг туб мазмунига эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ. «Молиявий ҳисобот – бухгалтерия ҳисоби субъектининг ҳисобот санасидаги молиявий ҳолати, ҳисобот давридаги фаолиятининг молиявий натижаси ва пул маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги тизимлаштирилган ахборотдан иборатдир»[38].

Ҳар қандай шакл ва мазмундаги ахборотлар ёки маълумотлар молиявий ҳисобот саналмайди. Молиявий ҳисобот маълум бир давр учун қатъий белгиланган шакл асосида ўзаро боғлиқликдаги кўрсаткичларни тизимлаштириб тугалланган ахборот кўринишида тақдим этилади.

«Молиявий ҳисобот ташкилотда хўжалик муомалалари хусусияти ва моҳияти жиҳатидан уларни гуруҳларга тузилмавий бирлаштириш натижаси ҳисобланади»[39]. Умумлаштириш ва тасниф қилиш жараёнининг якуний босқичи бу туркумларга ажратилган жуда қисқа ахборотни тақдим этишдир. Чунки, молиявий ҳисоботлар банд сифатида ва изоҳларда берилган бўлади. Молиявий ҳисоботлар, шунингдек, ташкилот имкониятларини раҳбарият томонидан бошқарилишини амалга ошириш натижаларини ҳам кўрсатади.

«Молиявий ҳисоботни тузиш ва ундаги ахборотларни шакллантириш билан боғлиқ умумқабул қилинган принцип (тамойил)лар мавжуд. Яъни, молиявий ҳисобот ва унинг кўрсаткичлари узлуксизлик, ишончлилик, кўрсаткичларнинг қиёсланувчанлиги»[40] каби принцип (тамойил)лар асосида шакллантирилган бўлиши зарур.

Молиявий ҳисоботдаги кўрсаткичлар биринчи навбатда, узлуксиз тарзда юритилган ҳисоб маълумотлари асосида шакллантирилиши зарур. Иккинчидан, молиявий ҳисобот кўрсаткичлари бюджет ташкилоти фаолияти давомийлигига

[38] Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни (2016 йил 13 апрель, ЎРҚ-404-сон)
[39] Каримов А.А. ва бошқалар. Бухгалтерия ҳисоби: Дарслик. Т.: Шарқ. 2004. 230-б.
[40] Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни (2016 йил 13 апрель, ЎРҚ-404-сон)

параллел ҳолда даврий бир-бирини тўлдириши ва узвий боғланган бўлиши шарт. Шундагина, молиявий ҳисоботнинг ахборотлари ишончли саналиб, уларни тўғри таҳлил қилиш орқали бошқарув қарорларини қабул қилиш ва прогноз кўрсаткичларини шакллантириш мумкин бўлади.

Молиявий ҳисобот кўрсаткчилари бухгалтерия ҳисобининг аналитик ва синтектик ҳисоб маълумотлари билан асосланиши, ҳисобот давридаги барча муомалаларнинг ҳужжатлаштирилганлиги ва ҳисобда тўлиқ акс эттирилганлиги, ҳисоб объектларининг ҳаққоний баҳоларда ифодаланганлиги унда келтирилган ахборотларнинг ишончлилигини таъминлайди. Бухгалтерия ҳисоби ва бюдджет ижросига оид қонунчилик ҳамда бюджет ҳисоби стандартлари ҳам молиявий ҳисоботларни ушбу принцип (тамойил) асосида тузиш зарурлигини белгилайди.

Кўрсаткичларнинг қиёсланувчанлиги. Молиявий ҳисоботларда келтириладиган кўрсаткичларнинг вақт нуқтаи назаридан узлуксизлиги уларнинг даврий ўзгаришини таққослаш ёки қиёслаш орқали таҳлил қилиш имконини беради. Шунингдек, молиявий ҳисобот шаклларидаги кўрсаткичларнинг ўзаро мувофиқлиги ёки бир-бири билан боғлиқлиги ҳисобот давридаги маълум бир кўрсаткичнинг бошқа кўрсаткчиларга таъсирини таққослаш ёки қиёслаш натижасида уларнинг ўзгаришини таҳлил қилишга шароит яратади.

Бюджет ташкилотларида маблағларнинг шаклланиш манбалари ва уларнинг сарфланиш йўналишлари, амалга оширилган ҳисоб-китоблар ҳамда маблағларнинг ҳаракати билан боғлиқ ўзгаришлар тўғрисидаги ахборотларни вақти-вақти билан фойдаланувчиларга молиявий ҳисобот шаклида тақдим этиш талаб қилинади. Негаки, ташкилотларнинг маблағлардан фойдаланиш ҳолатини ўрганиш, уларни бошқариш, назорат қилиш, таҳлил ва прогноз қилишда ишончли ахборотларга эҳтиёж сезилади. Ахборотларга бўлган ушбу эҳтиёж бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва юритиш ҳамда молиявий ҳисоботларни тузиш орқали таъминланади.

«Бюджет ташкилотлари давлат функсияларини амалга ошириш учун белгиланган тартибда давлат ҳокимияти органларининг қарорига кўра ташкил этилиб, Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан сақлаб туриладиган нотижорат ташкилот ҳисобланади. Бюджет ташкилотларини молиялаштириш шартлари ҳамда уларнинг бюджет ҳисобини юритиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан белгиланади»[41].

Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳаракати тўғрисидаги молиявий ҳисоботларнинг шакллари, уларни тузиш ва тақдим

[41] Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси (2013 йил 26 декабрь, ЎРҚ-360-сон)

этиш тартиби ҳамда муддатлари ҳам молия органи томонидан белгиланган тартиб асосида амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонунига кўра, «бюджет ташкилотларининг бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботини тартибга солиш бюджет ҳисоби стандартлари ҳамда бошқа қонун ҳужжатлари асосида амалга оширилади»[42].

Бюджет ташкилотлари томонидан бюджетдан ташқари маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботлар ва бошқа ҳисобот шакллари «Бюджет ташкилотлари ва бюджет маблағлари олувчиларнинг даврий молиявий ҳисоботларини тузиш, тасдиқлаш ҳамда тақдим қилиш бўйича қоидалар» асосида белгиланган тартибда тузиб тақдим этилади.

«Бюджет ташкилотлари учун 1 январь — 31 декабрь календарь йили йиллик молиявий ҳисоботнинг ҳисобот давридир. 1 январдан бошлаб даврий молиявий ҳисобот тузилаётган даврнинг ҳисобот санасини ҳам қамраб олган давр календарь йил мобайнида тузиладиган даврий молиявий ҳисобот учун ҳисобот давридир. Бюджет ташкилотлари чораклик молиявий ҳисоботлари ҳисобот йилининг 1 апрель, 1 июль ва 1 октябрь ҳолатига, йиллик молиявий ҳисоботлар эса, келгуси ҳисобот йилининг 1 январь ҳолатига кўра тузилади»[43].

«Бюджет ташкилотлари ва бюджет маблағлари олувчиларнинг даврий молиявий ҳисоботларини тузиш, тасдиқлаш ҳамда тақдим қилиш бўйича қоидалар»га асосан «бюджет ташкилотларининг молиявий ҳисоботлари таркиби баланс (1-сон шакл), молиявий фаолият натижалари тўғрисида ҳисобот, харажатлар сметасининг ижроси ҳақидаги ҳисобот (2-сон шакл), дебиторлик ва кредиторлик қарзлар тўғрисидаги маълумот, бюджет ташкилотини ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот, тиббиёт ташкилотларининг моддий рағбатлантириш ва ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот, таълим муассасаларида ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот, бошқа бюджетдан ташқари маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот, товар-моддий захиралар ва номолиявий активлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот, бюджет ташкилотини чет эл валюта маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот». Мазкур ҳисоботлар тақдим қилиш даврийлигидан келиб чиқиб, чораклик ва йиллик ҳисоботларга ажратилади.

1-жадвал

[42] Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни (2016 йил 13 апрель, ЎРҚ-404-сон)
[43] Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси (2013 йил 26 декабрь, ЎРҚ-360-сон)

Бюджет ташкилотлари томонидан тақдим этиладиган молиявий ҳисоботлар таркиби ва уларнинг даврийлиги[44]

№	Молиявий ҳисобот	Чораклик	Йиллик
1.	Баланс (1-сон шакл)	+	+
2.	Харажатлар сметасининг ижроси ҳақидаги ҳисобот (2-сон шакл)	+	+
3.	Дебиторлик ва кредиторлик қарзлар тўғрисидаги маълумот	+	+
4.	Бюджет ташкилотини ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот	+	+
5.	Тиббиёт ташкилотларининг моддий рағбатлантириш ва ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот	+	+
6.	Таълим муассасаларида ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот	+	+
7.	Бошқа бюджетдан ташқари маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот	+	+
8.	Жорий йилнинг молиявий натижалари тўғрисидаги ҳисобот		+
9.	Номолиявий активлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот		+
10.	Бюджет ташкилотини чет эл валюта маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот	+	+

Жадвалдан кўришимиз мумкинки, йиллик молиявий ҳисоботлар таркибига баланс (1-сон шакл); харажатлар сметасининг ижроси ҳақидаги ҳисобот (2-сон шакл); дебиторлик ва кредиторлик қарзлар тўғрисидаги маълумот; бюджет ташкилотини ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот; тиббиёт ташкилотларининг моддий рағбатлантириш ва ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот; таълим муассасаларида ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот; бошқа бюджетдан ташқари маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот; Жорий йилнинг молиявий натижалари тўғрисидаги ҳисобот; номолиявий активлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот;

[44] Муаллифлар томонидан тузилган

бюджет ташкилотини чет эл валюта маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботлар киради.

Чоралик молиявий ҳисоботлар таркибига эса, баланс (1-сон шакл); харажатлар сметасининг ижроси ҳақидаги ҳисобот (2-сон шакл); дебиторлик ва кредиторлик қарзлар тўғрисидаги маълумот; бюджет ташкилотини ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот; тиббиёт ташкилотларининг моддий рағбатлантириш ва ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот; таълим муассасаларида ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот; бошқа бюджетдан ташқари маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот; бюджет ташкилотини чет эл валюта маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботлар киради.

Бюджет ташкилотини ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот бюджет ташкилотлари томонидан ҳисобот даври мобайнида ҳисобот чорагининг сўнгги иш куни охирида харажатлар сметаси бўйича тежалган маблағлар, фаолият ихтисослиги бўйича товарларни (ишларни, хизматларни) реализатсия қилишдан олинадиган даромадлар, бюджет ташкилоти балансида турган мол-мулкни ижарага беришдан олинган маблағларнинг бир қисми, белгиланган тартибда бюджет ташкилотлари тасарруфида қолдирилган маблағлар, ҳомийликдан олинган маблағлар ҳаракатини акс эттириш лозим.

«Бюджет ташкилотини ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот шаклини тузишдан олдин ташкилотлар:

ҳисобот чорагининг сўнгги иш куни охирида харажатлар сметаси бўйича тежалган маблағлар;

фаолият ихтисослиги бўйича товарларни (ишларни, хизматларни) реализатсия қилишдан олинган даромадлар;

бюджет ташкилоти балансида турган мол-мулкни ижарага беришдан олинган маблағларнинг бир қисми;

белгиланган тартибда бюджет ташкилотлари тасарруфида қолдирилган маблағлар;

ҳомийликдан олинган маблағларга доир дастлабки ҳужжатларнинг тўлиқлигини шахсий ғазна ҳисобварақлардан (ҳисоб рақамлардан) олинган кўчирмаларни ва тегишли ҳисоб регистрлари маълумотларининг тўғрилигини текшириб чиқиши зарур»[45].


«Тиббиёт ташкилотларининг моддий рағбатлантириш ва ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботни тузишдан олдин тиббиёт ташкилотлари:

[45] «Бюджет ҳисоботи» номли 3-сон Бюджет ҳисоби стандарти (2019 йил 18 январь, 3124-сон)

тиббиёт ташкилотларининг моддий рағбатлантириш ва ривожлантириш жамғармаси маблағларининг шаклланиш манбалари ва сарфланишига доир бирламчи ҳужжатларнинг тўлиқлигини;

шахсий ғазна ҳисобварақлардан (ҳисоб рақамлардан) олинган кўчирмаларни ва бошқа тегишли ҳисоб регистрларини текшириб чиқиши зарур»[46].

Таълим муассасаларида ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот таълим ташкилотларидаги ўқитишнинг тўлов-контракт бўйича тушган маблағлар ҳаракати тўғрисидаги маълумотларни акс эттириш учун мўлжалланган.



1-расм. Бюджет ташкилотлари молиявий ҳисоботларини тузишда бажарилиши зарур бўлган амаллар[47]

Таълим ташкилотлари мазкур ҳисоботни тузишдан олдин ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган маблағларнинг шаклланиши ва сарфланишига оид барча дастлабки ҳужжатларнинг тўлиқлиги; аналитик ҳисоб маълумотларининг тегишли синтетик ҳисоб маълумотларга мувофиқлиги; тегишли ҳисоб регистрлари маълумотларининг тўлиқ ва тўғри акс эттирилганлигини текшириб чиқиш зарур.

«Бошқа бюджетдан ташқари маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот қуйидаги бюджетдан ташқари маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги маълумотларни умумлаштириш ва таҳлил қилиш учун мўлжалланган:

Пенсия жамғармасининг ижтимоий нафақаларни тўлаш учун маблағлари;

ўтган йиллар дебиторлик қарзларининг тушган суммаси;

мактабгача таълим ташкилотларида болалар таъминоти учун ота-оналардан тушадиган тушумлар;

мактабдан ташқари муассасаларда болалар таъминоти учун ота-оналардан тушадиган тушумлар (мусиқа ва санъат мактаблари);

[46] «Бюджет ташкилотлари ва бюджет маблағлари олувчиларнинг даврий молиявий ҳисоботларини тузиш, тасдиқлаш ҳамда тақдим қилиш бўйича қоидалар». 2018 йил 26 декабрь, 2971-сон

[47] Муаллифлар томонидан тузилган

ходимлардан, улар ишлаётган жойида овқатланганлиги бўйича ҳисоб-китоблардан тушадиган тушумлар;

мактаб-интернатлар ва лицейларда болаларнинг таъминоти учун ота-оналардан тушадиган тушумлар;

вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг бюджетдан ташқари жамғармалари;

умумтаълим ташкилотларида дарсликлар ижараси тўловидан тушган бюджетдан ташқари маблағлар;

капитал қўйилма маблағлари бўйича депозитлар;

турғун даволаш-профилактика ташкилотларида даволанаётган беморлардан овқатланиш учун ундириладиган тўловлар;

тақсимланиши назарда тутилган тушумлар;

бошқа таълим ташкилотларида (шу жумладан, баркамол авлод марказлари) болалар таъминоти учун ота-оналар тўлайдиган тўловлар;

бошқа маблағлар бўйича депозитлар;

грантлар, инсонпарварлик ёрдами ва техник кўмаклашиш воситалари;

кредит ва ссудалар»[48].

Ҳисоботни тузишдан олдин бюджет ташкилотлари қуйидагиларни текшириши керак:

ҳисобот чораги мобайнидаги барча мазкур бюджетдан ташқари маблағларининг шаклланиш манбалари ва сарфланишига доир бирламчи ҳужжатларнинг тўлиқлигини;

шахсий ғазна ҳисобварақлардан (ҳисоб рақамлардан) олинган кўчирмаларни ва бошқа тегишли ҳисоб регистрларини.

Бюджет ташкилотларида молиялаштириш манбалари турлари ва уларнинг ҳажмларидан қатъий назар ягона баланс шакллантирилади. Балансда ҳисобот йили бошига ташкилотнинг маблағлари ва унинг манбалари ҳолати келтирилиб, уларнинг ҳисобот даври давомидаги ўзгаришлари натижасида ҳисобот даври охиридаги ҳолати тўғрисида ахборотлар берилади. Мазкур ахборотлар ташкилот айнан ҳисобот даври бошидаги ҳолати билан ҳисобот даври охиридаги ҳолатни таққослаш орқали таҳлил қилиш имконини беради.

Хулоса ва таклифлар

Бюджет ташкилотларининг молиявий ҳисоботлар шакллари ва уларни тузиш тартиби, ҳисоботларнинг таркиби ва кўрсаткичларнинг шакллантирилиши, ҳисоботларнинг даврийлиги, тақдим қилиш тартиби ва муддатлари Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан белгиланади.

[48] «Бюджет ташкилотлари ва бюджет маблағлари олувчиларнинг даврий молиявий ҳисоботларини тузиш, тасдиқлаш ҳамда тақдим қилиш бўйича қоидалар». 2018 йил 26 декабрь, 2971-сон

Бюджет ташкилотлари ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати, тиббиёт ташкилотларининг моддий рағбатлантириш ва ривожлантириш жамғармасининг пул маблағлари ҳаракати, таълим муассасаларида ўқитишнинг тўлов-контракт шаклидан тушган маблағлар ҳаракати, бошқа бюджетдан ташқари маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот шакллари ташкилотлар томонидан тузилади ҳамда молия органига тақдим этилади.

Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисоботлар ўз номланиши жиҳатдан пул маблағлари ҳаракатига асосланган ҳолда тузилади. Ҳисобот шакллари асосида бюджетдан ташқари маблағларнинг йил бошига қолдиғи, ҳисобот даври давомидаги пул маблағлари тушумлари ва уларнинг таркиби, ҳисобот давридаги касса харажатлар, яъни пул маблағларининг сарфи ва уларнинг таркиби, ҳисобот даври якунидаги пул маблағлари қолдиғига оид ахборотларни очиб беришга қаратилган. Шу билан бирга, ҳисобот шакллари таркибида харажатларнинг тасдиқланган режаси, ҳисобот давридаги амалга оширилган ҳақиқий харажатлар тўғрисида ҳам кўрсаткичлар шакллантирилади.

Ҳисобот шаклларидаги ахборотларнинг имкониятларини таҳлил қилиш натижасида бюджетдан ташқари пул маблағлари ҳаракатига оид кўрсаткичлар, яъни ҳисобот йили бошига пул маблағлари қолдиғи, ҳисобот давридаги пул маблағлари тушуми ва сарфи, ҳисобот даври охиридаги пул маблағлари қолдиғини ўзаро боғлиқликда ўрганиш ва таҳлил қилиш мумкин. Ҳисоботда келтирилган ҳисобот давридаги ҳақиқий харажатлар ва касса харажатлар кўрсаткичларини таққослаш орқали ҳар бир харажат гуруҳлари ва турлари бўйича дебиторлик ва кредиторлик мажбурятларнинг ҳолатини таҳлил қилиш имконияти мавжуд.

Бюджетдан ташқари маблағлар ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот шакллари пул маблағлари ҳаракатига асосланган бўлсада, унда бир вақтнинг ўзида даромадлар ва харажатларни тан олиш бўйича бухгалтерия ҳисобининг касса ва ҳисоблаш методлари элементини кўриш мумкин. Пул маблағларининг тушуми ва сарфланиши (касса харажатлар) касса методига хос жиҳат ҳисобланса, ҳақиқий харажатларга оид кўрсаткичлар бевосита ҳисоблаш методига хос жиҳат саналади.

Шу ўринда алоҳида қайд этиш керакки, бир ватқнинг ўзида ҳисоботда харажатларга оид касса ва ҳақиқий харажатлар кўрсаткичлари мавжуд. Аммо, даромадларга оид кўрсаткичлар мавжуд эмас, балки, ҳисоботларда пул маблағларининг тушумлари бўйича ахборотлар шакллантирилади. Бу эса, бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳаракатига оид

ҳисобот шакллари номлари ҳамда улардаги ахборотлар билан боғлиқ услубий жиҳатларни такомиллаштириш зарурияти мавжудлигидан далолат беради.

Бюджет қонунчилигига кўра, бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармалари бюджет тизими бюджетлари таркибига киритилади. Шу сабабдан ҳам, бюджет маблағларини тақсимловчилар, худудий молия органлари ва республика миқёсида бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағларига оид молиявий ҳисобот кўрсаткичларини умумлаштириш орқали жамланма ахборотларни шлакллантириш зарурияти мавжуд.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси (2013 йил 26 декабрь, ЎРҚ-360-сон)
2. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни (2016 йил 13 апрель, ЎРҚ-404-сон)
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 августдаги «Бюджет маълумотларининг очиқлигини ва бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3917-сон Қарори
4. «Бюджет ташкилотлари ва бюджет маблағлари олувчиларнинг даврий молиявий ҳисоботларини тузиш, тасдиқлаш ҳамда тақдим қилиш бўйича қоидалар». 2018 йил 26 декабрь, 2971-сон
5. «Бюджет ҳисоботи» номли 3-сон Бюджет ҳисоби стандарти (2019 йил 18 январь, 3124-сон)
6. Интернационал Монетарй Фунд (ИМФ). 2020. Фиссал Монитор: Полисиес то Суппорт Пеопле Дуринг тҳе СОВИД-19 Пандемис. Вашингтон, Април
7. Андреea Cîрстеа. Тҳе Неед фор Публис Сестор Консолидатед Финансиал Статементс. Проседиа Эсономисс анд Финансе. Волуме 15, 2014, ПаГЭС 1289-1296.
8. Фернандо Белфо, Антонио Триго Ассоунтинг Информатион Сйстемс: Традитион анд Футуре Дирестионс. Проседиа Течнологй. Волуме 9, 2013, ПаГЭС 536-546.
9. Каримов А.А. ва бошқалар. Бухгалтерия ҳисоби: Дарслик. Т.: Шарқ. 2004. 230-б.
10. Меҳмонов С.У., Кулибоев А.Ш. Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармалари ҳисоби. Ўқув қўлланма, «Иктисод-молия» 2018. 186 б.
11. Остонокулов Азамат Абдукаримович. Импровинг Ассоунтинг оф сеттлементс witҳ Супплиерс анд Буйерс ин Публис Сестор Институтионс.

Американ Жоурнал оф Эсономисс анд Бусинесс Манагемент. ИССН: 2576-5973. Вол. 4, № 2, 2021.

12. Туйчийев А.Ж., Остонокулов А.А., Ибрагимов К.Ш., Турсунов А.С. (2019) "Будгет Ассоунтинг ин Будгет Организатионс" Техтбоок, "ЕСОНОМИСС-ФИНАНСЕ" п.429.

13. Хамидова З.У. Бюджет ташкилотларида ички аудит ва молиявий назорат хизматлари фаолиятини самарали ташкил қилиш масалалари. Монография. – Т.: “ВНЕШИНВЕСТПРОМ” 2021. 183 б.

ОИЛА ҲАМЖИҲАТЛИГИ – ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИ ГАРОВИ

Мавсума Йўлдошева
Хоразм вилоят судининг судьяси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7370954

Аннотация: Ушбу мақолада судлар томонидан оилавий мунасабатларни тартибга солиш, суд амалиёти, процессуал ҳаракатлар, уларни ҳуқуқий оқибати ва судлар томонидан Оила кодекси нормаларини қўллашнинг ўзи хос ҳусусиятлари ҳақида қисқача баёни келтирилган.

Калит сўзлар: судлар, даъвогар, жавобгар, оила, эр-хотин, тенг ҳуқуқлилик, никоҳ, маҳалла, статистик маълумотлар, суднинг қарори.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва Оила кодексида оилавий муносабатларда аёл ва эркакнинг тенг ҳуқуқлилиги белгилаб қўйилган.

Ўтган йилларда мамлакатимизда давр талабига кўра, оила билан боғлиқ 50 тага яқин қонун, Президентимизнинг 20 дан ортиқ фармон, қарор ва фармойишлари, Вазирлар Маҳкамасининг 80 дан ортиқ қарор ва фармойишлари қабул қилинди.

Инсон оилада туғилиб, вояга етади, яхши ва ёмон кунларини ўз ичига олган умри оилада кечади.

Оила мустаҳкам бўлса, оила аъзолари тинч-тотув яшаса, жамиятда ҳам барқарорлик ва ҳамжиҳатлик бўлади, оилада ўсиб-улғаяётган фарзандлар ҳар томонлама камолга етишишига замин яратилади.

Азал-азалдан халқимиз томонидан оила – муқаддас даргоҳ сифатида эътироф этилган.

Бироқ, барча эр ва хотинларнинг ҳам ўзаро оилавий турмушлари давомидаги ҳаётлари бир маромда кечмайди.

Агар оила нотинч бўлса, бунда эр-хотин, айниқса вояга етмаган фарзандлар ҳар томонлама жабр кўради.

Жамият аъзоларининг ўзаро оилавий муносабатларининг барча турлари ҳам қонунга мувофиқ тартибга солинмоқдами?

Фуқаролик ишлари бўйича туманлараро судлари томонидан никоҳдан ажрашиш остонасидаги оилаларни яраштириш, оилаларни сақлаб қолишни суднинг энг муҳим вазифаси деб ҳисоблаган ҳолда ишлар олиб борилмоқда.

Фуқаролик ишлари бўйича туманлараро судларига нотинч оилалардан 2022 йилнинг 10 ойи давомида никоҳдан ажратиш ҳақидаги 2 мингдан ортиқ даъво аризалар келиб тушган, ушбу ҳолат шунча оилада нотинч ва носоғлом муҳит мавжудлигини билдиради.

Эр-хотиннинг никоҳдан ажратилиши, оилаларни барбод бўлиши оқибатида асосан аёллар ҳамда ушбу оилаларда туғилган, мурғаклигиданоқ нотинчлик қурбони бўлган вояга етмаган, миллатимизнинг келажаги бўлган жондан азиз фарзандларимиз жабр кўради, улар жуда эрта ота ёки онанинг меҳридан, моддий таъминотидан жудо бўлади, баъзи ҳолларда турар жойсиз қолади. Вояга етмаган болаларнинг моддий таъминоти учун уларнинг ота ёки онасидан бир томоннинг аризасига кўра суд тартибида улар вояга етгунларига қадар алимент ундирилади, лекин болаларнинг қалбидаги энди отасиз ёки онасиз яшаш натижасида олган жароҳатини бу дунёдаги бирор нарса билан тузатишнинг имкони мавжуд эмас.

2022 йилнинг 10 ойи давомида Хоразм вилоят суди фуқаролик ишлари бўйича туманлараро судларига никоҳдан ажратиш ҳақидаги даъво аризаларга асосан юритилган ишлар сони 2098 тани ташкил этган, шундан 1322 та даъво ариза қаноатлантирилган, яъни шунча иш бўйича судлар даъво талабларини чуқур ўрганиб чиқиб, эр-хотинга Ўзбекистон Республикаси Оила Кодексига асосан, яраштириш учун муҳлат берилганидан кейин ҳам улар ярашмаганликлари туфайли ушбу оилалар барбод бўлган деб ҳисоблаб қаноатлантирган, шунингдек 580 та никоҳдан ажратиш ишлари бўйича оилада эр-хотинни яраштириш имкони мавжуд деб топилиб, рад қилинган, яъни бу нотинч оила суд ҳамда хотин-қизлар қўмитаси, маҳалла яраштирув комиссияси ходимларининг сайъи-ҳаракатлари билан яраштирилган, қолган қисми бўйича эр-хотинлар ўзаро ярашганликлари боис, даъво аризалар иш юритишдан тугатилган.

Оила-турмуш доирасидаги низоларни камайтириш ҳамда нотинч оилаларни ўз вақтида аниқлаб, уларга ижтимоий, маънавий ва ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш, тарбиявий таъсир чораларини кўрсатиш мақсадида оилалардаги муҳитни яхшилаш учун судья ва суд ходимлари маҳалла фаоллари, хотин-қизлар масалалари бўйича мутахассислар, профилактика инспекторлари кенг жамоатчилик, яъни ушбу маҳаллардаги намунали, бой ҳаётий тажрибага эга бўлган фахрий ва нуронийларни жалб қилган ҳолда ҳамкорликда тизимли ишлар олиб боришни такомиллаштириш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар: Оила кодекси, Фуқаролик процессуал кодекси, Фуқаролик кодекси.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ - ЭКОНОМИСТОВ УЗБЕКИСТАНА

Рамазанова Роза Абиловна
преподаватель ТГЭУ
https://doi.org/10.5281/zenodo.7371056

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные проблемы современного русского языка, связанные с обучением языку специальности иностранных студентов экономического профиля. Проблема данной статьи обусловлена появлением в настоящее время различных методик в преподавании языка специальности, необходимостью анализа и обобщения научного материала по данной проблеме.

Ключевые слова: язык специальности, русский как иностранный, текст, специализированные термины, экономика.

Вследствие глобальных преобразований в Узбекистане, изменилась и роль русского языка как иностранного языка в системе высшего образования: из простого учебного предмета он превратился в средство достижения профессиональной реализации личности студента. Русский язык становится важным ресурсом социального и профессионального роста. Знание русского языка открывает будущему специалисту доступ к русскоязычным источникам информации, без которой в настоящее время немыслима деятельность дипломированного специалиста.

Проблема обучения языку специальности остается одной из важнейших задач для преподавателей, работающих со студентами экономических специальностей в ТГЭУ, поскольку не вызывает сомнений мысль о том, что в отличие от русскоговорящей аудитории, где профессиональный уровень понимания и говорения идет параллельно с высоким уровнем чтения профессионально-ориентированной литературы и письма, у студентов существует разрыв между данными уровнями, что приводит к непониманию и не усвоению учебного материала.

Поэтому цель данной статьи - наметить оптимальные пути решения данной проблемы, в том числе: рассмотреть основные подходы к организации учебного процесса и виды работы с текстами по экономике, обратить внимание на причины возникновения трудностей при чтении специальных текстов и охарактеризовать, и обосновать использование экономической терминологии, а также обосновать целесообразность обучения речи в сфере делового общения.

Язык специальности - это совокупность всех языковых средств, которые применяются в ограниченной специальностью сфере коммуникации в целях обеспечения взаимопонимания занятых в ней людей. Выделяются и другие характеристики языка специальности: первичная связь с другими специальностями; устное и письменное употребление в специальной и междисциплинарных сферах коммуникации; официальное применение, выбор и частота использования языковых средств в разделах лексики; тенденция к нормированию терминологии и структуры текстов. В описании структуры языка специальности выделяют три взаимодействующих в процессе коммуникации плана: 1) лексико-терминологический, 2) морфолого-синтаксический и 3) текстовой [1: с.54].

На сегодняшний день существует несколько разработанных методик преподавания языка специальности иностранным студентам экономического профиля с позиций его различных характеристик.

Так, например, Л.Т. Ахмедова отмечает необходимость и важность текстового плана языка специальности и разработки умения чтения данных текстов: для восприятия оригинального научного текста особое значение приобретает понимание авторской мысли, языковым выражением которой является не отдельное предложение, а высказывание, текст и его определенные типы (описание, повествование или сообщение-рассуждение, доказательство и др.). Однако в учебных целях в экономической аудитории целесообразно изучать наиболее часто встречающиеся в текстах по экономике способы изложения и те, которые необходимы для определенного этапа обучения [2: с.43].

По мнению автора, любой научный текст для чтения должен быть структурирован в соответствии с речевыми потребностями студентов: лексический материал, речевые клише, конструкции и другие типичные обороты речи, которые необходимы для его построения, должны составлять основу текста. Текстовый материал должен иметь научную значимость, связанную с узловыми вопросами профессионально-направленного обучения, соответствовать интересам студентов, иметь для них практическое назначение, быть связанным с материалом профильных дисциплин, что значительно повышает мотивацию обучения и оптимизирует учебный процесс.

А.А. Ходжаниязова предлагает направить усилия преподавателей на формирование определенных навыков: понимать основное содержание текста, соединять отдельные факты в единое целое (тема - подтема - субтема - микротема), прогнозировать дальнейший ход информации и заключительную часть текста, определять тему на основе различных ориентиров (по названию текста, по ключевым словам, по информации первого абзаца), понимать общий

логический план текста (разделение текста на смысловые части, выделение главной мысли абзаца, фрагмента смысловых частей текста, составление разных видов плана (простой, сложный, назывной, тезисный и др.) [4: с.112].

В связи с этим, следует отметить важность обучения студентов экономической терминологии с учетом предметного содержания.

Как отмечает А. Н. Крундышева, интерес к экономике в условиях социально-политических изменений, которые происходят в обществе, вполне объективен, поэтому в современной науке появляются исследования, посвященные особенностям экономической терминологии. Активно издаются словари, фиксирующие как новые термины, так и новые значения терминов, ранее существовавших [6: с.122]. Можно согласиться с мнением автора, что для достижения лингводидактических целей преподаватель русского языка должен иметь знания о специфике материала (экономической терминологии), которому он будет обучать: здесь недостаточно использовать такой традиционный способ сематизации новых терминов, как перевод, поскольку «ни прагматический, ни семантический аспекты не будут в полной мере реализованы, если изучающие иностранный язык не имеют представления о вариациях лингвистического фона (то есть о смысловых различиях эквивалентных слов, вызванных дифференциациями в реалиях) коннотативном своеобразии лексики, совпадающей по концептуальному значению».

Понимание преподавателем лингвистических особенностей материала и использование не только одного способа семантизации (перевода) позволяют ему удержаться от того, от чего предостерегал Л. С. Выготский. Он считал, что прямое обучение понятиям всегда оказывается фактически невозможным и педагогически бесплодным [7: с.96].

Следует обратить внимание на то, что учебный профессиональный контекст овладения языком специальности способствует осознанию системы и структуры языка, коррекции лингвокоммуникативных навыков и умений. Акцент обучения переносится на тематически-содержательный план профориентированных учебных материалов, приближенных к аутентическим словоупотреблениям в целенаправленной коммуникации. При этом в учебных социальных контактах доминирует групповая коммуникация. По мнению Г. К. Борозенеца, к текстам для чтения следует прилагать задания на составление выводов-резюме; описать, объяснить, сравнить, оценить, обобщить и т. д. Учет реферативной функции коммуникации стимулирует реализацию коммуникативного воздействия на партнера учебного общения и на его речевые поступки [5: с.129].

Главной целью обучения реферированию специальных текстов должно быть формирование надъязыковой способности дискурса (т. е. направленности

на обучение сообщению содержания увиденной или услышанной профессиональной информации) и техника ее языковой переработки, а также абстрагирование и контекстуализация в прогрессии: от описания, представления, доклада, анализа - до высказывания, суждения, аргументации, обоснования, дискуссии, принятия точки зрения по текстовым материалам, диаграммам, схемам, таблицам и т. д. Существенно важным является развитие у студентов автономности учения, особенно при обучении чтению аутентической специальной литературы и, в первую очередь, навыкам оперирования справочными пособиями. Необходимы также специфический языковой и относящийся к языку спектр умений, связанных с техникой рецептивной и продуктивной переработки устных и письменных специальных текстов в монологические и диалогические формы [4: с. 276].

В процессе освоения лексики изучаемого языка специальности студенты сами строят профориентированные высказывания, в которых эта лексика используется наряду с ранее известным материалом. Происходит актуальное творческое использование только что усвоенной лексики в коммуникативных ситуациях, что обеспечивает формирование навыка переноса информации, весьма важного для развития устной речи. Новая лексика языка специальности выступает в качестве основы тематически объединенного диалогического текста, логически связывает диалог и обеспечивает нарастание объема языкового материала в соответствии с принципом включения. В ходе участия в учебном диалоге студенты получают информацию о терминах в изучаемом языке специальности.

Как отмечает Л.Т. Ахмедова, наибольшую трудность для овладения представляет общенаучная лексика, находящаяся на стыке литературного языка и разговорной речи. По сравнению со специальными терминами, которые относительно свободно семантизируются в понятном для будущего специалиста ситуативном контексте диалога и, как правило, не представляет особых трудностей для запоминания, общенаучная и допустимая разговорная лексика, и фразеология требуют постоянного внимания. В целях интенсивного освоения общенаучного словаря, в котором много сложных слов значительно больше, чем в обиходно-разговорном, рекомендуется применение трансформационных и подстановочных условно-коммуникативных упражнений, составление вопросов и ответов к специальным текстам и выполнение прямого и обратного перевода отрезков текстов при актуализации лексики и фразеологии общенаучного пласта речи студентов на иностранном языке специальности.

Учитывая опыт преподавания русского языка как иностранного, можно полностью согласиться с мнением автора о том, что особое внимание при

составлении тренировочных условно-коммуникативных упражнений преподавателям следует уделять словам и словосочетаниям, которые располагаются на границе между служебными и автономными словами, т. е. союзам, союзным фразеологизмам, наречиям и предложным словосочетаниям, выражающим различные логико-синтаксические связи - временные (предшествование, одновременность, следование действия), причинные отношения следствия, условия, предположения, цели, уступительные значения и др. [7: с.34].

Таким образом, профессиональное общение подразумевает не только свободное владение иностранным языком в пределах возможных социальных контактов, но и свободное владение профессионально ориентированной лексикой, которой студент овладевает в процессе чтения литературы по специальности. Условиями профессионально ориентированного обучения иностранных студентов экономического профиля языку специальности являются чтение аутентичных текстов, необходимость ознакомления их с общей, научно-деловой и экономической терминологией, формирование навыков самостоятельной работы по созданию индивидуального словаря и овладение умениями устного профессионального делового общения, протекающего как сценарии самых распространенных ситуаций повседневного общения, необходимых и для профессиональной коммуникации. Данные принципы учитываются при подготовке современных учебных пособий по различным специальностям.

Использованная литература:

1. Ахмедова Л.Т. Формирование коммуникативных умений в чтении// Коммуникативная ориентированность обучения иностранным языкам в неязыковом вузе. Т., 1998. С. 44-50.

2. Борозенеца Г. К. Профессиональное обучение иностранному языку в неязыковом вузе на основе родного языка // Сб. науч. тр. Всерос. науч.- метод, конф. Тольятти, 1999. С. 274.

3. Выготский Л. С. Условия формирования лингвистической и коммуникативной компетенции // Формирование коммуникативной иноязычной компетенции. М., 1998. Вып. 437. С. 24-33.

5. Ходжаниязова А.А. Основы построения аудиторных занятий по иностранному языку в неязыковых вузах: Монография. Нукус, 2012.

ТРИ СОСТАВЛЯЮЩИЕ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ: СЕМЬЯ, ШКОЛА, ОБЩЕСТВО

Имаева Наиля Камильевна
Ташкентская область город Ангрен
средняя школа 6 учитель начальных классов
https://doi.org/10.5281/zenodo.7373093

Аннотация: В данном материале рассмотрено влияние семьи, школы и общества на формирование личности ребенка и его воспитание. Обозначена роль каждой из социальных групп в ходе развития ребенка как индивидуума, а также определено место и роль преподавателя в этом процессе.

Ключевые слова: Воспитание ребенка, формирование личности, семья, школа, общество, педагог.

Key words: Electric current, Nolle current, evolutionary history, atoms, nanotechnology, atomic energy, Leyden boxes, charge, alternating current, Lenz's law, transformer, insulation, hydroelectric power plant, rationalization.


Kirish. Kundalik hayotimizda moddiy va ma’naviy resurslar muhim bo‘lgani kabi. “ Elekt toki” ham hayotimizning bir ajralmas bo‘lagi sifatida bo‘lib kelmoqda. Uni o‘rganishimizdan maqsad, elektr-energiya tarmoqlari sohasini yanada tez suratlarda rivojlantirish, paydo bo‘lishi va uzatilishidagi muammolarning soha mutahasislari tomonidan uni bartaraf etish to‘g‘risida sohada yangicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu sohaga qiziqqan o‘quvchilar uchun: “Malumki, elektr va issiqlikning eng yaxshi o‘tkazuvchisi bu kumushdir. Shuni aytish mumkinki, mis simlarning kumush simlardan ko‘ra elektr qurilmalarda ishlatilishining sababi shundaki, ikki o‘tkazuvchan element bu biz bilgan mis bo‘lib, u bir muncha arzonroq. Shu bilan birgalikda, elektr tokining tezligi deyarli yorug‘lik tarqalish tezligiga to‘g‘ri keladi. Biroq 1746-yilda buni hali hech kim bilmas edi. Qiziquvchan Fransuz ruhoniysi va fizigi Jan-Antuan Nollet tajriba o‘tkazishga qaror qildi. U 180 ta rohibni temir simlar bilan bog‘lab, so‘ngra bir yil avval o‘zi ihtiro qilgan Leyden qutilaridan batareyani zaryadsizlantirdi. Hamma rohiblar bir vaqtning o‘zida elektr toki urushiga munosabat bildirganligi sababli, Nolle oqim tezligi juda yuqori degan hulosaga kelindi.

Asosiy qisim. Olimlarimizning ko‘plab izlanishlari natijasida biz sizga yetkazib bermoqchi bo‘lgan elektr toki va uning xarakteristikalari haqida to‘xtalinar ekan, elektr energiyasini ishlab chiqarishning yanada samarali va yuqori quvvat olishga bo`lgan intilish zamirida yuqori effektli energiya manbalari kashf qilinmoqda bu sohaning istiqboli atom energiyasi orqali kuchaytirildi. 1950-yillardan boshlab u

butun dunyoda rivojlana boshladi. 1951-yilda elektr energiyasi birinchi martta Amerikaning EBR-I reaktri deb nomlanadigan yadro reaktridan ishlab chiqarildi. XX asrning boshlarida elekt energiyasi tijorat maqsadlarida va shuningdek jamoat extiyojlari uchun kengayishda davom etdi. Biz hozirgi vaqtda elektr hodisasi va qonunlarining zamon fan-texnikasini o‘rganishda katta ahamiyatga ega ekanligini inkor qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham turli hil elektr mashina va asboblarning ishlanishini tushunib olish, elektrning hususiyati va qonunlarini oz bo‘lsa ham bilib olishimiz shart.

Tok o‘zi nima? U haqida tushuncha.

Elektr zaryadlarining bir tomonlama oqimi elektr toki deb yuritiladi. Zaryadlarning qaysi tomonga harakat qilishidan qatiy nazar elektr toking yo‘nalishi shartli ravishda musbat zaryadlarning harakat yo‘nalishida deb qabul qilingan. $+q_1$ va $-q_2$ zaryadlar qaysi tomon harakat qilsa ham, bir birida tok mavj bo‘ladi, ammo uning yo‘nalishi kelishilgan tomonga qarab yo‘nalganligi ko‘rsatiladi. Masalan eritmalarda umuman biror muhitdagi $-q_2$ zaryadlar bir tomonga harakat qilib I_2 tokni, $+q_1$ zaryad unga qarama-qarshi tomonga harakat qilib I_1 tokni hosil qilsa, bu toklarning yo‘nalishi bir tomonlama deb olinadi. Yani tok hosil qiladigan zaryadlar $q=q_1+(-q_2)$ elaktr tok esa $I = I_1+I_2$ bo‘ladi.



1-rasm. Elektr tokining o‘tkazgichda hosil bo‘lish jarayoni.

Metallarda erkin elektronlar tartibsiz harakatlanadi, bundan tok hosil bo‘lmaydi bunga sabab elaktronlar bir tomonlama harakatlanganda bu elektronlarning harakat yo‘nalishi teskari yo‘nalgan elektr toki mavjud deb hisoblaymiz. Negaki, qachon o‘tkazgich bo‘ylab zaryadlangan zarralar +q va -q lar tatibli harakatda ishtirok etar ekan o‘shandagina tok hosil bo‘lib, u yerda kuchli reaksiya jarayonlari ketadi. Biroq qarama-qarshi ishorali zaryadga ega bo‘lgan juda ko‘p elektron va atom yadrolaridan tashkil topgan jisimlar tartibli harakatlanganda hech vaqt elekt toki hosil bo‘lmaydi. Chunki musbat va manfiy zaryadlar o‘zaro kompetsatsiyalanishi natijasida har

qanday yuza orqali to‘liq zaryad nolga teng bo‘ladi. Shuning uchun ham elektr toki umumiy ko‘rinishda bunday tariflanadi. Elektr toki bu kompetsatsiyalanmagan ortiqcha musbat yoki manfiy zaryadlarning tartibli harakatiga aytiladi.


Tadqiqot natijalari.

O‘takazgichdagi erkin elaktronlarning ichki elektr maydon tasiridagi tartibli harakatiga o‘tkazuvchanlik toki yoki elektr toki deb ham yuritiladi. Fazodagi tartibli harakatlardan ham elektr toki hosil bo‘ladi ular zaryadlangan jisimlar yani yomg‘ir tomchisi va shu kabilar kiradi. Tokning yo‘nalishi uchun shartli ravishda musbat zaryadining harakat yo‘nalishi qabul qilingan. Tokning bunday yo‘nalishi texnik yo‘nalish deyilib, faqatgina manfiy zaryadlar yoki eklektronlar hosil qilgan tokning yo‘nalishiga harakat yo‘nalishi qarama-qarshi bo‘ladi. Elektr tokining vujudga kelishi uchun uchta shart muhim va yetarlidir;

1. Erkin zaryadlangan zarrachalar.
2. O‘tkazgich.
3. Elektr maydon.

Shu uch shatr orqali bizga to‘xtovsiz va tartibli harakat oqimi elektr toki yuzaga keladi. Elaktr tokining harakatlanishi uning tok kuchi orqali amalga oshiriladi. Yani vaqt birligi ichida oqib o‘tayotgan erkin elektronlar oqimi tufayli o‘tkazgichning ko‘ndalang o‘tayotgan va u q zaryad miqdoriga miqdor jihatdan teng bo‘lgan tokning kattalik kuchi paydo bo‘ladi. Uning birligi HBS da [I]=[1A]=[1 amper] deya qabul qilingan bo‘lib, bunda ikki istemolchi berilgan bo‘lsin deylik ularning har ikkalasi ham bir hil materialdan iborat bo‘lsagina bu istemolchilarga tok kuchi ketma ket ulanib tok oqimi uzluksiz uzatilib turiladi. Uning yuqori darajada istemolchiga zarar yetmasligi uchun ularga tok miqdorini meyorida ushlab turuvchi qurilmalar ham o‘rnatib qo‘yish joiz sanaladi. Ketma ket ulangan istemolchilarning foydali tomoni shundan iboratki, tok kuchlari har ikkala o‘tkatgichda teng miqdorda oqib o‘tsagina ana o‘shanda qisqa tutashuvlar bo‘lmaydi. Uzun sim orqali tok uzluksiz harakatda bo‘ladi. Buni biz oddiy ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan tekkiza olmaymiz. Bir tok oqimidagi bir qancha $+q$, $-q$ zaryadli elektronlar o‘tkazgich bo‘ylab ko‘chiriladi, bu o‘z o‘zidan ketmaydigan jarayon bo‘lib ma’lun bir kuchlanish ostida zaryadlar o‘tkazgich bo‘ylab tinimsiz aylanib ish bajaradi. Darhaqiqat, shuni unutmaslik kerakki bu oqib o‘tayotgan tokli o‘tkazgichimizning qarshiligi bo‘lmas ekan, biz kutgandek tok oqimining juda katta tezligi natijasida portlashlar sodir bo‘ladi. O‘tkazgichning qarshilig vazifasi tokning kuchi va kuchlanishiga bog‘liq bo‘lmasdan balki, o‘tkazgichning materiali va uning o‘lchamlariga bog‘liq bo‘lgan va o‘tkazgichlarda o‘tkazuvchanlikcheklab turuvchi hossasidir shu muhim shartlar orqali texnik nosozliklar va havfli zarralar oqimi bartaraf etiladi. Biz hozirgi kunda texnikada va turmushda asosan o‘zgaruvchan tokdan foydalanamiz. Lekin ko‘p hollarda o‘zgarmas tok ham kerak bo‘ladi. Masalan sanoatda elektrakimyo sohasida

elaktr transporti va aloqada. O‘zgarmas tok ko‘pincha tokni to‘g‘irlagichlar deb ataladigan maxsus qurilmalar yormadida hosil qilinadi. Har handay to‘g‘irlagichning ishlashi faqat ma’lum bir yo‘nalishda tok o‘tkazadigan zanjir qisimlari hosil qilish mumkinligiga asoslangan. Ikki elektrotli lampalar (diotlar) shunday hususiyatga ega hisoblanadi. O‘zgarmas tokni mahsus generatorlar ham hosil qilishi mumkin. Buning uchun o‘zgaruvchan tok generatoridagi halqalarni yarim halqalar bilan almashtirish kifoya. XX asrning boshlariga kelib tok hosil qiluvchi zarralarning tabiatini aniqlash maqsadida olimlar o‘zaro ketma-ket ulangan bir hil radiusli mis, alyuminiy va yana misdan iborat uchta slindrik metal sistemadan t=1 yil davomida $q(_t)$ = 3,5 mln K_l zaryad o‘tkazdilar.



2-rasm. Tok hosil qiluvchi zarralarning tabiatini aniqlash.

Bu uchta metallarning massalari katta aniqlik bilan o`lchanadi, ularning massasi va kimyoviy tarkibi o‘zgarmaganligi ma’lum bo‘ldi. Bundan, metallarning elektr o‘tkazuvchanligini barcha metallar uchun bir hil bo`lgan “ zaryadlarni tashuvchi” erkin harakatlana oladigan zaryadlar hosil qilinadi degan hulosa kelib chiqdi. Binobarin, metallarning elektr o‘tkazuvchanligi metal atomlarining ko‘chishiga ham bog‘liq bo‘lmay faqat erkin elektronlarning harakteriga ham bog‘liqdir. Tarmoqlardagi elektr energiyamiz hozirgi kunda globall muammolardan bo‘lib, har bir mintaqa olimlari bu tarmoqlardagi oqib o‘tuvchi tok manbai ya’ni elektr energiyani qay tarzda uzoq masofalarga uzatish va undan maksimal darajada to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha bu sohada yangicha izlanishlar olib borilmoqda. Avvalo elektr energiyasini olisga qay tarzda uzatamiz?

Muhokama


Elektr energiyasi boshqa xil energiyalardan afzalligi shundaki uni olis joylarga juda qisqa vaqtda uzatish mumkin elektr energiyasi olis joylarga uzatilganda

linyalarida energiya sezilarli miqdorda isrof bo‘ladi, chunki tok uzatish o‘tkazgichlar orqali o‘tganda ularni qizdiradi. Joul-Lens qonuniga muofiq, o‘tkazgich simlarini qizdirish uchun sarf bo‘ladigan energiya miqdori $Q=I^2RT$ formula bilan aniqlanadi, bu yerda R o‘tkazgich qarshiligi. Elektr energiyasini uzatish foydaliroq bo‘lish uchun o‘tkazgichlarni qizdirishga ketadigan issiqlik energiyasi mumkin qadar kamtirilishi kerak. Joul-Lens qonuni bu masalani hal qilishning ikki yo‘lini ko‘rsatib beradi:

1) Energiya: o‘tkazgich simlarining qarshiligini kamaytirish kerak. Buning uchun yo‘g‘on simlar ishlatish kerak lekin turmushda buni amalga oshirib bo‘lmaydi chunki o‘rkazgichning qarshiligini necha martta kamaytirilsa, uning massasi shuncha martta ortib ketishi mumkin. Qimmat turadigan rangli metallarni bunchalik ko‘p sarflashga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi bundan tashqari og‘ir simlarni baland minoralarga o‘rnatish bilan bog‘liq bo‘lgan va boshqa qiyinchiliklar ham tug‘iladi.

2) Uzatish: o‘tkazgichlardagi tok kuchini kamaytirish lozim. Ammo tok quvvatini saqlash uchun tok kuchini faqat kuchlanishni oshirish yo‘li bilangina kamaytirish mumkin. Elektr energiyasini uzatish o‘tkazgichlar orasidagi kuchlanish yuqori bo‘lsagina u shuncha yuqori bo‘ladi. Chunki, P=IU quvvat formulasidan ko‘rinishicha, tok kuchi shuncha kamayadi va o‘tkazgichlardagi isrof tok kuchi kattaligining kvadratiga praporsional ravishda kamayadi.

Hozirgi zamon sharoitida elektr energiyasini olisga uzatishni transformatorsiz amalga oshirish mumkin emas chunki, transformatorlar yordamida o‘zaguruvchan tokning uzatiladigan quvvatini o‘zgartirmagan holda uning kuchlanishi o‘zgartirib berishi mumkin. Quyidagi sxema orqali elektr energiyasini olisga uzatishni quyidagicha tasavvur qilish mumkin.



3-rasm. Elektr energiyasini uzatish sxemasi.

Elektr stansiyasiga yuksaltiruvchi transformator o‘rnatiladi. Yuqori kuchlanishli tok energiyasi istemolchiga to‘g‘ridan to‘g‘ri uzatiladi. Istemolchi oldiga pasaytiruvchi transformatorlar o‘rnatish bilan istemolchi elektr energiyadan hayot uchun havfsiz va izolyatsiyaning maxsus usullarini talab etmaydigan normal kuchlanishidan foydalanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insonlar moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga doimo harakat qilishadi. Shuningdek hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda elektr energiyaga talabchanligimiz ham yaqqol nomoyon bo‘lib bormoqda. Elektr energiya hozirgi kunda suv va havodek zarur ekanligini yuqoridagi elektr energiyasini o‘zgaruvchan tok sifatida kuchlanishini o‘zgartitish orqali, transformator qurilmasi yordamida hayot uchun havfsiz va izolyatsiyalangan usullar bilan aholiga to‘g‘ridan to‘g‘ri uzluksiz yetkazib berilmoqda shu kabi ma’lumotlar orqali ham energiya tejamkorligini yana bir bor bilib oldik. Energiya tejamkorligi sizu bizni ogohlikka chaqiradi. Holbuki so‘zimiz yakunida shuni aytishimiz kerakki, elektr tarmoqlari va ularning kundalik hayotimiz uchun zarur bo‘lib hizmat qilayotganligini guvohi bo‘lib bormoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. C.Tursunov, J.Kamolov “Elektr va magnetizm”, T:. -1996 b; 211-235.
2. M.Ismoilov, P. Xabibullayev, M. Xalilulin. Fizika kursi, O‘zbekiston nashriyoti T:.- 2000 b; 234-239.
3. I.U Raxmonov, K.M Reymonov, N.N Niyozov. Elektr taminoti tizimida energiya tejamkorligi. O‘z halqaro islom ak nash. -T:. 2020 b;
4. U.O Oripov, S.A Azimov, P.Q Habibullayev, M. Rasulova. Fizika. “O‘zme.f.1-jild” -T:. 2000.
5. Кудрявсев П.С. Краткий. Курс истори физики, M:.1974.
6. M.R Raxmatov, Vatanimiz fiziklari -T:. 1983.

ONA TILI DARSLARIDA ILG‘OR METODIKALARDAN FOYDALANISH VA KOMMUNIKATIVLIK

Tojiddinova Nazokat Shuxratbek qizi
Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
Ilmiy rahbar: **Shohida Yusupova**
https://doi.org/10.5281/zenodo.7394198

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarga bilimni yanada samaraliroq yetkazish, noan‘anaviy darslar tashkil etish, darslarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiya tushunchasi, interfaol metodlarni darslarda qo‘llash hamda o‘qituvchi va o‘quvchilarning moloqot namunasining o‘rnatilishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, adabiyot, pedagogika, kompyuter texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, noan’anaviy darslar, zamonaviy pedagogik texnologiya.

«Ona tili va adabiyot» darslariga noan’anaviy darslarni olib kirish va uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an’analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o‘rni beqiyosdir.

Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o‘quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o‘zlashtirilishiga zamin yaratish, o‘quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda.

Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o‘yinlar orqali amalga oshiriladi.

Demak, endi o‘qituvchidan an’anaviy darsdan noan’anviy darsga o‘tish talab etiladi: Noan’anaviy darsning asosiy yo‘nalishlari: [138]

a) O‘quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o‘rgatish;

b) O‘quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;

c) O‘quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to‘g‘risida aniq tushuncha hosil qilish;

d) Olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash va boshqalarga o‘rgatish va hokazo.

Yana bir e’tiborga olinishi lozim bolgan jihat bu ona tili va adabiyot darslari davomida computer texnologiyalardan foydalanishdir.Buning uchun birinchi navbatda o‘qituvchi sinfxonani kerakli jihozlar bilan ta’minlanishini tashkil etishi, so‘ngra mavzuga doir taqdimotlar, videolar, qisqa filmlar, rasmlar va ijod namunalarini yaratishi yoki internet saytlaridan sifatlilarini tanlab yuklab olishi lozim. Buning asosiy sababi, ular o‘quvchilarning ijodkorligini va dunyoqarashini kengaytirishga, visual o‘rganishni rivojlantirishga va albatta o‘quv jarayonining qiziqarliroq va sifatliroq tashkil etilishiga yordam beradi.

Bu usul grammatik jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar orqali o‘quvchilarning mustaqil oddiy gapdan to kichik matn tuza olish qobiliyatini o‘stirishga, adabiyot namoyondalari hayoti va ijodini ko‘z oldida gavdalantirish va yaxshiroq yodda saqlashga,ularning ijod namunalaridan ekran orqali bahramand bo‘lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi.

Har bir darsni o‘ziga xos usul asosida o‘tish, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli.

Kommunikativ usul E.I.ning taklifi bilan o‘z nomini oldi. Bir qator nashrlarda usul kontseptsiyasini asoslab bergan Passov. Usul kommunikativ tilshunoslik g'oyalariga, faoliyatning psixologik nazariyasiga va madaniyatlar muloqotida individuallikni rivojlantirish kontseptsiyasiga asoslanadi, bu

Usulning lingvistik kontseptsiyasi kommunikativ tilshunoslik g'oyalariga asoslanadi.

1. Muloqot (va shunga mos ravishda o‘rganish) birligi ***nutqiy harakatlar***, bular. nutqiy xulq-atvor qoidalari bilan tartibga solinadigan, muayyan nutqiy vaziyatda bajariladigan va adresatga ega bo‘lgan nutq harakatlari.

Til o`rgatish uchun nutqiy harakatlarning mazmunini amalga oshirish uchun til birliklarini tanlab olish va o`rganish maqsadlariga ko`ra turli xil turlarini (axborotli, rag`batlantiruvchi, odob-axloq va boshqalar) farqlash muhim ahamiyatga ega.

Ayrim tadqiqotchilar nutqiy harakatni nutq xatti-harakatlarining elementar birligi deb hisoblaydilar, nutqiy harakatlar esa yuqori darajadagi birliklarga birlashgan holda shakllanadi. ***nutq*** (bog'langan matn). Ko‘pgina olimlarning fikriga ko‘ra, til o‘rgatishda nutq aktlariga tayanish o‘rganishni optimallashtirish va uning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Nutq harakatlarini tanlash birligi hisoblanadi ***nutq niyati*** ularning nutqiy xulq-atvorini mazmunli tashkil etuvchi va tartibga soluvchi so‘zlovchi va tinglovchi. Talabaning turli xil niyatlarni (aloqa, tartibga solish, axborot, baholash va boshqalar) amalga oshirish qobiliyati kommunikativ metodologiya doirasidagi darslarning muhim xususiyati bo‘lib, o‘quv materialini tanlash va taqdim etishga funktsional yondashuvni aks ettiradi. sinf xonasi.

Tilni muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish o‘quvchilarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. **kommunikativ qobiliyat,** nafaqat til tizimini bilish, balki muloqot maqsadlariga erishish uchun til birliklaridan to‘g'ri foydalanish qobiliyatini ham anglatadi.

Kommunikativ faoliyat sohalarining kommunikativ kompetentsiya birliklari sifatida ko‘rib chiqish, aloqa mavzulari va vaziyatlari va ularni qo‘llash dasturlari, aloqa taktikasi, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy rollari, shuningdek, turli xil vakolatlarni (nutq, pragmatik, lingvistik) taqsimlash. Ijtimoiy-madaniy va boshqalar) tilni bilishning turli bosqichlari va darajalarida o‘quv maqsadlari va ularga erishish yo‘llarini aniqroq ko‘rsatish orqali ta’limning kommunikativ yo‘nalishini ta’minlashga hissa qo‘shdi.

Usulni psixologik asoslash uchun mahalliy psixologik maktab tomonidan ishlab chiqilgan o‘rganishga shaxsiy-faollik yondashuvi qo‘llanilgan (masalan, Zimnyaya,

1999). Ushbu yondashuvning asoslari L.S.ning asarlarida qo‘yilgan. Vygotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontiev, bu erda shaxs faoliyatda va boshqa odamlar bilan muloqotda shakllanadigan va faoliyat va muloqotning tabiatini belgilaydigan sub'ekt sifatida ko‘rib chiqilgan.

E.I.ga ko‘ra kommunikativ usulning kontseptual qoidalari. Passovu quyidagilardir:

1. Ona tili maktabdagi boshqa fanlardan farqli o‘laroq, o‘rganishning maqsadi ham, vositasi hamdir.

2. Til – muloqot, aniqlash vositasi; talabalarni ijtimoiylashtirish va o‘rganilayotgan til mamlakatining madaniy qadriyatlari bilan tanishtirish.

3. **Ona tilini o‘rganish ona tilini o‘rganishdan farq qiladi:**

o‘zlashtirish yo‘llari;

Aloqadagi axborot zichligi;

Tilni sub'ekt-kommunikativ faoliyatga kiritish;

Amalga oshirilgan funktsiyalar to‘plami;

Bola nutqini rivojlantirishning sezgir davri bilan bog'liqligi.

O‘quv jarayonining asosiy ishtirokchilari ***o‘qituvchi va o‘quvchi.*** Ular o‘rtasidagi munosabatlar asoslanadi ***hamkorlik*** va teng ***nutqiy hamkorlik.***

O‘qitishning kommunikativ usulidan foydalangan holda o‘qitish mazmunini qurishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Nutqni yo‘naltirish, bular. muloqot orqali ona tilini o‘rganish. Kommunikativ usul birinchi marta muloqotni faqat muloqot orqali o‘rgatish kerak degan pozitsiyani ilgari surdi. Bu darsning amaliy yo‘nalishini bildiradi. Va bu erda shuni qo‘shimcha qilish kerakki, bu to‘g'ri ta'limning eng muhim shartidir.

Muloqot shunchaki e'lon qilingan emas, o‘rganish uchun oddiy dastur (ko‘pincha an'anaviy), lekin aslida u quyidagilarga xizmat qiladi:

a) bilimlar amalga oshiriladigan kanal;

b) individuallikni rivojlantirish vositasi;

v) shaxsning zaruriy fazilatlarini tarbiyalash vositasi;

d) tajribani uzatish va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish usuli.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, ona tili o‘qituvchisi talabalarga nutq faoliyatining usullarini o‘rgatadi, shuning uchun biz bu haqda gapiramiz. ***Kommunikativ kompetentsiya*** ona tilini o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri sifatida. Lekin kommunikativ kompetentsiya faqat asosida shakllanishi mumkin ***lingvistik kompetentsiya*** ma'lum daraja. Biroq, barcha turdagi maktablarda o‘qitishning maqsadi til tizimi emas, balki ona tilidagi nutq faoliyati va o‘z-o‘zidan emas, balki madaniyatlararo o‘zaro ta'sir vositasi sifatida.

Til madaniyatning elementidir, u ma'lum bir madaniyat doirasida ishlaydi. Shunday ekan, bu madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari, tilning madaniyatdagi amal qilish xususiyatlari bilan tanish bo‘lishimiz kerak. Va bu erda biz shakllanish haqida gapiramiz ***mintaqaviy tadqiqotlar, kompetentsiya.***

Siz gapirishni faqat gapirish orqali, tinglashni - tinglash orqali, o‘qishni - o‘qish orqali o‘rganishingiz mumkin. Bu, birinchi navbatda, mashqlarga taalluqlidir: mashq qanchalik haqiqiy muloqotga o‘xshasa, shunchalik samarali bo‘ladi. DA ***nutq mashqlari*** zudlik bilan amalga oshirilishi bilan rejalashtirilgan, dozalangan va shu bilan birga katta miqdordagi lug'at va grammatikaning tez to‘planishi mavjud; haqiqiy muloqotda ishlatib bo‘lmaydigan biron bir iboraga ruxsat berilmaydi.

Shuning uchun maktab o‘quvchilarida nutq faoliyatining u yoki bu shaklida zarur ko‘nikma va malakalarni, shuningdek, dastur va standartda belgilangan darajada lingvistik kompetentsiyani shakllantirish uchun guruhning har bir o‘quvchisi uchun faol og'zaki amaliyot zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zamonaviy o‘zbek tili: Morfologiya/ Mualliflar jamoasi. Mas‘ul muharrirlar H.G‘.Ne‘matov, R.R.Sayfullayeva. –T.:Mumtoz so‘z, 2008. -468 b.

2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent, 1989

3. Karnegi D. Muomala sirlari. Toshkent, «Navro‘z», 1992.

4. Клюев Е.В. Речевая коммуникация. М.: ПРИОР, 1998.

5. Кнапп М.Л. Невербальные коммуникации. М.: ПРИОР. 2000

6. Лабунская.В.А. Экспрессия человека: общение и межличностное познание. —Феникс‖. Ростов-на-Дону.1999.

МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ В РЕШЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗАДАЧ

Балтабаева Олеся Эркиновна
Школа № 28 г. Ургенча
https://doi.org/10.5281/zenodo.7397937

Аннотация: Решение экономических задач в настоящее время являетсяявляется приоритетным направлением. В этой статье показаны как при помощи математических уравнений решены некоторые экономических задач.

Ключевые слова: уравнения первой и второй степени, доход, рентабельность, способ подстановки, способ уравнивания коэффициентов.

Целью решения экономических задач: умение учащихся применять в обычной жизни простые экономические термины (трудовая выработка, цена, себестоимость, рентабельность, доход, расход, и т.д.) применяя математические содержания, быть приспособленными к решению любых задач. Незнание на должном уровне методических расчетов связанных с производственными и коммерческими структурами приводят к глобальным финансовым проблемам. Можно отметить, что в зависимости от сложности вышеуказанных действий, увеличатся и расходы. В связи с этим, необходимо знание о требованиях рыночной экономики, так как учащиеся должны знать основы экономики еще со школьных программ. К примеру, требования в начальных классах следующие:

-решение процентов

- разбор рациональных вариантов;

-составление простых примеров маркетинга; решение логических задач, примеров, а в старших классах рассматриваются следующее:

- составление оптимальных примеров.

- продолжаются требования сбора примеров статистики- вероятности.

Рассказывая о вышесказанных задачах на практике, позднее выпускник имеет возможность глубже рассмотреть и пополнить свои знания.

Правильный разбор нужных многочисленных вариантов задач коммерческого характера связанные с логическими решениями, искусство нахождение правильного варианта ответа сокращает другие варианты. В решении сложных экономических задач , можно отметить ,что в применении из нескольких способов возможен один.

Один из способов - способ экономико - математического моделирования.

Название бизнес, если учесть имеющий эквивалент к азарту, какое бы это не было, на стадии развития коммерческих действии, первым делом, заранее обдумать все варианты которые могут привести к неудачам.

В этом случае, вести наблюдение изменения рынка в различных стадиях, нахождение совпадающих закономерностей, большую помощь оказывает вероятность образцы основ статистики. В современной экономике математика является самым необходимым инструментом.

С помощью математики любой предприниматель может выбрать необходимый нужный вариант действия в коммерческой жизни.

В современной экономике математика (часто далеко не элементарная) выступает в качестве необходимого инструмента, с помощью которого предприниматель может выбрать наилучший вариант действий из многих возможных.

Соединение экономики бизнеса с математическими расчетами получило название экономико-математических методов.

Возможности, которые применение математики открывает для рационального решения реальных экономических задач, лучше всего рассмотреть на простых примерах.

Пример . Вам предлагают купить товар весом в 100 тонн. Взвешивание производилось некоторое время тому назад, и при этом было определено процентное содержание в товаре жидкости, которое составляло 99%. На момент покупки, за счет усушки, доля жидкости уменьшилась до 96%. Необходимо рассчитать, сколько весит предлагаемый товар.

Экономисты, бухгалтеры, торговцы назвали вес около 97 тонн. Однако, расчет показывает, что товар при покупке должен весить ровно 25 тонн.

Решение: по алгебраическим правилам обозначив через x вес товара при покупке, составляем следующее уравнение:

$$\frac{x-1}{x} = 96\% = \frac{96}{100} \quad (1)$$

Это уравнение является математической моделью данного примера. Здесь 1 тонна – вес усушки: 100 – 0,99*100 = 1т.

Решив уравнение (1) x = 100/4 = 25 т.

Наиболее часто при решении экономических задач приходится сталкиваться с уравнениями 1-й степени с одним неизвестным, системой из двух уравнений 1-й степени с двумя неизвестными, уравнениями 2-й степени (квадратными) с одним неизвестным, а также с неопределенными уравнениями.

Уравнения 1-й степени с одним неизвестным решаются следующем порядке:

- ✓ все члены уравнения приводятся к общему знаменателю;

✓ все члены уравнения умножаются на общий знаменатель (при этом уравнение освобождается от знаменателей);

✓ раскрываются скобки и все члены, содержащие неизвестное, собираются в одной части уравнения, а не содержащие – в другой;

✓ приводятся подобные члены;

✓ неизвестное находится как частное от деления известного на коэффициент при неизвестном.

Система из двух уравнений 1-й степени с двумя неизвестными решается способом подстановки либо способом уравнивания коэффициентов.

Способ подстановки:

✓ одно из уравнений решается относительно какого-либо из неизвестных (другие принимаются за известные);

✓ результаты решения подставляются во второе уравнение, которое теперь становится уравнением 1-й степени с одним неизвестным;

✓ полученное уравнение 1-й степени с одним неизвестным решается по соответствующим правилам.

Способ уравнивания коэффициентов:

✓ уравниваются коэффициенты обоих уравнений при каком-либо из неизвестных;

✓ складываются или вычитываются одно уравнение из другого (при этом исключается одно из неизвестных);

✓ полученное уравнение 1-й степени с одним неизвестным решается по соответствующим правилам.

Уравнение 2-й степени (квадратные) с одним неизвестным решаются по следующим правилам:

✓ уравнение приводится к виду: $ax^2 + bx + c=0$

✓ в случае, если a=1, уравнение преобретает упрощенную форму: $x^2 + px + q=0$

✓ решение производится по стандартной формуле: $x_{1,2}= \frac{-b\pm\sqrt{b^2-4ac}}{2a}$

✓ или для упрощенной формы: $x_{1/2}=- \frac{p}{2} + \sqrt{\frac{p^2}{4} - q}$

✓ выбор между x_1 и x_2 осуществляется исходя из условий задачи.

Пример:

Автомобили «Волга» и «Жигули» отправились в путь длиной 900 км. Известно, что на это расстояние «Волга» расходует на 36 л бензина больше, чем «Жигули». Известно также, что пробег на 1 л бензина у «Жигулей» больше, чем у «Волги» на $6\frac{2}{3}$ км.

Сколько бензина израсходует каждая машина?

Решение:

Обозначая через x расход бензина у автомобиля «Волга» на 900км пути, можно записатьусловие задачи следующим образом:

$\frac{900}{x-36} - \frac{900}{x} = 6\frac{2}{3}$,

что после преобразований приводит к квадратному уравнению вида $ax^2 + bx + c=0$:

$$\frac{20}{3}x^2 - 240x - 900 \cdot 36 = 0$$

Решая уравнение по стандартной формуле: $x_{1,2}= \frac{-b\pm\sqrt{b^2-4ac}}{2a}$,

получим

$x_{1,2}= \frac{240\pm\sqrt{240^2 - 4\frac{30}{3}\cdot 900\cdot 36}}{2\cdot\frac{20}{3}} = \frac{240\pm960}{\frac{40}{3}}$; $x_1 = 90$ л. $x_2 = -54$ л.

(второе решение не подходит как отрицательное).

Следовательно, автомобиль «Волга» расходует на весь путь 90 л, а автомобиль «Жигули» - 90-36 = 54 л.

Список использованной литературы:

1. Абчук В.А. «Экономико-математические методы», «Союз», 1999г.
2. Абчук В.А. «250 занимательных задач по менеджменту и маркентингу», М.: Вита-пресс, 1997г.
3. Абчук В.А. «Занимательная экономика и бизнес», Тригон, 1998г.
4. Соболев А.Н. «Основные экономические термины», 1999г.
5. Выгодский М.Я. «Справочник по элементарной математике», 1989г.
6. Курош А.Г. «Курс высшей алгебры», М., Наука, 1971г.
7. Ляпин С.Е. «Сборник задач по элементарой математе», М., Просвещение, 1973г.

KIYIM TURLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI HAQIDA

Otamurodov Otaxon Berdiyevich
Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi 13-son maktabning
texnologiya fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7397949

Annatatsiya: Mazkur maqolada kiyimlar, ularning turlari va kelib chiqishi haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: kiyim, bosh kiyim, to‘qimachilik, bichish, tikish, ishlab chiqarish, tur, sabab, kashta, munchoq, yengil sanoat.

Kiyim-kechaklar inson hayotining ajralmas bo‘lagidir. Biroq uning turlari va kelib chiqishi haqida hamma ham yetarlicha ma’lumotga ega emas. Shu sababli mazkur maqola orqali bular haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tmoqchimiz. Kiyim, kiyim-kechak deb badanni yopib turuvchi har qanday mato parchasiga aytiladi. Kiyimlar tikiladi, to‘qiladi, yoki boshqa usullar bilan tayyorlanadi. Kiyim kiyishdan maqsad, avvalo, tanani atrof-muhit ta’siri: issiq-sovuq, shamol, chang-to‘zon, quyosh nurlari, yog‘in va hokazodan asrashdir. Bundan tashqari kiyim ijtimoiy sabablarga ko‘ra ham kiyiladi. Xuddi shu ijtimoiy va psixologik sabablarga ko‘ra kiyim-kechak ko‘rimli, chiroyli qilib tayyorlanadi (masalan, boshqa odamlarni jalb qilish, ularga yoqish uchun).

Kiyim inson tanasini tashqi muhit (iqlim, ob-havo o‘zgarishlari, quyosh nuri va boshqalar) ta’siri va turli mexanik ta’sirlardan asraydigan vositalar to‘plami; estetik vazifani bajaradi hamda jins, yosh, milliylik va boshqa xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Keng ma’noda "Kiyim" tushunchasi bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal), qo‘lqop va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Kiyim turiga ko‘ra ichki kiyim, ustki kiyim, bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal); vazifasiga ko‘ra kundalik, uyda, dam olish paytida, bayram va to‘y marosimlarida kiyiladigan (kishilik) kiyimlar, ish kiyim (jomakor), sport kiyim, rasmiy kiyimlar, maxsus kiyimlarga bo‘linadi; ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlariga ajratiladi.

Kundalik kiyim, odatda, xalqning madaniyati, kishining didiga mos bo‘lib, turli modada, turli xil matolardan tikiladi; unda kasb, etnik va ijtimoiy guruhga mansublik o‘z ifodasini topadi. Dam olish paytida kiyiladigan kiyim yumshoq va mayin matodan, erkin harakat uchun qulay qilib tikiladi. Bayram, marosim (kishilik) kiyimlari milliy uslubda, qimmatbaho matolardan tayyorlanadi, turli bezaklar (kashta, munchoq va boshqalar.) bilan boyitiladi. Ish kiyimi (jomakor) oddiy matolardan mehnat jarayoniga mos qilib tikiladi

Kiyim ixcham, iqlim va faslga, jins, yoshga moslashtirilgan, eng muhimi qulay bo‘lishi, kishiga yarashib turishi lozim. Kiyimni bichish va tikish katta san’at. Kiyim tikish uchun oldin tabiiy (paxta, jun, jut, ipak) yoki sun’iy (sintetik) matolardan tanlanadi, tikuvchilar uyda, atelyelar va fabrikalarda kiyim tikishadi. Buning uchun avval matoni bichib olish kerak. Bu ishni bichiqchi bajaradi. Unga modelyer rassom kiyim rasmi (modeli)ni chizib beradi. Xullas, kiyim bitib magazinga tushguncha bir necha kishi mehnat qiladi.

Yengil sanoat, xususan, to‘qimachilik sanoatining jadal rivojlanishi kishilar didining tinimsiz o‘sib borishi, xalqlar orasidagi aloqalarning kuchayishi kiyim modasining tez-tez o‘zgarib turishiga olib keladi; hayot ham shuni taqozo qiladi. Ayniqsa, ayollar kiyimlari modasi tez-tez o‘zgarib turadi. Hozir kiyim inson tanasini tashqi ta’sirlardan asraydigan vosita bo‘lish bilan birga o‘ziga va atrofdagilarga estetik zavq bag‘ishlaydigan badiiy san’at asariga ham aylanib bormoqda.

Kiyim tikishda turli-tuman bezak materiallardan, kashtalardan foydalaniladi. Kiyim inson yaratgan turar joy kabi eng qadimgi ixtirolardan so‘nggi paleolit davridayoq mavjud bo‘lgan.

Kiyim geografik muhit, xo‘jalik shakli, ijtimoiy munosabatlar, madaniyat, etnik qatlamlar va boshqalarga bog‘liq holda taraqqiy etgan.

Paleolit davri yodgorliklari orasida terini ishlaydigan tosh va tikadigan suyak ignalar topilgan.

Kiyim uchun matodan tashqari barglar, o‘tlar, daraxt po‘stloqlari ham xom ashyo vazifasini o‘tagan.

Estetik xususiyatlarga ega dastlabki kiyim Qadimgi Misr kiyimlaridir. Qadimgi Misrda erkaklar (bellariga mato yoki teri bog‘lagan) va ayollar (bog'chli to‘g‘ri ko‘ylak) kiyimlarida burma (drapirovka)lar qo‘llanilgan; keyinroq nozik mato ishlab chiqarishga erishilgach, plissirovka keng tarqalgan. Turli rangdagi nozik matodan tayyorlanib kashtalar bilan bezatilgan kiyimlarni, odatda, hukmron tabaqa vakillari kiygan, qullar dag‘al mato yoki teridan tayyorlangan kiyim kiygan. Qadimgi ossuriyaliklarda uzun ko‘ylak va hoshiya bezakli yopinchiq rasm bo‘lgan. Yunonlar xiton (yengsiz ko‘ylak), tunika (kalta yengli ko‘ylak), gimatiy (yopinchiq) kiyishgan, bu kiyimlar inson qiyofasiga ulug‘vor soddalik baxsh etgan, inson tanasining egiluvchanligini ko‘rsatgan (ular, asosan, oq jun va kanop matolardan tayyorlangan), to‘g‘nog‘ich, belbog‘ va boshqalar bilan boyitilgan. Oyoq kiyim vazifasini boldirni o‘rab turadigan tasmali shippaklar bajargan.

Qadimgi Rim kiyimi ham yunonlarniki kabi burmali bo‘lgan. XIV-XVI asrlarda G‘arbiy Yevropada chizmachilik ilmining taraqqiyoti hozirga qadar mavjud bo‘lgan andazalarning barcha turlarini yaratilishini ta’minladi, matolarning nafisligi, iplarining joylashishi bichishni mukammallashtirdi. Bu yutuqlar kiyimni

aniq loyihalash va qomatga mos nafis kiyimning paydo bo‘lishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, kundalik hayotimizda ishlatiladigan har bir narsa-buyumning, jumladan, kiyimlarning ham o‘z yaratilish texnologiyasi bor. Shunday ekan, bu haqida bilib qo‘yish foydadan holi bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiqova N. L. O‘zbek kiyimlari. T.,2002.
2. Abdullayev T. A. , Xasanova S. A., Odejda uzbekov. T., 1978.
3. www.ziyo.uz

O‘QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA TURLI TOPSHIRIQLARDA FOYLALANISH

Nurxon Mo‘minova
ADPI o‘zbek tili va dabiyoti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7425077

Annotatsiya: ushbu maqolada maktab yoshidagi o‘quvchilarning ona tili va adabiyot darslarida fikrlash, dunyoqarashlarini kengaytiruvchi metodalrdan foydalanish kerak ekanligi haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fikrlash qobiliyati, metod, borliq, dunyoqarash, baholash jadvali, smile, tadqiqot, publistik.

Bir yil avval mamlakatimiz rahbarining davlat tili haqidagi qonunning 32 yilligini munosib nishonlash to‘g‘risidagi qarori e’lon qilingan edi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir” degan so‘zlari qalbimizda olam-olam quvonch, iftixor tuyg‘ularni uyg‘otish barobarida zimmamizga ulkan vazifalarni, zalvorli mas’uliyatni ham yukladi. Darhaqiqat, ona tili milliy qadriyat sifatida xalqning milliy uyg‘onishi, milliy o‘zlikni anglashi, jipslashuvi, ma’naviy kamolotga erishuvida tutgan o‘rniga ko‘ra ulkan ahamiyat kasb etadi. Zero, til – millatning qalbi, uning dunyoda borlig‘ining asosiy belgisi. O‘zbek tili milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsolidir. Bu bebaho qadriyat istiqlol zaminidan kuch oldi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi. Bir paytlari burchakka siqib qo‘yilgan, ovozini ko‘tarmay yashashga mahkum bo‘lgan ona tilimizning, ayniqsa, keyingi bir yilda qadri, nufuzi misli ko‘rilmagan darajada yanada ortdi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, o‘zbek tili tarixida yangi davr boshlandi. Zero, endi uning qadrqimmati eng muqaddas tutilgan ne’matlarimiz, boyliklarimizga teng ko‘rilmoqda. Prezidentimiz so‘zi bilan aytganda, “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim”.

Barchamizga ma'lumki, rivojlanib borayotgan mamlakatlarning pedagogik jarayonlari, o‘quvchi tafakkuri va fikrlash doirasi ham rivojlanib bormoqda.

O‘zbekistonda ham yangi o‘qitish metodlari, yangi topshiriqlar, yangi innavatsion darsliklar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kun o‘quvchisi topqir, fikrlari teran va mavzuga har tomonlama baho bera oladigan avloddir.

O‘quvchilarda ona tili va adabiyot darslarida ularning fikrlanini rivojlantirish va dunyqarashini o‘stirish maqsadida turli topshiriqlar berilishi zarur. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Dars davomida qo‘yiladigan muammolar tui hil bo‘lishi mumkin. Xududiy yoki global, mahallalliy yoki areal bo‘lishi mumkin. Muhimi esa, bu topshiriqlar ularning fikrlash qobiliyati, muammoga boshqa boshqa nigoh bilan qarashi baholanadi. Shunday topshiriqlardan biri quyidagicha, hammamiz bilgan skikerlar 1959-yilda mashhur rassom tomonidan chizilgan. Hozirda ular juda ommalashgan, xatto, insonlar so‘zlardan foydalanmay, mana shu smile(stiker) lardan foydalanishadi.

Topshiriq: Mana shu stikerlarga umumiy bo‘lgan o‘zbekcha nom tollpishingiz kerak.

Bunda o‘quvchilar har tomonlama, fikr bildirishadi va o‘z qarashlarini bayon qilishadi.

Yana bir topshiriqda esa, bir emas, ikki masala qo‘yiladi: Inson salomatligi muhimmi yoki iqtisodiyot?

Bunda o‘quvchilar zavodlar ulardan chiqayotgan zaharli tutunlar iqtisodaga foyda, lekin inson sog'lig'iga zarar. Tamaki mahsulotlari, spirtli ichimliklar inson salomatligiga salbiy ta'sir ko‘rsatishini bilsakda, sotiladi va harid qilinadi. Shu sabali iqtisodni tanlash kerakmi, yoki inson salomatligi?

Shu kabi topshiriqlarni ishlab chiqish, topshirish va bajarilishi tekshirish bilan o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarni shakillantirish mumkin.

Toshiriqlar berilib, darlik mashqlari bajarilgandan so‘ng o‘quvchilarga o‘z - o‘zini baholash uchun baholash varog'i taqdim etilari. Baholash varaqasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Baholash jadavali:

1. Dars jarayonidagi ishtiroki:
2. Darsga vaqtida kirishi:
3. O‘quv qurolarini va maktab formasining borligi:
4. Darsda jarayonida ustozlarga bo‘lgan hurmati:
5. Ona tili fanidan o‘zlashtirishi:
6. Adabiyot faniga bo‘lgan qiziqishi:

Ushbu jadval asosida o‘quvchilar o‘zlariga 1da 5gacha baho qo‘yadilar. Ushbu baholash usuli o‘quvchining darsga va o‘ziga bo‘lgan munosabatini bilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида юксак маънавиятли шахс тарбияси. Услубий қўлланма. Тошкент. Баёз.2010 йил,

2. Она тили ўқитишда интерфаол усуллар ва компьютер дастури Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент. Баёз.2013

3. Она тили ўқитиш мазмуни Ўқув –услубий қўлланма- Toshkent: «Navro‘z», 2014

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNING AHAMIYATI

Kamolova Shohista Saypitdinovna
Samarqand viloyati Kattaqo‘rg'on shahar
15-MTT tarbiyachisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7425083

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtirish haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabga tayyorlov, sifatli tayyorlash, sog‘lom va barkamol avlod, nodavlat, Ilk qadam.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ***“Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi”*** deya ta’kidlaydi.

Respublika Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomi maktabgacha ta’limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta’limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilg‘or xorij tajribalarini tadbiq qilish imkononi beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtiriladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1. “Ilk qadam” dasturini ta’lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’minot va metodik yordamning o‘rni belgilab olindi.

2. “Ilk qadam” dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o‘rniga alohida

e’tibor qaratildi. Ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o‘stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg‘ulotlar)

2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg‘ulotlari)

3. San’at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg‘ulotlari va origami)

4. Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo‘lgan syujetli qoidali o‘yinlar)

5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari)

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, til va nutq markazida bolalarning do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bola markazda o‘zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish –yasash ham matematika bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bolalarni o‘yin jarayonida tinglansa “Menga yashil rang kerak”, “Men yasagan uycha ikki qavatli”, “Seniki kichkina, meniki esa kattakon”, “Meni mashinamga 10 ta odam sig‘adi” degan jumlalarni eshitasiz. Demak bolalarning muloqatida qo‘shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.

San’at markazida bolalarni kayfiyatini ko‘tarish imkoni mavjud. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari qo‘llab-quvvatlanadi. San’atning rassomlik, haykaltaroshlik, turlariga hammaga ham bir xil iqtidor berilmagan. Shu sababli bunda faqat iqtidorli bolalar ishtirok etadi. Markaz kerakli jihozlar bilan to‘liq ta’minlansa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o‘rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlasa bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bola nutqining rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz bolalar iqtidorini namoyon bo‘lishi, o‘z mahoratini ko‘rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo‘lib, o‘yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o‘rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladi.

O‘yinda oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o‘rganish) imkoni yaratiladi.

imkoniyatlari juda ilgarilab ketganligi sababli MTT dagi o‘qitish dasturlari shunga mos ravishda intensivlashtirilgan. Sinf muhitini yaxshilash uchun qo‘shiq va harakatli o‘yinlardan foydalanish. Moslashuvchan sinf atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko‘ra muhimroqdir. Sinfda dars boshida inglizcha yoqimli qo‘shiq bilan o‘qituvchi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo‘shiq kuyladilar va uning ohangiga mos ravishda biroz raqsga tushadilar. Bu o‘z-ozidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo‘lishga va qo‘shiqni so‘zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Inglizcha muhit, muhimi, yaxshi o‘quv atmosferasiga tabiiy ravishda kirishga imkon beradi. Bolalarning o‘zini-o‘zi boshqarish qobilyati sust bo‘lib, butun mashg‘ulot davomida e’tiborini jamlashi va egallab olishi qiyin. Bolalar chet tilini o‘rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o‘rganishda qiziq va samarali yo‘l hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. David A. J, Eggen, P Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning [M] 2002.

2. Liu wang. ertong xinglixue kaocha[J]. 2017-18.

3. Feng Wang · Applying Technology to Inquiry-Based Learning in Early Childhood Education [J] ·

SOG‘LOM TURMUSH TARZI – JISMONIY BARKAMOLLIK OMILI SIFATIDA

Ro‘ziboyeva Shahrizoda Otabek qizi
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 40-sonli maktabning
Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538539

Annotatsiya: Maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy barkamolligini taminlash, ularni ommaviy sport orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan ishlar to‘g‘risida malumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yosh avlod, jismoniy barkamollik, sport, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy tarbiya.

Bugungi kunda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport nafaqat millat salomatligini mustahkamlash hamda mamlakatni butun dunyoga tanitish vositasi bo‘libgina qolmay, balki iqtisodiyotning salmoqli foyda keltiruvchi tarmog‘iga va shu bilan bir qatorda sport industriyasiga aylangan. Jahon hamjamiyatida tobora mustahkam o‘rin egallay boshlagan respublikamizda boshqa sohalar qatori jismoniy tarbiya va sportga ham alohida e‘tibor berilmoqda. Qadim-qadimdan mamlakatimiz jahonga mashhur polvonlari, barchani lol qoldirgan chavandozlari, sheryurak yigit-qizlari bilan dong taratib kelgan. Ular haqida ulug‘ bobomiz Alisher Navoiydan tortib, barcha adibu shoirlarimiz, olimu faylasuflarimiz ajoyib va o‘lmas asarlar yaratganlar, she‘ru dostonlar bitganlar, qoshiqlar kuylaganlar. Alisher Navoiyning jahon adabiyoti xazinasidan o‘rin olgan beqiyos kuch-qudratga ega Farhod timsolining o‘zini eslash kifoya. Yana xalq og‘zaki ijodi durdonalarining qaxramonlari Go‘ro;gii, Alpomish, Avazxon, Sheralilarni eslashning o‘ziyoq Turonzamin qadimdan sherbilak va sheryuraklar mamlakati bo‘lib kelganligini bildirib turadi.

Respublikamiz ilk bor mustaqillik maqomiga ega boigan tarixiy kundan boshlab jaraiyat taraqqiyotining muhim omillaridan hisoblangan jismoniy tarbiya va sportga alohida e‘tibor berila boshlandi. Respublikamizda birinchi bo‘lib “Sog‘lom avlod uchun” ordeni ta‘sis etilganligining o‘ziyoq mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning kelajagi porloq ekanligidan dalolat beradi. Chunki aholisi sog‘lom mamlakatning taraqqiyoti ham rivojlanishi ham sog‘lom bo‘ladi.Sport harakati bilan birlashgan turli mamlakatlardan kelgan kishilarning tinchlik uchun kurashchilari ekanliklarini tarix juda yaxshi biladi. Chunki sport o‘z tabiatiga ko‘ra jahon miqyosida tinchlik elchisi vazifasini o‘tab kelmoqda.

Gazeta va jurnallarda e’lon qilib turiladigan maqolalar, radio eshittirishlari, televideniedagi ko‘rsatuvlar yosh avlodda sog‘lom turmush tarziga rioya qilish ehtiyojini yuzaga keltirish, ularda bunday hayotning afzalliklari xususida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishga qaratilgan.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy-intellektual salohiyatini ro‘yobga chikarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talabalarga to‘liq javob beradigan, xar tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. YUrtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Har bir shaxsning turmush tarzi kun sayin ro‘y berayoggan voqea-hodisa va turli o‘zgarishlarning ta’siri ostida shakllanmoqda. O‘zaro munosabatlarning o‘zgarayotgani o‘kuvchilar ruhiyatiga ta’sir etmokda. Natijada ularda o‘z taqdiri, oilasi, jamoasi uchun zarur bo‘lgan aqliy, hissiy va erkiga oid xatti-harakatlar tanlash mas’uliyatini oshirmoqda. Ular natijasida yuzaga keladigan asab kasalliklarining oldini olish zarur. Buning uchun esa eng avvalo shaxsiy va ijtimoiy miqyosda sog‘lom turmushni tashkil etish talab etiladi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari va amalga oshirish yo‘llarini bilishi kerak. Sog‘lom turmush tarzi insonning madaniy, jismoniy rivojlanishi, mehnat unumdorligi va ijodiy faoliyatini oshirishni o‘z ichiga oladi.

Sog‘lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlari – samarali ish faoliyati, shaxsiy gigiena, gigiena talablariga qat’iyan rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish, belgilangan bir vaqtda to‘g‘ri ovqatlanish, jismonan va ruhan chiniqish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanib turish. Sog‘lom turmush tarzi insonning madaniy, jismoniy rivojlanishi, mehnat unumdorligi va ijodiy faoliyatini oshirishni o‘z ichiga oladi. Sog‘lom turmush tarzi – kasalliklarning oldini olishda asosiy tadbirlardandir. Sog‘lom turmush tarzi ma’lum miqdorda ruhiy va jismoniy talablarni qoniqarli darajada amalga oshirishga imkon beradi.

Sog‘lom turmush tarzining shakllanishi inson hayotiy faoliyati sharoitlarini uning valeologik savodxonligi, gigienik malakalariga o‘rgatilishi, uning salomatligini yomonlashtiridigan asosiy omillarni bilishi asosida takomillashtirishni maqsad qilib qo‘yadi. Sog‘liqni saqlash ko‘p jixatdan insonning yashash muhitiga bog‘liq. Jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama taraqqiy ettirish bevosita iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq. Bugungi kunda mustaqil respublikamiz uchun aqliy yetuk, jismonan sog‘lom va baquvvat yigit va qizlar zarur. Mamlakatimiz ilk bor mustaqil qadam tashlay boshlagan dastlabki kezlardanoq bu muhim ishga alohida e‘tibor berila

boshlandi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda. Jamoat, guruh va shaxsdagi jismoniy komillik tarbiya sub‘ekti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu sub‘ektning jismoniy kamolotga bo‘lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Har tomonlama rivojlangan jismoniy barkamol, jismoniy kuch va jismoniy sifatlarning namoyon bolishi talabaning shaxsiy ehtiyoji hisoblanadi.

Jamoatchilik ehtiyoji O‘zbekiston Respubhkasmmg har tomonlama yetuk, jismonan sog‘lom avlodini tarbiyalab, voyagayetkazishdek ulug‘ vazifaga qaratilgandir. Hozirgi kunda bu ehtiyojlar mahkama va idoralarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot rejalarida ko‘zda tutilmoqda. Shuni ta‘kidlab o‘tisb kerakki, jismoniy tarbiya vositalariga bo‘lgan shaxsiy ehtiyoj asosiy hisoblanib, uning negizida jismoniy kamolotning taraqqiy etish hammaishlab chiqarish tarmoqlarida shakllangan. Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o‘zining yo‘nalishiga qarab, o‘quv mashg‘ulot, tashviqot va targ‘ibotchi sport musobaqalariga bo‘linadi.

Sport musobaqalari katta foyda beruvchi tashkiliy-ommaviy, sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlaridan biridir. Badan -tarbiya elementlari belgilari o‘zga tadbirlar bilan birga to‘g‘ri ishlatilsa, talabalar o‘z sog'ligini mustahkamlaydi, umrini uzaytiradi va kayfiyatini yaxshilaydi . Ibn Sino qayd qilib o‘tgan badantarbiya turlariga o‘zaro tortishish (arqon tortish), musht bilan turtishish (boks), kamondan o‘q otish, tez yurish (sportcha yurish), nayza otish, irg‘ib osilish (gimnastika, uskunalarda osilish mashqlari), bir oyoqda sakrash, qilichbozlik va nayzabozlik, otda yurish, ikki qo‘lini silkitish (umumiy gimnastika mashqlari), bir vaqtda oyoq uchlarida turib qoilarini oldiga va orqaga cho‘zib tez harakat qilish mashqlari kiradi. Ko‘rib turibsizki, buyuk olim Ibn Sino tavsiya qilgan badantarbiya mashqlarining turlari bugun bizgacha yetib kelibgina qolmay, balki shu turlardan xalqaro musobaqalar o‘tkazilib kelinayapti. Ushbu harakat o‘yinlari Osiyo va Olimpiada o‘yinlari dasturidan ham o‘rin oigan.

Sport inson organizmiga foydali ta‘siri bilan bir qatorda ”mushaklar quvonchi hissiyotini” ro‘yobga chiqaradi, Sog‘lom damolishni tashkil etishda muhim o‘rin egallaydi, shaxsning o‘zliginianglashda qudratli vosita vazifasini bajaradi. Sport har doim o‘zining ommaviyligi bilan odamlar e‘tiborini jalb qilib kelgan. Sport tadbirlariga tomoshabinlarni jalb etishda hozirgi zamon axborot vositalarining xizmati katta. Shuning uchun ham yuqori ko‘rsatkichli sport ommaviy sportning yuqori pog‘onasi boiib, hamisha iitimoiy hodisalardan hisoblanib kelgan. Tadqiqotchilar ma lumotiga ko‘ra, respublikamiz aholisining 10% dan ortig‘i sport musobaqalarni tomosha qilish uchun bevosita sport mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan sport inshootlariga boradilar, 80 %ga yaqini esa sport ko‘rsatuvlarim televizorda tomosha qilishadi. Xullas sport faqat jismoniy kamolot vositasi bo‘libgina qolmay, balki u ma‘lum darajada o‘ziga xos san‘at vazifasini ham o‘taydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o‘quvchi-yoshlarni to‘g‘rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlik va yuksak axloqlilikka yo‘llash bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini sport mashg‘ulotlari orqali tushuntirish kerak bo‘ladi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi iymoni, e’tiqodi va axloqiy fazilatlari, ma’naviyati kuchli, milliy mas’uliyat tuyg‘usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma’naviy barkamol fuqarolarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyuk kelajak ma’naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko‘taradi.

Adabiyotlar:

1. R.Raxmonov. Jismoniy tarbiya va sport yoshlarning salomatligini mustahkamlashda eng muhim omil sifatida. ―O‘sib kelayotgan yosh avlod jismoniy tarbiyasi va sportda innovatsion texnologiyalar” mavzusida Xalqaro ishtirokchilar hamkorligida respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. CHirchiq, 2019 yil 7 iyun.

2. A.Normurodov. Jismoniy tarbiya. Toshkent, ―Tafakkur-bo‘stonil. 2011 y.

3. A.Abdullaev, SH.X.Xonkeldiev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Farg‘ona, 2001 y.

4. U.Tursunov. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Qo‘qon, 1992.

BOSHLANG‘CH TA’LIMDA SINF RAHBARINING PEDAGOGIK MAHORATI

Shomirzayeva Zulfiya Solijonovna
Namangan viloyati, Namangan tumani
1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang'ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538542

Annotatsiya: 0’zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlaming ma’naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida masuliyat yuklangan. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda sinf rahbarining ish tartibi, pedagogik mahorati va o‘quvchi bilan ishlash tartibi haqida yoritib berishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, sinf, o‘quvchi, ta’lim-tarbiya, metod.

O’zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas’uliyat yuklangan. Chunonchi, bu borada 0’zbekiston Respublikasi raxbari quyidagilarni qayd etadi: «Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas□uliyatli vazifalarni ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlaming ma□naviy dunyosini shakllantirishda ulaming xizmati naqadar beqiyos ekanini o □zimizga yaxshi tasavvur qilamiz». Ushbu fikrlardan bugungi kun o□qituvchisiga nisbatan qo‘yilayotgan talablaming mazmun va mohiyati anglaniladi. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? Mustaqillikdan keyin ushbu muammo ko‘plab olimlaming, ziyoli ahlining, hatto ota-onalarning diqqat-e’tiborida bo‘ldi. O‘qituvchilar uchun zamonaviy, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan metodik va o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar yaratila boshlandi. Lekin bu muammo bo‘yicha izlanishlar, ilmiy-tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmoqda. Hozirgi kundagi global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o‘qituvchisidan pedagogik mahoratni, o‘tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o‘z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo‘lishni talab qiladi. Zero, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarni amaliyotga tadbiq etish, mamlakatimiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi va tarbiyachilaming ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko‘p jihatdan bog'liq . Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim togrisidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilab berilgan ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib yosh avlod talim-

tarbiyasini tashkil etishni kundalik hayotning o‘zi talab qilmoqda. Ya`ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy taffakurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs  komil insonni tarbiyalashdan iborat degan fikrlari yana bir bor boshlang`ich ta`lim o`qituvchilariga ma`suliyat yuklaydi va vazifalarni ado etish pedagogning alohida ijtimoiy roli va uning jamiyatdagi faxrli o‘rnini belgilaydi. Jamiyatda o’qituvchi faoliyati yuksak baholanmoqda va uning obro‘si yuksaltirilmoqda. Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri bu-o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan havasi, e’tiqodi va bilim, qobilyatini rivojlantirish, kasb-hunarga bo’lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o‘quvchining bo‘lg‘usi hayoti rejalarini amalga oshirish, o‘quvchilarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning sinf jamoasi orasida obro‘sini ko‘tarish, o‘z vaqtida ularga tegishli yordam ko‘rsatish sinf rahbarining bevosita asosiy vazifasidir. Shuningdek,sinf rahbarining tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi. Chunki, tashkilotchilik tushunchasining o‘zi keng ma’noga ega. Maxsus bir maqsadni ko‘zlab u yoki bu ishni tadbiriy choralarni tashkil etish sinf rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi. Tashkilotchilik funksiyasi bir necha elementlarga bog‘liqdir:

-o‘tgan ishlarni tashkil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish:

- sinfda o’tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ma’lum maqsadni ko‘zlab o‘tkazilishi va sinf rahbari turli tarbiyaviy ishlarni o‘tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilish lozim.

-sinf rahbari oldiga qo‘yilgan maqsadga yetishish uchun o‘z oldiga aniq vazifa qo‘ya bilish lozim.

-sinf rahbari har bir tadbiriy choralarni amalga oshirishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning qobiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma’lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazish o‘rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimligini aniqlash lozim.

- ma’lumki tarbiyaviy ish bajarishda bajaruvchi kishilarni to‘g‘ri taqsimlash, ishga boshqa o’qituvchilarni, ota-onalar, o‘quvchilar, otaliq tashkilotlari va ish obektini aniqlash lozim.

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o’rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari ortasida g‘oyat murakkab bog liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, yoshlarning maqsadlari (hatto strategik maqsadlari) bor. O‘quvchining rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin. Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib bo‘lmaydi. Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g‘oyaviy ishonchiga va siyosiy ongining darajasiga bog‘liq. Sinf rahbari o‘zining g oyaviy-siyosiy ongini

oshiradi. Bu sinf rahbariga bolalarni onglilik ruhida tarbiyalashga, ular orasiga begona ideologiya va yomon xulqning kirib borishiga qarshi kurasha olish imkoniyatini bera oladi. Sinf rahbarining axloqiy obro’si g□oyat darajada yuqori bo’lishi ham bu o‘rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega boladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma□naviy qiyofasi o’quvchilar ongining va xulqining shakllanishida katta tasir ko‘rsatadi. Sinf rahbari uchun kasbiy malaka va ko‘nikmalarga ega bo’lishning o‘zi yetarli emas. O‘z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi fuqarolik fazilatlari, intizomi va odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta’sir o’tkazadi. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir. Chunki tarbiyachilik talanti juda kop sifatlarni chuqur bilish, keng fikr doirasi, ishga jon dildan ko’ngil qo’yish bolalarga bo’lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq, temperament, aql va odoblilik namunasi, aloqada nazokat va sipolik, vazminlik va kamtarlik kabi fazilatlarning bo’lishini taqozo qiladi. Bunda yana tarbiyachilik texnikasi qo‘shilsa ishda muvaffaqiyat ta□minlanishi tabiiydir. Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tashkil qilib borish zarur. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir biriga bog‘liq bo’ladi va alohida tarzda amalga oshirilmaydi. Maqsadni amalga oshirish usuli □ bo‘lajak natijadir. Natija yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo‘yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Tajribada ma□lum darajada qo’llanilgan har qanday vosita natija beradi, hatto biror sababga ko‘ra maqsad aniq ifodalanmagan bo’lsa ham natija bervermaydi. Tajribada mavjud bo‘lgan pedagogik vositalarning ikkitasini ko‘rib chiqamiz. Birinchisi: har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar, shartlar bilan bogliq bo‘ladi, ular pedagogik jarayoning muayyan bosqichida tasir ko’rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan rag□batlantirish bir xil jarayonlarni tezlashtirish va boshqarishga to’siqnlik qilish, turli salbiy va ijobiy hissiyotlarning turli □ tuman ko’rinishlarini vujudga keltirishi mumkin. Ikkinchi: ayrim vositalarni qo’llanish pedagogning ular ta□sirini, mumkin bolgan ozgarishini anglash qobiliyatlariga butunlay bog‘liq bo‘ladi. jamoa muomala sharoitida vositalarni qo‘llash minut sayin o‘zgarib turadigan vaziyatni hisobga olish zarurligini taqazo qiladi. Pedagoglarda biz albatta oliyjanoblik hissini tarbiyalashimiz shart. Oliyjanoblik qalbning o’ziga xos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g‘urur hislarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Pedagogning o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati mehr, hayrihohlikdan iborat bo‘lishi kerak. Ma’lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo’lib, o‘quvchilar oldgiga qo‘yib o‘zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini kuzatib borishi yetarli degan xulosaga kelgan pedagoglar katta xatoga yo‘l qo‘yadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahkamov M. «Bo’lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2005.

2. Karimov I. A. Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O’zbekiston. 1998 yil.

3. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.- T.:"Tib-kitob", 2010.

4. Ochilov M. Muallim qalb me’mori T.: O’qituvchi 2001.

PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH VA O’QUVCHILARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI ANIQLASH

Mirmuhamedova Farida Saidolim qizi
Toshkent shahar Bektemir tumani 337-umumiy o’rta ta’lim maktabining
Matematika fani o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538548

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’quvchilarning matematik savodxonligini aniqlash, matematik savodxonlik darajalarini belgilash, o’quvchilarning metamatik savodxonligini oshirishda e’tibor berilishi kerak bo’lgan jihatlar, matematik savodxonlikni aniqlashda xalqaro PISA topshiriqlaridan foydalanish kabi masalalar bayon etilgan hamda misollar bilan tahlil qilingan.
Kalit so’zlar: matematik savodxonlik, matematik savodxonlik darajalari, PISA, baholash, kompetentlik, PISA topshiriqlari.

Matematik savodxonlik deganda o'quvchilarning quyidagi qobiliyatlari tushuniladi:

- atrofdagi haqiqatda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va matematikadan foydalanib hal qilish;
- bu muammolarni matematika tilida ifodalash;
- matematik faktlar va usullarni qo'llash orqali ushbu muammolarni hal qilish;
- ishlatilgan usullarni tahlil qilish;
- qo'yilgan muammoni hisobga olgan holda olingan natijalarni tushuntirish, talqin qilish;
- natijalarni, yechimlarni shakllantirish, ularni ifodalash va qayd etish.

PISA tadqiqotlarida 15 yoshdagi o'quvchilarning matematik tayyorgarligini tekshirish mazmuni matematik savodxonlik tushunchasi bilan bog'liq. Shunday qilib, PISA topshiriqlarida o'quvchilarga odatiy bo'lmagan matematik ta’lim vazifalari taklif etilgan. Bu vazifalar atrofdagi hayotning turli jihatlariga taalluqli haqiqiy muammoli vaziyatlarga yaqin bo'lib, maktab hayoti, jamiyat, o'quvchilaming shaxsiy hayoti, kasbiy faoliyat, sport va hokazolar haqida ma’lumot beradi. Bu vazifalar ularni hal qilish uchun ko'proq yoki kamroq matematikani talab qiladi. Tadqiqot konsepsiyasiga muvofiq, har bir topshiriq turli mamlakatlardagi o'quvchilarning matematik tayyorgarligini taqqoslash uchun ishtirokchi mamlakatlarning kelishilgan qaroriga asosan tanlangan to'rtta kontentdan biriga to'g'ri keladi:

1. Miqdorlar;
2. Fazo va shakl;
3. O'zgarishlar va munosabatlar. 4. Noaniqliklar

O'quvchilarning matematik savodxonligi holati, tanlangan mazmun sohasining materiallariga ega bo'lishdan tashqari, “matematik kompetentlik”ning rivojlanish darajasi bilan ham tavsiflanadi. O'quvchilarning matematik kompetentligi “matematika bo'yicha bilim, ko'nikma, tajribasi va qobiliyatlari majmui” sifatida baholanib, matematikadan foydalanishni talab qiluvchi turli muammolami muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi.

Tadqiqotlarda matematik kompetentlikning uchta darajasi: qayta tiklash darajasi, aloqalar o'rnatish darajasi, mulohaza yuritish darajasi belgilangan. Tadqiqotda matematik kompetentlik darajasini aniqlash uchun quyidagi faoliyat turlari aniqlanadi:

a) qayta tiklash (takrorlash), ta’riflar va hisob-kitoblar;
b) muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan aloqalar va integratsiya;
c) matematik modellashtirish, mantiqiy fikrlash, umumlashtirish va intuitsiya.

Bu faoliyat turlari o'sib, kuchayib borish tartibida keltirilgan. Biroq, bu keyingi faoliyat turini amalga oshirish uchun avvalgi turlarni mohirona o'zlashtirish kerak degani emas. Masalan, matematik fikrlashni boshlash uchun hisob-kitoblarni o'zlashtirish kerak emas.

Misol 1. Miqdorlari teng bo'lgan ikki g'ildirakli va uch g'ildirakli velosipedlar bolalar o'yinchoq do'konida sotilmoqda. Barcha velosipedlar g'ildiraklari umumiy soni qancha bo'lishi mumkin?

A) 16; B) 24; C) 25; D) 28; E) 33.

Yechish. Ikki va uch g'ildirakli velosipedlar soni teng bo'lgani uchun ulaming g'ildiraklari soni 5 ga karrali bo'lishi kerak. To'g'ri javob: C.

Misol 2. Tadbirkorlik ko'lamini rivojlantirish uchun ikki sherik 50 ming dollar ajratdi. Bozorda narxlarning o'zgarishi munosabati bilan birinchisi o'z ulushini 30 foizga, ikkinchisi esa 70 foizga oshirdi. Natijada ularning umumiy kapitali 81ming dollarga teng bo'ldi. Har bir sherik qancha hissa qo'shgan?

Yechish:Bu holatni ikki o'zgaruvchili chiziqli tenglamalar sistemasi sifatida modellashtirish mumkin. Aytaylik, **x**-birinchi sherikning hissasi, *y* - ikkinchisining hissasi bo'lsin. Narxlar o'sishidan keyin birinchi sherik hissasi - l,3x, ikkinchi sherik hissasi esa 1 ,7**m** ga teng bo'ladi. Chiziqli tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz: *x* +y=5000,

l,3x + l,7n = 81000.

Uni yechib, birinchi tadbirkor 13 ming, ikkinchisi esa 68 ming dollar hissa

qo'shganini topamiz.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, o'quvchilar kompetentlik darajasida taqdim qilingan vaziyatni matematik modellashtirish talab qilinadi: masala shartida berilgan ma’lumotlarni tahlil qilish, o'rganish va mustaqil ravishda matematik modelini talqin qilish, muammoni hal qilish uchun matematikadan foydalanish, matematik mulohazalar yordamida hal qilish yo'lini topish, zaruriy matematik dalillar, isbot va umumlashtirishlar. Ushbu faoliyat tanqidiy fikrlash, tahlil va mushohada yuritishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar nafaqat taklif etilayotgan muammolarni hal qila olishlari, balki uni masaladagi vaziyatga mos ravishda shakllantirishlari, shuningdek, matematikaning ilm-fan sifatidagi mazmun va mohiyatini chuqur tushunishlari kerak. Ushbu kompetentlik darajasi matematik savodxonlikning eng yuqori cho'qqisi bo'lib, uning markazida turadi, baholash va sinov jarayonida katta qiyinchiliklar tug'diradi. U bo'yicha erishilgan natijalarni baholash uchun javoblari tanlanadigan testlardan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Bu daraja uchun javobi ochiq bo'lgan topshiriqlar mos keladi. Bunday topshiriqlarni ishlab chiqish va baholash juda qiyin vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Matematika fanini o’qitishda innovatsion yondashuvlar. O’quv-uslubiy majmua. –Termiz.:2020.
2. Internet manbalari: www.ziyonet.uz, www.referat.uz, www.arxiv.uz

GEOGRAFIYADA GENDER TADQIQOTLAR

Niyazmatova Dilnoza Valijon qizi
Farg’ona viloyati Rishton tumani 1-umumiy o’rta ta’lim maktabi
Geografiya fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Geografiyada Gender tadqiqotlar,Ayollar va erkaklar orasidagi sotsial tafovutlar haqida fikr bildiriladi.

Kalit so’zlar: Gender tushunchasi, gender geografiya, sotsial-demografik jarayonlar, urug, zot, jins, nasl.

XX asrda sodir bo`lgan faol ijtimoiy o`zgarishlar hayot tarsi va ijtimoiy me`yorlarning tub o`zgarishlariga olib keldi.Buning natijasida geografiyada yangi ilmiy yo`nalishlar shakllandi.Ana shunday yo`nalishlardan biri gender geografiyasidir (The Geography of Gender).Inglizcha “gender” so`zi lotincha “genus” so`zidan kelib chiqqan bo`lib,o`zbek tilida “urug`, zot, nasl” ma`nolarini anglatadi.Bu tushuncha odamning jamiyatdagi maylini (xulqini) va bu mayl qanday idrok qilinishini belgilaydigan sotsial jinsdir. “Gender” tushunchasi turli jamiyat va madaniyatlarda farq qiladigan ayollar va erkaklar orasidagi sotsial tafovut va munosabatlarga mansub. U “jins” tushunchasidan farq qilgan holda erkaklar va ayollar o`rtasidagi jismoniy tafovutlar emas, balki ularning sotsial tarkib topgan munosabatlariga va rollariga mansub. Ukrainalik geograf N.I.Mezensyevaning (2013) fikricha gender odamningf sotsial-rolli maqomini va uning maylini (xulqini) anglatadi.Bu maqom erkaklar va ayollarning siyosiy va boshqaruv tuzilmasiga, kasbiy faoliyatiga, ma`lumotiga,oilaviy roliga va reproduktiv mayliga yetishishdagi sotsial imkoniyatlari bilan belgilanadi.M.Savoskupning bildirishicha (2013), gender – bu erkaklar va ayollar rollarining biologic jihatdan va ma`lum munosabatlarga bog`liq bo`lmagan sotsial-madaniy jihatidir (sotsial jins).

Gender geografiyasi amerika va ingliz geografiya maktablarida XX asrning 70-yillarida vujudga keldi.Ijtimoiy geografiyaning tarkibiy qismi sifatida gender geografiasi AQSh va Buyuk Britaniyada deyarli bir paytda rivijlana boshladi.Bu yillarda gender roller, munosabatlar,ularning regional farqlari va joy,landshaftlar va atrof muhit bilan o`zaro ta`siri geografik tadqiqotlarda innovatsion va ancha keng ma`lum bo`lgan jabhalarfa aylandi.Xalqaro Geografik Ittifoqda doimiy ravishda ish olib boradigan “Gender va geografiya” komissiyasi faoliyat ko`rsatadi. Komissiyaning gender geografiyasi bo`yicha 2008-2013-yillardagi bosh mavzusi gender tadqiqotlarni nafaqat ingliz-amerika markazida, balki jahonning bunday tadqiqotlar olib borilayotgan turli regionlaridagi tadqiqotlarni kengaytirish va qo`llab-quvvatlashdan iborat bo`ldi.Komissiya tomonidan geograflarning gender

tadqiqotlarining roli va ahamiyatini oshirish va olimlar orasida tadqiqotlar metodologiyasi va gender dasturlari bo`yicha hamkorlikni ta`minlash maqsadlarida bir qancha simpoziumlar o`tkazdi (Mezensyeva, 2013). 2009-yilda Vengriya va Ruminiya uchrashuvlarda taqdim etilgan materiallarni o`z ichiga olgan “Postsotsialistik, neoliberal dunyoda geografiya va genderni o`qitishning istiqbollari” mavzusida kitob nashr qilindi.

Gender geografiyasiga oid tadqiqotlar MDHning ba`zi mamlakatlarida, xususan Rossiya Federatsiyasi,Ukraina va Belarus Respublikalarida XXI asrning dastlabki yillarida boshlandi.Mamlakatimizda esa 2019-yil avgust oyida Senat “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to`g`risida”gi Qonunni ma`qulladi.

Ukrainalik geograf N.I.Mezensyevaning (2013) fikricha, gender geografiyasi ijtimoiy-geografik fan bo`lib, ijtimoiy-geografik jarayonlarda gender o`zaro nisbatlarining regional farqlarini,gender identifikatsiyasi va jamiyatdagi gender rollarini idrok qilishning regional xususiyatlarini o`rganadi.

Gender geografiyasining obyektini turli ijtimoiy-geografik jarayonlardagi, regionlardagi gender o`zaro nisbatlari va regional sotsiumdagi gender identifikatsiyasi, predmetini esa gender o`zaro nisbatlari va gender identifikatsiyasidagi hududiy tafovutlar tashkil etadi.

Gender o`zaro nisbatlarining eng aniq hududiy tafovutlari mehnat resurslari, sotsial-demografik, siyosiy,boshqaruv va ilmiy-ma`rifiy jarayonlarda namoyon bo`ladi.Ular disproporsiyalarining regionlararo va hamda shahar va qishloq joylari orasidagi disproporsiyalarga tegishli.

A.Stepanenko (2000) sotsial geografiyaning tarkibiy qismi bo`lgan gender geografiyasi siyosiy va elektorial geografiya, aholi turmush darajasi va sifati geografiyasi, tibbiyot geografiyasi va boshqa fanlar bilan bir qatrda tarmoq fanlariga mansub deb hisoblaydi. Gender geografiyasining tadqiqot predmetiga hududiy o`lchamdagi gender munosabatlarining nazariy asoslari, butun zamonaviy madaniyat antroposentrizmining regional xususiyatlarini ochib berish, gender rollari sistemasini regional o`lchamda o`rganish kiradi.

L.Nemets (2008) ijtimoiy geografiya gender muammolarini tadqiq qilish uchun zarur bo`lgan barcha nazariy-metodoogik asoslarga ega deb hisoblaydi.Ayrim hududlar va umuman regionlar sotsial rivojlanishining gender jihatlari,gender muammolarishakllanishining sharoit va omillarini aniqlash, hududiy jihatdan gender notengligi dinamikasi tadqiq qilish gender geografiyasi tadqiqotlarining asosiy yo`nalishlaridir.

Gender geopgarfiyasi erkaklar va ayollar (jinslar) munosabatlarini tahlil qilishda asosiy e`tiborni bu munosabatlarda ayolning o`rnini tushuntirishga, ya`ni gender tadqiqotlarga qaratadi. “Gender geogarfiyasi” va “Feministik geografiya”

tushunchalari o`zaro aynan o`xshashlikka ega emas.Feministik geografiyaning tarkib topishi va rivojlanishi ayollarning makondagi maylining sotsial va psixologik xususiyatlarini o`rganish va ularda joy va muhitni idrok qilish zaruriyati bilan bog`liq. Feministik geogrfiya hududiy sotsiumlarning har xil turlarida (shaharlarda, qishloqlarda, shahar yonida, turli madaniyatlarda va b.) ayolning sotsial roli va o`rnini, shuningdek jinslar orasidagi xalqaro mehnat taqsimotini, turli hududlarning ayollari uchun o`ziga xos muammolarini, ayollar mehnatini diskriminasiyasidagi sotsial va iqtisodiy tafovutlarni va yashahs joyini tanlashda ayollarning o`rnini, migratsiya to`g`risida qarorlar qabul qilish, ayollar va erkaklarda muhitning ayrim unsurlarini nisbatan afzalliklardagi tafovutlarni va boshqa shularga o`xshash jarayonlarni o`rganadi.Barcha holatlarda nafaqat subyektlar – erkaklarga, balki subyektlar ayollarga ham qaratiladigan fanni yaratish gender geografiyasining vazifalariga kiradi.

Ijtimoiy-geografik jarayonlardagi gender o`zaro nisbatlarining regional tafovutlari: gender siyosatining davlat strategiyasi uning qonunchilik va institutsional ta`minlanishi; hududning sotsial- iqtisodiy rivojlanishining darajasi va aholi turmush sifati; hududning shaharlashuv darajasi; xo`jalikning ixtisoslashuvi, aholining jinsiy-yosh tuzilmasi, aholi turmush tarsi va mentalligi, jamiyatdagi tarqalgan gender stereotiplari bilan bog`liq.

Gender geografiyasida asosiy yo`nalishlarni regionlarda siyosiy va boshqaruv jarayonlaridagi, mehnat bozoridagi, ta`lim va ilmiy faoliyatdagi, sotsial- demografik jarayonlardagi gender o`zaro nisbatlarini, ularning dinamikasi va xususiyatlarini tadqiq qilish tashkil etadi.

Siyosat va boshqaruv jarayonlaridagi tadqiqotlar qonun chiqaruvchi va ijoriya hokimiyatining yuqori organlarida, regional rahbarlar va mahalliy o`z-o`zini boshqarish organlari rahbarlari orasida, siyosiy sohada, saylovlarda gender o`zaro nisbatlarining tahlilini taqoza etadi.

Mehnat bozorida bunday tadqiqotlar erkaklar va ayollarning bandligi va ishsizligini, ish haqi va daromadlarining, martaba imkoniyatlari va ularga erishishdagi biznes faoliyatidagi gender o`zaro nisbatlarini tahlil qilishga yo`naltiriladi.

Sotsial-demografik jarayonlarda erkaklar va ayollar umr ko`rish va o`lim darajasidagi o`zaro nisbatlar, erkakalar va ayollar orasidagi sotsial muammolarning tarqalishi (jinoyatchilik, alkogolizm, suisid, odam savdosi va oiladagi zo`ravonlik) tadqiq qilinadi. Regionlarda gender o`zaro nisbatlarining dinamikasi va xususiyatlar, gender indikatorlari va sotsial- iqtisodiy rivojlanish indikatorlarining o`zaro ta`sirini, jamiyatda gender identifikatsiyasi, stereotiplari va gender rollarining o`zgarishidagi regional tafovutlarni tadqiq qilish gender geografiyasida mihim yo`nalishlardir.

Men o`zimizning sotsial- geografik tadqiqotimizda mamlakatimizning o`ziga xos sotsial- iqtisodiy geografik xususiyatlarga ega bo`lgan iqtisodiy rayoni – Qashqadaryo viloyatining gender o`zaro nisbatlarini o`rganishga yo`naltiraman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. N.I.Mezensyeva “Gender geografiya ” 2013-yil

2. “Postsotsialistik, neoliberal dunyoda geografiya va genderni o`qitishning istiqbollari’’ 2009-yil

3. M.Qirg`izboyev “Sotsiologiya” 2017-yil

4. Bo`riyeva M.R., Tojiyeva Z.N. “Aholi geografiyasi” 2000-yil

www.ziyonet.uz

HUJAYRANING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Vohidova Hayotxon Ibrohimovna
Farg’ona viloyati Rishton tumani 1-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabining biologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hujayralarning tuzilishi, turlari, ularning organizmlarda joylashuvi hamda o’ziga xos xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: hujayra, tirik organism, nanogramm, bir hujayralilarm ko’p hujayralilar, to’qima, ribosoma, lizosoma, Golji kompleksi, motixondriya, endoplazmatik to’r, sitoplazma, xromosoma.

Hujayra(lot. sellula, sulis-katakcha)- barcha hayot organizmlarning tuzilish, tarkibiy va funksional birligidir. Hujayra organizmning yashayotgan eng kichik bo‘lagi, deb belgilanadi. Ba’zi organizmlar (masalan, bakteriyalar) bir hujayralidir, ya’ni faqat bitta hujayraga ega. Boshqa organizmlar esa ko‘p hujayralidirlar (masalan, o‘rtacha odam 100 trillion yoki 10^{14} hujayradan iboratdir; o‘rtacha hujayra o‘lchami 10 mikrometr, massasi esa 1 nanogramdir). Eng katta hujayra tuyaqush tuxumi bo‘lib, uzunligi 15 sm, massasi 1.4 kg gacha bo‘ladi. Hujayrani ilk marta Robert Guk 1665-yilda kashf qilgan.

Alohida organizm sifatida hayot kechirishi yoki ko‘p hujayrali organizmlar to‘qimalari tarkibiga kirishi mumkin. Genetik apparat eukariotlarda sitoplazma membrana bilan ajralgan yadroda, prokariotlar esa nukleoidda joylashadi. Jinsiy hujayra meyoz natijasida hosil bo‘ladi.

Hujayra o‘lchami 0,1—0,25 mkm dan (ayrim bakteriyalarda) 155 mm gacha (tuyaqush tuxumi). Hujayraning xilma-xil funksiyasini ixtisoslashgan ichki strukturalar - organoidlar bajaradi. Hujayraning universal organoidlari: yadroda-xromosomalar, sitoplazmada - ribosomalar, mitoxondriyalar, endoplazmatik to‘r, Golji kompleksi, lizosomalar. Ayrim manbalarda hujayra membranasi ham organoidlar qatoriga kiritiladi. Ko‘pchilik hujayralarda bo‘ladigan membrana strukturalari mikronaychalar, mikrofibrillalar hujayra shaklining, hujayra kiritmalari hujayra tarkibining doimiyligini ta’minlash vazifasini bajaradi.

Hujayra ichida va organizmning ichki suyuq muhitida bo‘ladigan oqsillar, jumladan, fermentlar ham hujayrada sintezlanadi. Hujayraning har qaysi organoidi faqat unga xos vazifani bajaradi. Masalan, eukariotlarda hujayraning nafas olishi faqat mitoxondriyalar membranalarida, oqsil sintezi - ribosomalarda kechadi. Fermentlarning konsentratsiyalanishi va ularning hujayra strukturasida muayyan tartibda joylashuvi kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirib, ketma-ket borishini

ta’minlaydi. Hujayraga xos mikrogeterogenlik xususiyati bir xildagi komponentdan bir vaqtning o‘zida har xil moddalarni juda oz miqdor (mikrohajm)da sintezlash imkonini beradi. Ixchamlik prinsipi ayniqsa DNK strukturasi uchun xos. Masalan, odam tuxum hujayrasining 61012g keladigan DNK si organizm uchun xos bo‘lgan barcha oqsillarni kodlaydi. Hujayra ichida ionlarning muayyan konsentratsiyasi saqlanadi. Hujayra muhitdan yirik molekulalar, jumladan, oqsillar, hatto viruslarni pinotsitoz, ayrim mayda hujayralar va ular fragmentlarini fagotsitoz orqali yutish xususiyatiga ega.

O‘simlik hujayrasi hujayra membranasi sirtidan qattiq qobiq bilan qoplangan. Hujayra qobig‘ida teshikchalar bor. Bu teshikchalardan o‘tadigan sitoplazma o‘simtalari orqali qo‘shni hujayra o‘zaro bog‘langan. O‘sishdan to‘xtagan hujayra qobig‘iga lignin, kremnezem yoki boshqa moddalar shimilishi natijasida ancha pishiq va qattiq bo‘lib qoladi. O‘simlik yog‘ochining pishiqligi ana shu moddalarga bog‘liq. Ayrim o‘simliklar to‘qimasi hujayralari ayniqsa juda pishiq. Hujayra devoriga ega bo‘lib, hujayra halok bo‘lgandan so‘ng ham o‘zining tayanch skeletlik funksiyasini saqlab qoladi. Ixtisoslashgan o‘simlik hujayrasining bir necha yoki bitta markaziy vakuolasi bor; ularda har xil tuzlar eritmasi, uglevodlar, organik kislotalar, alkaloidlar, aminokislotalar, oqsillar, hatto zaxira suv bo‘ladi. O‘simlik hujayralari sitoplazmasida maxsus organoidlar - plastidalar bor; Golji kompleksi esa sitoplazmada tarqalgan diktiosomalardan iborat.

Barcha eukariotlar hujayrasi bir xildagi organoidlar va metabolizmni boshqarish mexanizmlariga ega. Ular prokariotlar singari metabolizmni boshqarish, energiyani jamg‘arish va saqlash, oqsil sintezida genetik koddan foydalanish xususiyatiga ega. Barcha hujayra membranasining funksiyasi ham o‘xshash. Hujayra tuzilishi va funksiyasining o‘xshashligi ular kelib chiqishidagi umumiylikdan dalolat beradi. Biroq organizmdagi hujayra o‘lchami va shakli, u yoki bu organoidlari soni, fermentlar majmui bilan bir-biridan farq qiladi. Bu farq organizmdagi hujayraning o‘zaro kooperatsiyasi va ularning funksional ixtisoslashuvi bilan bog‘liq. Bir hujayralilar hujayrasining tuzilishi va funksiyasi o‘rtasidagi tafovutni ko‘p jihatdan ularning yashash muhitiga moslanishi bilan tushuntiriladi. Genetik apparat tuzilishidagi o‘xshashlik prokariot va eukariotlar kelib chiqishidagi umumiylikni tushuntirish uchun dalil bo‘ladi. Ammo bir hujayralilarning ajdodi har xil prokariotlar bo‘lishi ham mumkin. Simbiogenez nazariyasiga binoan bir xil prokariotlar xo‘jayin hujayra mitoxon-driyalariga, boshqalari - xloroplastlarga aylangan va organoid tarzida o‘z-o‘zidan ko‘paya boshlagan. Boshqa nazariyaga binoan esa prokariot hujayraning strukturalari asta-sekin rivojlanib, eukariotga aylangan.

Bir organizmning barcha hujayralari genomi potensial axborot hajmi jihatdan urug‘langan tuxumhujayra genomidan farq qilmaydi. Ixtisoslashgan hujayra yadrosini yadrosi olib tashlangan hujayraga ko‘chirib o‘tkazilganda normal organizm

rivojlanishi buni isbotlaydi. Ko‘p hujayrali organizmda hujayra xossalari o‘rtasidagi farq genlar faolligining bir xil bo‘lmasligi tufayli kelib chiqadi. Hujayraning har xil ixtisoslashuvi natijasida bir xil hujayralar (nerv) qo‘zg‘aluvchanlik; boshqalari (muskul) miofibrillalar hosil qiluvchi oqsillarga ega bo‘lishi tufayli qisqarish, uchinchi xillari (bezli hujayra) hazm qilish fermentlari va gormonlarni sintezlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Ko‘pchilik hujayra ko‘p funksiyali, mas, jigar hujayrasi qon plazmasi va o‘t suyuqligi oqsillarini sintezlaydi; glikogen to‘playdi va uni glyukozaga aylantiradi; yot moddalar (jumladan, dorilar)ni parchalaydi. Barcha hujayrada umumiy funksiyaga ega bo‘lgan genlar faol bo‘ladi. Shunday qilib, har xil hujayralar o‘rtasidagi o‘xshashlik belgilari ularni bir-biridan farq qiluvchi belgilarga nisbatan ko‘proq bo‘lib, kelib chiqishi va funksiyasiga ko‘ra o‘xshash hujayra to‘qimalarni hosil qiladi. Metabolitlar va ionlar - hujayradagi jarayonlarni boshqaruvchi omillar. Ular genlarga ta’sir etish orqali fermentlar sintezini yoki bevosita fermentlarning o‘ziga ta’sir ko‘rsatib, ular faolligini o‘zgartirishi mumkin. Bunday o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari tufayli hujayrada hayot uchun muhim bo‘lgan ko‘p jarayonlar optimal holda saqlanib turadi. Hujayralarning o‘zaro ta’siri, nerv va gormonlarning hujayra faolligini o‘zgarishiga olib keladigan xususiyatlari tashqaridan boshqaradigan omillarga kiradi. Bunday omillar hujayraning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab turish uchun zarur. Hujayra kulturasiga xos sun’iy sharoitda hujayraning o‘ziga hos ko‘pgina xususiyatlari yo‘qoladi. Eukariot hujayra mitoz orqali o‘z-o‘zidan ko‘payadi. Odam organizmidagi hujayralar soni 1014. Ayrim to‘qimalarda hujayra soni hayot davomida doimiy bo‘lib qoladi; faqat kam ixtisoslashgan hujayraga bo‘linadi. Masalan, odam organizmida sutka davomida 70 mlrd. ga yaqin ichak epiteliysi hujayrasi, 2 mlrd. eritrotsit nobud bo‘lib turadi. Bir qancha to‘qimalarda hujayra to‘liq ixtisoslashgan holda hujayra sikliga kiradi. Bunday hollarda mitoz hujayra bo‘linmasdan xromosomalarning 2 hissa ortishi bilan tugaydi yoki mitoz boshlanmasdan xromatidlar soni 2 hissa oshadi. Ayrim ixtisoslashgan hujayra yadrosi umuman hujayra sikliga kirishmaydi (masalan, neyronlar, skelet muskullari tolasi). Bunday hollarda hujayra hayoti organizm umrining uzoqligiga teng bo‘ladi. Odam hujayrasi o‘rtacha 1-2 kun (ichak epiteliysi) yashaydi. Barcha hujayralarda moddalar va struktura elementlari faol yangilanib turadi. To‘qimalarni hosil qiluvchi beqiyos ko‘p sonli hujayralardagi metabolitik va boshqaruv jarayonlarining o‘zaro bog‘langanligi, ular tarkibining doimo yangilanib turishi ko‘p hujayrali organizm organlarining nuqsonsiz ishlab turishini ta’minlaydi. Hujayrani sitologiya fani o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Parmyonov K.Ya, Smorgonskiy L.M. Kimyodan o’qish kitobi. – Toshkent.: ”O’qituvchi”.,1969 yil.
2. Internet manbalari: www.ziyonet.uz, www.referat.uz, www.arxiv.uz

AMIR TEMUR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI

Maqsudova Nigoraxon Raximovna
Farg’ona viloyati Rishton tumani 1-umumiy o’rta ta’lim maktabi
Tarix fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur davri tarixshunosligi masalasi Amir Temur davrida yashagan va ijod qilgan tarixchi olimlar tomonidan yozilgan asarlar hamda ulardagi ma’lumotlar asosida tahliliy fikrlar bilan yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Amir Temur, tarix, tarixshunoslik, “Zafarnoma”, “Ro’znomai G’azovoti Hindiston”, temuriylar, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy.

Amir Temur hayoti va faoliyatini gavdalantirish uning zamoni mohiyati, ruhi, muhitini tasvirlash uchun gapni tarix fani tayanib kelgan va bundan keyin ham tayanadigan asos zaminli eng muhim yozma manbalardan boshlash maqbul. Amir Temur hayot davrida zamondoshlari tomonidan va uning homiyligida yoki Sohibqiron vafotidan keyin hali voqealarning ohori to’kilmagan holda yaratilgan asarlar ilk manbalar sifatida g’oyat qimmatlidir. O’sha davr taqozosiga ko’ra bu asarlar forsiy tilda yozilgan.

Buyuk olim G’iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning “Ro’znomai g’azovoti Hindiston” (“Hindistonga yurish kundaligi”) risolasi Amir Temur faoliyatiga oid ilk asar hisoblanadi. Bu risola Amir Temurning shaxsiy ko’rsatmasi bilan 1399-1403 yillar oralig’ida yozilgan. Unda 1398-1399 yillardagi yurish batafsil tasvirlangan. G’iyosiddin Ali risolasiga Amur Temurning munosabati e’tiborga sazovordir. Bu munosabat Amir Temur shaxsiy xislatlarining ayrim jihatlarini birmuncha yoritib beradi. Yuqorida ta’kidlanganidek, bu asar “G’ayritabiiy iboralarsiz va kitobxon uchun tushunarli uslubda” yozilishi lozim edi. Shu sababli G’iyosiddin Alining ko’pincha asosiy ishga aloqasi bo’lmagan va bayon mavzuini xiralashtiradigan, tushinish qiyin bo’lgan dabdabali va jimjimador tasvirlari Amir Temurga uncha yoqmadi. Ammo shunday bo’lsa ham, G’iyosiddin Ali Yazdiyning risolasi unda aniq ma’lumotlar bayon etilgani jihatidan qimmatli manba hisoblanadi. Amir Temur va temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar orasida Niomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlari, o’ziga xosligi va qimmatli dalillarga boyligi bilan, shubhasiz, birinchi o’rinda turadi. Nizomiddin Shomiy (taxminan 1409-yilda vafot etgan) o’z asarini 1402-1404 yillar orasida Amir Temurning topshirig’i bilan yozgan. Asarda Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishidan (1370) to uning G’arbiy Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Turkistonga qilgan yetti yillik yurishi (1399-1404) voqealari bayon etilgan. Asarning oddiy til va sodda uslubda yozilganligi undan foydalanishni yengillashtiradi. Nizomiddin

Shomiyning “Zafarnoma”si bizgacha ikki tahrirda yetib kelgan. Birinchi tahriri 1404-yil iyun oyida Amir Temurning Erondan Movaraunnahrga qaytish paytida unga taqdim qilingan nusxa bo’lib, hali unga nom berilmagan edi. Ikkinchi tahriri o’sha paytda Ozarbayjon va Iroqni idora qilib turgan Mironshohning o’g’li Mirzo Umarga taqdim qilingan nusxadir. Muallif uni bir qadar tahrir qilgan. Muqaddimaga ba’zi qo’shimchalar kiritgan. Mashhur tarixshunos olim Hofizi Abro’ Shomiyning bu asariga qo’shimcha yozgan va u “Zayli Zafarnomai Shomiy” deb ataladi. Unda Amir Temur vafotigacha (1405-y. 18-fevral) bo’lib o’tgan voqealar bayon etilgan. Mazkur asarning qo’lyozma nusxalari juda kam bo’lib, Turkiya hamda Armaniston kutubxonalarida saqlanadi. Asardan ko’p parchalari rus tilida “Сборник материалов, относящихся к истории Золотой орды”(M.,1941) va “Материалы по истории туркмен и Туркмении”(M.,1939) nomli majmualarda e’lon qilingan. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”sining matni, zarur izohlar va ko’rsatgichlar bilan to’ldirilib, chex sharqshunos olimi Feliks Tauer tarafidan chop etilgan. Asarning Najotiy Lug’at qilgan turkcha va o’zbekcha (1996 y) tarjimalari ham bor.

Yana bir “Zafarnoma” Sharafuddin Ali Yazdiy (1454 y. vafot etgan)ning qalamiga mansub bo’lib, ko’tarinki uslubda bahodirlik qissasi tarzida yozilgan. Asar “Zafarnomai Temuriy”, “Tarixi jahonkushoyi Temuriy”, “Fathnomai Sohibqironiy” nomlari bilan ham atalgan bo’lib, Nizomiddin Shomiy asari asosida yozilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy asarining bir qancha afzal taraflari bor. Masalan, ko’plab dalil va hodisalar aniqlab yozilgan. Xalil Sulton hukmronligi yillari voqealarini ham o’z ichiga olgan. Asarning yana bir muhim afzalligi shundaki, uning katta muqaddima qismi ham bo’lib, unda Jo’ji, Chig’atoy uluslari hamda Elxoniylar davlatining Amir Temurgacha bo’lgan tarixi qisqacha bayon etilgan. Muqaddima “Tarixi Jahongiriy” va “Muqaddimai Zafarnoma” nomlari bilan ma’lum. Sharfuddin Ali Yazdiy bu asrni Fors hokimi, Temuriyzoda Ibrohim Sultonning topshirig’i bilan yozgan (1425). Asar Amir Temur tarixi, uning tavallud topishidan (1336) to Xalil Sulton hukmronligiga chek qo’yilishigacha (1409) bo’lgan davrda Movaraunnahr, Eron, Ozarboyjon va boshqa mamlakatlarda kechgan voqealarni o’z ichiga oladi. Asarning qo’lyozma nusxalarini Osiyo va Yevropadagi talaygina mamlakatlarning kutubxonalarida uchratish mumkin.

Sharafuddin Ali Yazdiy ”Zafarnoma”sining matni ikki jildda Kalkutta (1885-1888) va Tehron (1957) da Mavloniy Muhammad Ilohdod va Muhammad Abbosiylar tarafidan chop etilgan. Fransuz (Pati de La Krua, 1722) va ingliz (J.Darbi,1723) tillardagi qisqacha tarjimalari ham bor. Asarning Shayboniyxonlardan Ko’chkunchixon(1510-1529) zamonida Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy o’zbek tiliga qilgan tarjimasi ham bizgacha yetib kelgan. XIX asrda shoir va vazir Munisning topshirig’iga binoan Xudoyberdi ibn Qo’shmuhammad Xivaqiy qilgan tarjima va Yaroqboy Qo’ng’irotning ko’rsatmasi bilan noma’lum tarjimon qilgan

o’zbekcha tarjimalari, shuningdek Mustafo Rahimning turkcha tarjimasi (Istanbul, 1929) ham mavjud. Asardan ayrim parchalar fransus, ingliz, rus, italyan va o’zbek tillarda chop etilgan. Parchalar Oltin O’rda hamda Amir Temurning 1360-1370 (Movorounnahr) , 1398-1399 yillardagi (Hiniston yurishi) tarixga oiddir.

Har ikkala ”Zafarnoma” Movounnahr, Eron va Ozarboyjonning ijtimoiy – siyosiy va etnik tarixini, xalqning madaniy hayotini, shuningdek Amir Temur va Temuriylar davlatining boshqa mamlakatlar bilan siyosiy munosabatini o’rganishda muhim manbadir.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davriga oid barcha asarlarda Amir Temur hukmronligi davri tarixi ko`tarinki uslubda bayon etiladi. Bu davrda o`tgan bir yarim asr davomida tanazzuldan boshi chiqmagan Turonda ulkan o`zgarishlar yuz bera boshlaydi. Andak fursatda Samarqand shu qadar go`zal va obod bo`ldiki, Oliy jannatga tana qilib, yer yuzining behishtiga aylangan. Shaharning tevarak-atrofida ham ko`rkam bog`lar va dilkash imoratlar bunyod ettirilgan. Mamlakatning barcha joylaridan juda ko`p odamlar bu muborak shaharga otlanib,hazrat Amir Sohibqironning adolati va marhamati soyasidan panoh topishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мўминов И. М. Амир Темурнинг Ўрта Осиё халқлари тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент.: Фан, 1969.
2. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маьсул муҳаррир Асомиддин Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
3. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ,1997.

TO’QIMANING KELIB CHIQISHI VA XUSUSIYATLARI

Ikromova Nargiza Nemat qizi
Atoyeva Maftuna Ramazon qizi
Buxoro viloyati Shofirkon tumani
13-IDUMning biologiya fani o’qituvchisi
Azimova Gulmera A’zamovna
Shofirkon tumani 22-umumta’lim maktabining
Biologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada to’qimaning kelib chiqishi va xususiyatlari, uning turlari haqidagi ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: to’qima, epiteliy to’qima, muskul to’qima, nerv to’qimasi, biriktiruv to’qimasi, mezenxima, gistogenez, kollenxima.

Odam va hayvonlar to‘qimasi epiteliy, muskul va nerv to‘qimalariga bo‘linadi. Epiteliy to‘qimasi odam va hayvonlar tanasini qoplab turadi, ichki organlarda parda hosil qiladi, himoya funksiyasini; uning hosilalari, masalan, jigar va me’da osti bezining serektor epiteliysi sekretor funksiyasini bajaradi. Xususiy biriktiruvchi to‘qima va uning xreilalari (qarang kren, limfa,tog‘ay, suyak) himoya, tayanch va trofik funksiyani bajaradi. Mezenximadan rivojlanadi. Muskul to‘qimasi qisqarish xususiyatiga ega. Shu tufayli organizm fazoda harakat qiladi va uning organlarida qisqarish harakati sodir bo‘ladi; silliq muskul to‘qimasi mezenximadan, ko‘ndalangtarg‘il muskul to‘qimasi mezodermadan rivojlanadi. Nerv to‘qimasi ektodermadan hosil bo‘lib, organizmning hayot faoliyatini boshqaradi, tashqi muhitdan signallar qabul qiladi va organizmning javob reaksiyasini belgilab beradi. To‘qimaning xosil bo‘lishi (gistogenez) embrionning rivojlanishi jarayonida dastlabki hujayraning ixtisoslashuvi bilan bog‘liq. Ko‘pincha gistogenez voyaga yetgan organizmda ham sodir bo‘ladi. To‘qimaning regeneratsiyalash, ba’zan o‘sishini ta’minlaydi. Har bir organizmning o‘ziga xos funksiyasi, odatda, bitta to‘qima yoki bir qancha ixtisoslashgan hujayralar bilan bog‘liq. Barcha organlarda bir necha xil to‘qima bo‘ladi. Ular birgalikda organizm funksiyasini boshqarib turadi. Funksional jihatdan nerv va muskul to‘qimasi, ayniqsa, chambarchas bog‘langan. Tuban ko‘p hujayralilarda to‘qima kuchli ixtisoslashmagan. Bir xil tipdagi to‘qimaning tuzilishi organizmning har xil qismida va turli darajada tuzilgan organizmlarda bir xilda bo‘lmaydi. To‘qima evolyutsiya davomida hujayralarning funksional ixtisoslashuvi natijasida hosil bo‘lgan.

O‘simliklarda to‘qima bir xil hujayralardan iborat bo‘lsa — oddiy (mas., kollenxima), har xil hujayralardan iborat bo‘lsa — murakkab to‘qima deyiladi.

O‘simlikning hayoti davomida o‘sishini ta’minlovchi to‘qima meristema bilan bog‘liq. Ildiz va poyaning uchki qismidagi to‘qima birlamchi meristema deyiladi. Poya va ildiz diametrining o‘sishi ikkilamchi meristema — kambiy va fellogen bilan bog‘liq. Odatda, o‘simliklarda 3 xil: qoplovchi, o‘tkazuvchi va asosiy to‘qima sistemasi ajratiladi. Qoplovchi sistema birlamchi to‘qima (epiderma, epiblema, ya’ni rizoderma, ekzo, derma)dan hamda himoya va so‘rish funksiyasini bajaradigan havo, ba’zan, tuproq (ildizlar) va ikkilamchi to‘qima (himoya funksiyasini bajaradigan) peridermadan iborat bo‘lishi mumkin. Pust deb ataladigan uchlamchi qoplovchi to‘qima daraxtlar ildizi va poyasida sirtqi peridermaning nobud bo‘lishi tufayli hosil bo‘ladi. O‘tkazuvchi sistema 2 xil: birlamchi va ikkilamchi floema hamda birlamchi va ikkilamchi ksilemadan iborat. Asosiy sistema birlamchi parenxima to‘qimasi — xlorenxima, aerenxima hamda mexanik to‘qima — kollenxima va sklerenximani uz ichiga oladi. Bundan tashkari, ajratish, shamollatish funksiyasiga ega bo‘lgan To‘qima ham bor.

Odam va hayvonlar to‘qimasini gistologiya, o‘simliklar to‘qimasini anatomiya o‘rganadi. O‘simlik to‘qimasi haqidagi dastlabki ma’lumot XVII asrda Malpigi va Gryu asarlarida bayon etilgan. O‘simlik hujayralari bir xil bo‘lsa oddiy to‘qimali, har xil hujayralardan tashkil topgan bo‘lsa, murakkab to‘qimali o‘simlik deyiladi. 1682-yili ingliz tabiatshunosi N. Gryu to‘qima tushunchasini fanga olib kirdi. To‘qimalar joylashishi va bajaradigan vazifasiga ko‘ra xilma-xil bo‘ladi. Qator morfobiologik belgi va xususiyatlariga qarab o‘simliklarda quyidagi to‘qimalar bo‘ladi: hosil qiluvchi to‘qima, qoplovchi to‘qima, asosiy to‘qima, ajratuvchi to‘qima, o‘tkazuvchi to‘qima. Hosil qiluvchi to‘qima (meristema). Bu to‘qima o‘simlik hayoti bilan uzviy bog‘liq. O‘simlik hujayrasi shu to‘qima yordamida bo‘linib ko‘payadi va yangi to‘qima hamda organlar hosil bo‘ladi. Natijaida o‘simlik o‘sishda davom etadi. Hayvonlarda bu to‘qima bo‘lmaydi. Meristema to‘qimasi o‘simlikning turli qismlarida joylashadi. Bu to‘qima hujayralari yupqa va egiluvchan bo‘ladi.

Asosiy to‘qimaning eng muhim vazifasi fotosintez jarayonini, ya’ni o‘simliklarda moddalar almashinuvini amalga oshirishdan iborat. Uning tarkibiga assimilyatsiyalovchi, suv saqlovchi va g‘amlovchi to‘qimalar kiradi. Mazkur to‘qima yadro va bir qavat xlorofill donachalaridan iborat. Shuning uchun ham bu to‘qimalar xlorofilli parenxima yoki xlorenximalar deb ham yuritiladi.

Xlorenxima yunoncha xloros – yashil, enxima – to‘ldirilgan degan ma’noni bildiradi. Ular yashil barg, yashil novdalarda epiderma hujayralari ostida joylashgan. G‘amlovchi to‘qima. Bu to‘qimada fotosintez jarayonida hosil bo‘lgan oziq moddalar, kraxmal, oqsil, karbon suvlar, vitaminlar, yog‘lar to‘planadi va uzoq muddat saqlanadi. Ular o‘simlikning deyarli barcha organlarida bo‘ladi. Jumladan, urug‘larda to‘planib, murtak rivojlanishi uchun sarflanadi. Cho‘ldagi ba’zi o‘simliklarda, masalan, sarsazan, buzoqbosh, qizil sho‘ra, baliqko‘z va boshqalarda

shiraga boy hujayralar bo‘lib, ularda asosan suv saqlanadi. Suv saqlovchi hujayralar o‘simliklarning barg va novdalarida bo‘ladi. Zarurat bo‘lganda o‘simlik shu suvdan foydalanadi. Qoplovchi to‘qimaning chiqib kelishi o‘simliklarni suvli muhitdan quruqlikka moslashishidan boshlangan. Qoplovchi to‘qima organlarni qurib qolishdan va tashqi muhitning noqulay sharoitlaridan, mexanik shikastlanishlardan himoya qiladi. Bular ham ontogenez davrida meristema to‘qimadan vujudga keladi. Bu to‘qima 3 ga bo‘linadi: epiderma, periderma va po‘stloq. Epiderma gazlar almashinishida, kasal hujayralarning sog‘ to‘qimaga kirmasligi hamda o‘simlikni tashqi muhitdan saqlashda qatnashadi. Bu to‘qima ham poya va ildizlarda uchraydi. O‘simlik qarigan sari periderma o‘rniga po‘stlog‘i o‘lik to‘qimalar paydo bo‘ladi.

ONA TILI DARSLARINI O`QITISH XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

G`oyipova Dilfuza Qadamboyevna
Qo`shko`pir tumanidagi 48-sonli maktabning
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili ta’limi va uni o`qitishning yo`l-yo`riqlari tushuntiriladi. O`zbekiston Respublikasida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda ona tili fanining o`rni xususida mulohazalar bildirilgan. Ona tili fanini o`quvchilarga o`rgatishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Ona tili fanining samaradorligini oshirish bo`yicha fikrlar bildirildi.

**Kalit so`zlar:** ma’naviyat, til o`qitish, savodxonlik, ona tili o`qitish metodikasi, og`zaki nutq, yozma nutq, nutq oborotlari.

Annotation. This article explains the mother tongue education and the guidelines for its teaching. Opinions were expressed about the role of mother tongue science in ensuring the development of society in the Republic of Uzbekistan. The theoretical basis of teaching mother tongue to students has been developed. Opinions were expressed on improving the effectiveness of mother tongue science.

Key words: spirituality, language teaching, literacy, native language teaching methodology, oral speech, written speech, speech turns.

Абстрактный. В этой статье объясняется обучение родному языку и рекомендации по его преподаванию. Высказаны мнения о роли науки о родном языке в обеспечении развития общества в Республике Узбекистан. Разработаны теоретические основы обучения студентов родному языку. Высказывались мнения о повышении эффективности науки о родном языке.

Ключевые слова: духовность, обучение языку, грамотность, методика обучения родному языку, устная речь, письменная речь, речевые обороты.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy yo`nalishlarini belgilashda ajdodlarimiz merosidan, ular yaratgan eng yaxshi urf-odatlardan voz kechmaslik aksincha, ularni davom ettirish va boyitishga alohida e’tibor berilayotgani bejiz emas. Birinchi Prezidentimiz ma’naviyatning jamiyat hayotidagi o`rni haqida maxsus to`xtalib, quyidagilarni e’tirof etgan edi: “Ma’naviyat haqida gap ketar ekan, men, avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksaklikka da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg`otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman”.[1]

O`zbekiston Respublikasida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, ta’lim tizimida yangilik ochish, yuksak ong va aql egalari bo`lgan, erkin va mustaqil fikrlay oladigan ijodkor, dunyoqarashi keng

shaxslarni voyaga yetkazishni talab qiladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimov ta’kidlaganlaridek, “Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina, ma’naviyat olami yangi ma’no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma’naviyatning shakllanishiga o`ziga xos ta’sir o`tkazadi”. Ushbu fikrlar negizida ta’lim tizimidagi bosh maqsadlardan biri barkamol, intellektual salohiyati yuqori bo`lgan, mustaqil fikrlovchi, ma’naviy dunyoqarashi keng, milliy mafkuralar asosida ulg`aygan yosh avlodni tarbiyalash ekanligi yotadi. [49]

Darhaqiqat, buyuk kelajakni qurishda yosh avlodning o`rni beqiyosdir. Ularni Vatanga sadoqatli, bir-biriga mehr-muhabbatli, davlat ramzlariga sodiqlik ruhida tarbiyalashda bugungi kunda ulkan bilim va salohiyatga ega pedagog-o‘qituvchilarning xizmati kattadir.

1989-yilda O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida “O`zbek tili O`zbekiston Respublikasining davlat tilidir”[50] (Bu mazmun O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunining 1-moddasida ham aynan shu ko`rinishda keltirilgan) deb bayon etilgan. Zero ona tilimizga davlat tili maqomi berilgach, muassasa, korxona, tashkilot, birlashmalarda ish yuritish o`zbek tilida olib borila boshladi. Bu esa o`zbek tiliga bo`lgan hurmat va uni chuqurroq o`rganish zaruriyatini tug`diradi.

Umumiy o`rta ta’lim maktablarida “ona tili” fanining o`qitilishi davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy ahamiyatga ega hodisadir. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga ko`ra to`g`ri, o`rinli va samarali foydalanish malaka va ko`nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimizga muhabbat ruhida tarbiyalashda maktabda ona tili fanining tutgan o`rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil Respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor, izlanuvchan, bilimga chanqoq, xalqparvar, yurtga sadoqatli shaxslarni tayyorlash masalasi o`ta muhim vazifa bo`lib turgan bir sharoitda bu fanning o`qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda “ona tili”ni o`quv fani sifatida o`qitishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, jamiyatimiz, xalqimiz, millatimiz ravnaqining kelajagi, uning gullab-yashnashi bugun maktab partasida o`tirgan yoshlarning mustaqil turmushga, nutqiy faoliyatga, yuksak madaniyat bilan so`zlasha olishga qay darajada tayyorlanganiga

[49] I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, «Ma’naviyat», 2008, 40-41-betlar.
[50] O‘zbekiston Respublikasining ”Davlat tili haqida”gi Qonuni. T.: O‘zbekiston. 1989-yil. 3-bet.

bog`liq. Chunki so`z qudrati insoniyat tarixida hamma vaqt yuksak martabaga ega bo`lgan.

“Ona tili”ni o`qitish metodikasi va shu davrdagi pedagogik jarayonni chuqur nuqtayi nazarda o`rganish quyidagi olim va tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirildi: A.G`ulomov, H.Ne’matov, U.Nishonaliyev, Q.Yo`ldoshev, S.Matchonov, T.Boboyev, M.Mirqosimova, Yu.K.Babanskiy, M.A.Danilov, I.Ya.Lerner, Y. Drefeishtedt, L.Kleman, Sh.Nad va boshqalar.

Mustaqillik tufayli muomalada, davlat ishlarida erkin qo`llanish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo`lgan, maqomi “Davlat tili haqida”gi qonun bilan belgilab qo`yilgan o`zbek tili mamlakatimizda istiqomat qiluvchi boshqa millat vakillariga davlat tili sifatida o`rgatish metodikasining shakllanib borishida: A.Rasulov, N.Mahmudov, B.To‘xliyev, R.Yo‘ldoshev, B.Rahmatullayev, A.Rafiyev, I.A.Kissen, M.Usmonov, A.Azlarov kabi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir.

Ona tili ta’limi samaradorligini ma’lum darajada oshirish uchun ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ona tili o`qitish tamoyillari quyidagi 5 ta guruhga bo`lamiz:

1. Til materiyasiga, nutq organlarining o`sishiga, nutq malakalarining to`g`ri rivojlanishiga e’tibor berish tamoyili;

2. Til ma’nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma’nolarini) tushunish prinsipi. So`zni, morfemani, so`z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma’lum voqea-hodisalar o`rtasidagi bog`lanishni aniqlash demakdir. Til ma’nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, stilistika)ni o`zaro bog`langan holda o`rganish hisoblanadi.

3. Tilga sezgirlikni o`stirish prinsipi. Til – juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, sistemasini fahmlab olmay turib, sal bo`lsa-da, uning qonuniyatlarini, o`xshashliklarini o`zlashtirmay turib uni yodda saqlay olmaydi.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so`z va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni kuzda tutadi.

5. Og`zaki nutqni yozma nutqdan oldin o`zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta’sir etadi va til o`qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.[51]

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008, 40-41-betlar.

[51] K. Qosimova. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent. ”O`qituvchi”, 2019. 33-bet.

2. O`zbekiston Respublikasining ”Davlat tili haqida”gi Qonuni. Toshkent “O`zbekiston”, 1989-yil. 3-bet.

3. K. Qosimova. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent. ”O`qituvchi”, 2019. 33-bet.

ONA TILI FANI METODIKASI XUSUSIDA

Artiqova Havojon
Qo‘shko‘pir tumanidagi 48-sonli maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili fanini o`qitish xususida mulohazalar berilgan. Ona tili metodikasi, fanning shakllanishi, fanning bo`limlari xususida ma’lumotlar berilgan. Fanning o`quv predmeti sifatida shakllanishidagi bosqichlar aytib o`tilgan. Ona tili metodikasini o`qitish bo`yicha samarali faoliyat olib borgan ilm izlanuvchilari nomlari qayd etib o`tilgan. Ona tili materiallarining ongli o`zlashtirilishini ta’minlash o`qituvchi oldiga qo`yadigan talablar bilan birga keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** qofiya, sarf, nahv, grammatika, sintaksis, morfologiya, o`uv faoliyati

Annotation. In this article, comments on the teaching of mother tongue are given. Information is given about the methodology of the mother tongue, the formation of the subject, and the sections of the subject. The stages in the formation of science as an educational subject have been mentioned. Names of students who have been effective in teaching mother tongue methodology have been recorded. Ensuring the conscious mastering of native language materials is listed along with the requirements for the teacher.

Key words: rhyme, use, grammar, syntax, morphology, hunting activity

Абстрактный. В данной статье даны комментарии к преподаванию родного языка. Дается информация о методике родного языка, становлении предмета, разделах предмета. Отмечены этапы становления науки как учебного предмета. Фамилии студентов, добившихся успеха в преподавании методики родного языка, были записаны. Обеспечение осознанного усвоения материалов родного языка перечислено наряду с требованиями к учителю.

Ключевые слова: рифма, употребление, грамматика, синтаксис, морфология, охотничья деятельность.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zaruriyati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” garchand pedagogik sikldagi fan sanalsa-da, ammo uning ilmiy asosini tilshunoslik fanlari tashkil etadi. Til ilmi sohasida qo‘lga kiritilgan har bir ilmiy yutuq, shubhasiz, maktab ona tili kursining mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi: zaruriyat tug‘ilganda uni yangilash yuzaga keltiradi. Ayni vaqtda shuni ham unutmaslik lozimki, tilshunoslikda fan erishgan barcha yutuqlarni umumiy o‘rta maktab o‘quvchisiga o‘rgatishning iloji yo‘q hamda bunga ehtiyoj ham sezilmaydi. Modomiki, shunday ekan, “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani ana shu til ilmi sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlardan nimani ajratib olib o‘quvchiga o‘qitish lozimligini ham hal qiladi.

Maktab ona tili kursi o‘zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan zaruriy ma’lumotlarni o‘quvchilarning yoshi va taraqqiyot darajasiga mos ravishda ularga etkazishga xizmat qiladi.

Til bir butun tizim bo‘lganligi sababli, maktab ona tili kursining bir bo‘limi ikkinchisi bilan chambarchas bog‘langan. Chunonchi, tilning tovush tizimi o‘rganilar ekan, ayni vaqtda so‘z va uning ma’nolari, gapda so‘zlarning aloqaga kirishi xususida ham ma’lumot beriladi. Leksika va grammatika bo‘limlari o‘rganilar ekan, fonetikadan berilgan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanib ish ko‘riladi.

“Ona tili”ning maktabda o‘quv predmeti sifatida shakllanish va rivojlanish jarayoniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uni taxminan quyidagi davrlarga ajratish mumkin:[52]

Birinchi davr – 1910–1930 yillar. Bu davrda madrasalarda o‘qigan bolalarga savod chiqarganlaridan keyin, qofiya (grammatika) va qofiyaning bo‘limlari: sarf (morfologiya) va nahv (sintaksis) o‘rgatilgan. Bolalarning xat-savod chiqarishi, qiroatxonligiga katta e’tibor berilgan.

Ikkinchi davr – 1930–1960 yillar. Bu davrda maktablarda o‘zbek tilini fan sifatida o‘qitish yo‘lga qo‘yildi; til ta’limidan maxsus o‘quv dasturlari va darsliklari chiqarila boshlandi. “O‘zbek tili”ni maktabda o‘qitiladigan yetakchi o‘quv predmeti sifatida o‘quv rejalaridan mustahkam o‘rin oldi va bu fanning o‘qitilishiga katta miqdorda soat ajratildi.

Uchinchi davr – 1960–1970 yillar. Bu davrga kelib, o‘zbek tilidan ta’lim mazmuni ancha takomillashdi va mazkur fandan yangi o‘quv dasturlari va darsliklari chiqarila boshlandi. Ayniqsa, maktablarning yuqori sinflarida o‘zbek tilining o‘qitilishiga e’tibor kuchaydi.

To‘rtinchi davr – 1970–1990 yillar. Bu davrga kelib o‘zbek tilshunosligida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni maktab darsliklariga kiritishga urinish ancha kuchaydi.

[52] Nazarov K. Istiqlol – o‘zbek adabiy tili taraqqiyotining moddiy-ma’naviy omili.\\ Milliy taraqqiyot – til va ta’lim: Regional konf. Ma’ruza. Tezis. T.: 1995-yil. 3-bet.

Beshinchi davr – 1991 yildan keyingi davr. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin ona tili ta’limi oldiga tamomila yangi talablar qo‘yila boshlandi.

“Ona tili”ni o‘qitish metodikasi va shu davrdagi pedagogik jarayonni chuqur nuqtayi nazarda o‘rganish quyidagi olim va tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirildi: A.G‘ulomov, H.Ne’matov, U.Nishonaliyev, Q.Yo‘ldoshev, S.Matchonov, T.Boboyev, M.Mirqosimova, Yu.K.Babanskiy, M.A.Danilov, I.Ya.Lerner, Y. Drefeishtedt, L.Kleman, Sh.Nad va boshqalar.[53]

Ona tili ta’limi metodlarini ikki katta guruhga ajratsa bo‘ladi:

1. O‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar.
2. O‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar.

Ona tili materiallarining ongli o‘zlashtirilishini ta’minlash o‘qituvchi oldiga qator talablar qo‘yadi. Bu talablar:

a) o‘quv materialining o‘quvchining yosh xususiyati va bilim saviyasiga mos tushishi, ularning o‘quv imkoniyatlariga to‘g‘ri kelishi;

b) o‘rganiladigan materialni o‘rganilgan materiallar bilan uzviy bog‘lash;

v) grammatik tushunchalar yuzasidan bolalarning fikrlash faoliyatini yuzaga keltirish, zaruriyat tug‘ilganda ana shu tushunchalarni qisqa va tushunarli izohlash;

g) misollarning aniq va hayotiy bo‘lishi, o‘quvchilar topgan misollardan unumli foydalanish;

d) mashqlarning qiziqarliligi va xilma-xilligiga erishish;

e) darsni ma’lum bir sistemada olib borish;

f) tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurol va texnik vositalardan unumli foydalanish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nazarov K. Istiqlol – o‘zbek adabiy tili taraqqiyotining moddiy-ma’naviy omili.\\ Milliy taraqqiyot – til va ta’lim: Regional konf. Ma’ruza. Tezis. T.: 1995-yil. 3-bet.

2. K. Qosimova. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent. ”O`qituvchi”, 2019. 61-bet.

[53] K. Qosimova. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent. ”O`qituvchi”, 2019. 61-bet.

MATEMATIKA FANINI O`QITISH METODIKASI XUSUSIDA

Matniyozova Shodiya Shavkatovna
Qo`shko`pir tumanidagi 48-sonli maktabning
matematika fani o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika ta’limi va uni o`qitishning yo`l-yo`riqlari tushuntiriladi. O`zbekiston Respublikasida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda matematika fanining o`rni xususida mulohazalar bildirilgan. Matematika fanini o`quvchilarga o`rgatishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Matematika fanining samaradorligini oshirish bo`yicha fikrlar bildirildi.

**Kalit so`zlar:** metod, didaktika, matematik yo`nalishlar, umumiy metodika, umumta’lim maqsad, tarbiyaviy maqsad, amaliy maqsad.

Annotation. This article explains mathematics education and the guidelines for teaching it. Opinions were expressed about the role of mathematics in ensuring the development of society in the Republic of Uzbekistan. The theoretical foundations of teaching mathematics to students have been developed. Opinions on improving the effectiveness of mathematics were expressed.

Key words: method, didactics, mathematical directions, general methodology, general educational purpose, educational purpose, practical purpose.

Абстрактный. В этой статье объясняется математическое образование и рекомендации по его преподаванию. Высказаны мнения о роли математики в обеспечении развития общества в Республике Узбекистан. Разработаны теоретические основы обучения студентов математике. Были высказаны мнения о повышении эффективности математики.

Ключевые слова: метод, дидактика, математические направления, общая методика, общеобразовательная цель, учебная цель, практическая цель.

Insoniyat o`z rivoji davrida yosh avlodga bilimlar berar ekan asosiy e’tiborini o`z faoliyati va taraqqiyot talablarini hisobga olib, fanlar asoslarini o`rgatishga harakat qiladi. Shu sababli o`quvchilarga barcha bilimlar qatori matematikadan chuqur bilimlar berish vazifasi va uni ilmiy amalga oshirish asosiy masalalardan hisoblanadi. Bunda matematika o`qitish uslubiyati asosiy o`rinlardan birida turadi. “Metodika” so`zi yunoncha “metod” yoki “usul” so`zidan olingan. Matematika o`qitish metodikasi (uslubiyati) fani deb, jamiyat tomonidan qo`yilgan ta’lim maqsadlarga mos ravishda matematik o`qitish usullarini, qonuniyatlarini uning ma’lum rivojlanish darajasida o`rganadigan va tadqiq etadigan pedagogikaning bo`limiga aytiladi. Matematika metodikasi pedagogika va didaktika fanining asosiy bo`limlaridan biri bo`lib, jamiyatimiz taraqqiyoti darajasida ta’lim maqsadlariga mos

keluvchi matematikani o`qitish, o`rganish qonuniyatlarini o`rganadigan mustaqil fandir.

Matematika o`qitish o`zining tuzilishi xususiyatiga ko`ra shartli ravishda uchga bo`linadi:[54]

1. Matematika o`qitishning umumiy metodikasi. Bu bo`limda matematika fanining maqsadi, mazmuni, formasi, metodlari va uning vositalarining metodik sistemasi, pedagogika, psixologiya qonunlari hamda didaktik prinsiplar asosida ochib beriladi.

2. Matematika o`qitishning maxsus metodikasi. Bu bo`limda matematika o`qitish umumiy metodikasining qonun va qoidalarining aniq mavzu materiallariga tatbiq qilish yo`llari ko`rsatiladi.

3. Matematika o`qitishning aniq metodikasi. Bu bo`lim ikki qismdan iborat:

a) Umumiy metodikaning xususiy masalalari;

b) Maxsus metodikaning xususiy masalalari.

Masalan, VI sinfda matematika darslarini rejalashtirish va uni o`tkazish metodikasi deyilsa, bu umumiy metodikaning xususiy masalasi bo`lib hisoblanadi.

Matematika metodikasi haqidagi tushuncha birinchi bo`lib shveysariyalik pedagog – matematigi Gieestalotsining 1803-yilda yozgan “Sonni ko`rgazmali o`rganish” [55]asarida bayon qilingan. XVII asrning birinchi yarmidan boshlab matematika o`qitish metodikasiga doir masalalar bilan rus olimlaridan akademik S.E.Gurev (I760-I8I3), XVIII asrning birinchi va ikkinchi yarmidan esa N.I.Lobachevskiy (1792-1856), I.N.Ulyanov (I83I-I886) va boshqalar shug`ullandilar va ular matematika faniga ilmiy nuqtayi nazardan qarab, uning progressiv asoslarini ishlab chiqdilar.

Matematika o`qitishning maqsadlari quyidagilar: umumta’lim maqsadi, tarbiyaviy maqsadi, amaliy maqsadi. Bu maqsadlar bir-biri bilan uzviy bog`liq bo`lib, bir-birini to`ldiradi.

1. Ta’lim maqsadi o`qituvchidan quyidagilarni talab qiladi.

a) o`quvchilarga matematik bilimlar tizimidan, bilim, malaka ko`nikma berish;

b) haqiqiy olamni matematik metodlar bilan o`rganish;

v) o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqlarini o`stirishni, uning sifatli bo`lishini ta’minlash;

g) o`quvchilarga matematikadan shunday bilimlar berishni ta’minlashi kerakki, bu bilimlar orqali, faol bilish faoliyati orqali, bilim, malaka, ko`nikmalari ortib borsin.

[54]J.O‘.Muxammadiyev.“Matematika va informatika o‘qitish metodikasi” fanidan o‘quv-metodik majmua. Toshkent.2019.

[55] M.E. Jumayev “Matematika o’qitish metodikasi”. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2004

2. Tarbiyaviy maqsad. Matematika o`qitish o`quvchilarni sabotlilikka, tirishqoqlikka, puxtalikka, o`z fikri va xulosalarini nazorat qila olishga, ayniqsa, kuzatish, asosida aytiladigan fikrlarning ravon bo`lishiga erishish kerak. Miqdorlar orasidagi bog`lanishni ifodalash uchun matematikada simvollar ishlatiladi. Mana shu matematik til rivojlanishi kerak.

Matematikani o`rganish o`quvchilarning o`z ona tillarida nutq madaniyatini to`g`ri shakllantirish, o`z fikrini aniq, ravshan va lo`nda qilib bayon eta bilish malakalarini o`zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Maktabda matematika o`qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o`quvchilardan individual yozma so`rov o`tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o`zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang`ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo`ljallangan.

Yuqoridagi ko`nikmalarni shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi holatlar pedagogik jarayonda ta’lim sifatini oshirishga ko`maklashadi va faoliyatni muayyan tarzda uyg`unlashtirishga xizmat qiladi.

Aytishimiz joizki, turmush madaniyatini shakllantirishga, jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashga, o`quvchilarda sog`lom raqobatni rivojlantirish ishiga pedagog to`la ma’suldir. Shuning uchun ham pedagog tinimsiz izlanishda, harakatda bo`lishi lozim. Shundagina u ko`zlangan maqsadga erisha oladi, o`quvchilarni o`ziga jalb qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. J.O‘.Muxammadiyev.“Matematika va informatika o‘qitish metodikasi” fanidan o‘quv-metodik majmua. Toshkent.2019.

2. M.E. Jumayev “Matematika o’qitish metodikasi”. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2004

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ОЗОДЛИКДАН МАҲРУМ ЭТИЛГАН ШАХСЛАР БИЛАН МЕДИАЦИЯ (ЯРАШТИРИШ) ҚИЛИШ А.А. Шамансуров	4
2.	ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ Хомидов Қаҳҳорали Қурбонали ўғли	10
3.	INTRODUCTION OF INNOVATIVE BANKING SERVICES IN THE DEVELOPMENT OF COMMERCIAL BANKS Sharobiddinov Ahrorbek Rustamjonov O‘smonjon	16
4.	SHE’RIY ASARLARDA OLMOSHLARNING QO‘LLANILISHI Husniya Zaynalova Abduraxmon qizi Sevara Barotova Akbarali qizi	19
5.	ХОРИЖДАН ИНТРОДУКСИЯ ҚИЛИНГАН ТРИТИКАЛЕ НАВЛАРИНИНГ ЕКОЛОГИК НАВ СИНОВИ И.У. Эгамов Н.Х.Юсупов Б.Т. Хамдамова.	23
6.	ТАКРОРИЙ ЭКИНЛАР ЭКИШДА ҲАМКОР ЭКИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ И.Н.Хошимов Ш.Д.Худойбердиева	31
7.	BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARGA FANLARNI O‘QITISHDA ELEKTRON DARSLIKLARDAN FOYDALANISH O‘RNI VA AHAMIYATI Ismoilova Dilrabo Sidikjonovna Toshboltayev Faxriddin O‘rinboyevich	34
8.	ДОН ВА ДУККАКЛИ ЕМ-ХАШАК ЭКИНЛАРИНИ ҚЎШИБ ЭКИШДАГИ ТАДҚИҚОТЛАРДАГИ ЎРНИ А.А.Иминов М.А.Каримова	39
9.	INSON HUQUQLARI SOHASIDAGI TA’LIM – INSON HUQUQLARI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI Sadikova Shaxnoza Muhammadsobirovna	42
10.	LINGUACULTURAL CHARACTERISTICS OF ORAL SPEECH IN EDUCATIONAL DISCOURSE Шахноза Бобожонова Йўлдош қизи	47
11.	O‘ZBEK TILIDA BIRIKTIRUV VA AYIRUV MUNOSABATINI IFODALOVCHI BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR TAHLILI Abduraxmonova Zulfiya Azamatovna	50
12.	LINGVOKULTRALOGIYANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI, METODOLOGIYASI Olimjonova Kibriyo Erkinjon qizi D.A.Nurmonova	55
13.	“ТАБАҚОТ” АСАРЛАРИНИНГ ИСЛОМ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЎРНИ Қ.Т.Зоҳидов	61
14.	NUSH PIYOZ EKIB BOSH PIYOZ YETISHTIRISHDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLIGIYALARNING AHAMIYATI Bo‘riyev Abror Nortojiyevich	65
15.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA AKTDAN FOYDALANISH	69

	Shermatova Hilola Mirzayevna Askarova Shahlo Muhammadaliyevna Orifjonova Mashhuraxon Otabek qizi	
16.	PEDAGOGIK VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASIDA O‘QUVCHILARNING SHAXSIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH Umirov Boboyor Baxtiyor o‘g‘li	75
17.	ЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ ҚУРИЛИШИ БЎЙИЧА ДАСТЛАБКИ ТАКЛИФ ВА ЛОЙИҲАЛАР АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИ АСОСИДА Самардинов Ойбек Уйғун ўғли	81
18.	MATEMATIKA DARSLARINI «BUMERANG» TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI Muydinjonov Davlatjon Rafiqjon o‘g‘li, Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o‘g‘li	86
19.	YOSHLAR MUOMALA MADANIYATI VA IJTIMOIY FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI Tursunova Nigora Komilovna	90
20.	STREPTOKOKK AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARNING PATOGENLIK XUSUSIYATLARINING TAHLILI Azzamov Ulug‘bek Azimovich, Boltayev Komil Sultonuvich Muhammadiyeva Muxlisa Zokirovna	95
21.	OQDARYO ATROFIDA O‘SUVCHI O‘TCHIL O‘SIMLIKLAR VA DARAXTLAR NEMATODAFAUNASINING QIYOSIY O‘RGANISH Boltayev Komil Sultonovich Jo‘rayev Abdulloh Shavkat o‘g‘li	102
22.	БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРИ ИЧКИ АУДИТИ Х.Исканов, А.Норкучқоров А.Болиев	108
23.	ОИЛА ҲАМЖИҲАТЛИГИ – ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИ ГАРОВИ Мавсума Йўлдошева	121
24.	АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ - ЭКОНОМИСТОВ УЗБЕКИСТАНА Рамазанова Роза Абиловна	123
25.	ТРИ СОСТАВЛЯЮЩИЕ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ: СЕМЬЯ, ШКОЛА, ОБЩЕСТВО Имаева Наиля Камильевна	128
26.	ИННОВАЦИОННОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В МЛАДШИХ КЛАССАХ Евсевьева Камила Рафисовна	130
27.	ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАЦИОННО – КОМПЬЮТЕРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕДАГОГА НА ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ Шемелина Оксана Петровна	132
28.	HALOLLIK-MUVAFFAQIYAT KALITI Razzaqova Ra'no Otaboyevna	134
29.	ПРИМЕНЕНИЕ ТРИЗ-ТЕХНОЛОГИИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ Муминова Наргизахон Тохиржон қизи	136
30.	ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ УЛУЧШЕНИЯ МОЗГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПРИ ПОМОЩИ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ Штиль Екатерина Владимировна	142
31.	OILAGA YOSHLARGA VA AXLOQQA QARSHI JINOYATLAR Razzaqova Ra'no Otaboyevna	145

32.	ELEKTR TOKI VA UNING XARAKTERISTIKASI Axmedov Murodjon Inomjon o‘g‘li Mamatqulova Oltinoy Hamidjon qizi	148
33.	ONA TILI DARSLARIDA ILG‘OR METODIKALARDAN FOYDALANISH VA KOMMUNIKATIVLIK Tojiddinova Nazokat Shuxratbek qizi Shohida Yusupova	155
34.	МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ В РЕШЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗАДАЧ Балтабаева Олеся Эркиновна	160
35.	KIYIM TURLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI HAQIDA Otamurodov Otaxon Berdiyevich	164
36.	O‘QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA TURLI TOPSHIRIQLARDA FOYLALANISH Nurxon Mo‘minova	167
37.	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNING AHAMIYATI Kamolova Shohista Saypitdinovna	170
38.	BOSHLANǦICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O‘YINLAR ORQALI ÕQITISH G‘affarova Muqaddas Atabekovna	175
39.	“KVADRAT TENGLAMALAR” Kuryazova Muqaddas Muhamedovna	177
40.	“LOYIHALASH” METODI ASOSIDA INFORMATIKA DARSLARINI TASHKIL QILISH AFZALLIKLARI Niyazmetova Gulnora Shavkatovna	181
41.	O‘ZBEKISTON ILM-FANING RIVOJLANISHIDA TARIX FANINING O‘RNI Payzullayeva Raximajon Ibodullayevna	184
42.	ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Raimova Dildora Matnazarovna	187
43.	BOSHLANG‘ICH SINF YOSHIDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISH USULLARI Rajabbayeva Dilrobo Alisher qizi, Davletova Dildora Bahodirovna	190
44.	SOG‘LOM TURMUSH TARZI – JISMONIY BARKAMOLLIK OMILI SIFATIDA Ro‘ziboyeva Shahrizoda Otabek qizi	194
45.	BOSHLANG‘CH TA’LIMDA SINF RAHBARINING PEDAGOGIK MAHORATI Shomirzayeva Zulfiya Solijonovna	198
46.	PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH VA O’QUVCHILARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI ANIQLASH Mirmuhamedova Farida Saidolim qizi	202
47.	GEOGRAFIYADA GENDER TADQIQOTLAR Niyazmatova Dilnoza Valijon qizi	205
48.	HUJAYRANING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Vohidova Hayotxon Ibrohimovna	209
49.	AMIR TEMUR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI Maqsudova Nigoraxon Raximovna	212
50.	TO’QIMANING KELIB CHIQISHI VA XUSUSIYATLARI Ikromova Nargiza Nemat qizi Atoyeva Maftuna Ramazon qizi, Azimova Gulmera A’zamovna	215
51.	ONA TILI DARSLARINI O`QITISH XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR G`oyipova Dilfuza Qadamboyevna	228

52.	ONA TILI FANI METODIKASI XUSUSIDA Artiqova Havojon	222
53.	MATEMATIKA FANINI O`QITISH METODIKASI XUSUSIDA Matniyozova Shodiya Shavkatovna	225

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil. 232 bet.
© Talqin va tadqiqotlar, 2022
© Mualliflar jamoasi, 2022